

D.N.Abdullayeva

# “GEOGRAFIYA TA'LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVASION TEXNOLOGIYALAR”



**Mualliflar:** D.N.Abdullayeva - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsent v.b., PhD.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma geografiya ta'limida zamonaviy yondashuvlar va innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish texnologiyalari haqida bo'lib, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi geografiya yo'nalishi tinglovchilari hamda Oliy ta'lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv-uslubiy qo'llanmada mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, xususan, geografiya ta'limi, uni o'qitishda zamonaviy, innovasion va axborot-kommunikasion texnologiyalarini qo'llashning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, geografiya ta'limida muammoli va masovaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati, o'quvchilarning geografik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan nostandart testlardan foydalanish hamda geografik mashq va masalalar bajarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

#### **Taqrizchilar:**

**M.K.Qalandarova** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Geografiya" kafedrasida dosenti v.b., PhD.

**D.S.Sarimova** Toshkent viloyati XTXQTMO hududiy markazi "Tabiiy va aniq fanlar" kafedrasida dotsenti v.b., PhD.

Monografiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2022 yil 16-martdagi 09-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>1. Innovation ta'lim texnologiyalari yordamida geografiya darslari samaradorligini oshirish yo'llari .....</b>	<b>5</b>
<b>2. Geografiya ta'limini interfaol ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish .....</b>	<b>17</b>
<b>3. Geografiya darslarida elektron axborot ta'lim resurslari (EATR)dan foydalanish (elektron darsliklar, ularni yaratishga qo'yiladigan talablar, videodarslar va ularni yaratish metodikasi).....</b>	<b>28</b>
<b>4. Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida geografiya darslarini tashkil etish.....</b>	<b>43</b>
<b>5. Geografiya fanini o'qitishda nostandart testlardan foydalanish.....</b>	<b>55</b>
<b>6. Masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish.....</b>	<b>65</b>
<b>7. Geografiya ta'limida masala va mashqlardan foydalanish .....</b>	<b>78</b>
<b>8. Toponimik rayonlashtirish masalalari. O'zbekistonning toponimik rayonlari .....</b>	<b>86</b>
<b>9. Geografiya ta'limida ekologik madaniyatni sharllantirish. Atrof-muhit monitoringi va geografik prognozi.....</b>	<b>100</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>116</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>118</b>

## KIRISH

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, aksariyat mamlakatlar tomonidan 2030 yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" jarayoni dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda respublikamizda o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta'lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovasion texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun dunyo bo'ylab amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bois, geografiya fani o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida elektron ta'lim vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, ma'lumotlarni tabiiy va virtual shaklda integratsiyalashgan holda taqdim etishni tashkillashtirish va multimediali mashg'ulotlar o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, geografiya fani o'qituvchilarining mustaqil malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni zamonaviy yondashuvlar asosida yo'lga qo'yish, ularning kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda O'zbekiston geografiyasi bo'yicha milliy va umunjahon yutuqlarini o'rganish uchun sharoit yaratish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2020 yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish respublikamiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog-hodim oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish vazifasi qo'yilgan<sup>1</sup>. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta'lim tizimi oldiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

# 1.INNOVASION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA GEOGRAFIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.

## Reja:

1. Ta'lim tizimida innovasion texnologiyalar va ularning mohiyati.
2. Geografiya ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
3. Geografiya ta'limida innovasion jarayonning asosiy bosqichlari.

### *1. Ta'lim tizimida innovasion texnologiyalar va ularning mohiyati.*

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, aksariyat mamlakatlar tomonidan 2030 yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" jarayoni dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda respublikamizda o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta'lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovasion texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi ham takomillashtirildi.

Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy – texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni tasdiqlagan, ushbu farmonda Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida uzluksiz ta'lim tizimi

mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayomiga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish belgilangan.

Mazkur Farmonda belgilangan ustuvor vazifalar ta'lim tizimidagi borcha fanlar qatori geografiya fanini o'qitilishini ham innovasion pedagogic texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Geografiya fanini o'qitish metodikasida o'qishdan maqsad ya'ni geografiya fanini nima uchun o'qish, maktab o'quvchilari geografiya fanida nimalarni o'rganishi, o'qishning qanday turlari va metodlaridan foydalanish zarurligi, hamda geografiya fanini qanday vositalar bilan o'qitish kerak degan muammolar mavjud. Shu nuqtai nazardan geografiya ta'limida innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish geografiya ta'limidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

***Nega o'qitamiz?***

***Nimani o'qitamiz?***

***Qanday o'qitamiz?***

savollariga javob izlash bilan bir qatorda

***Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?*** - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini *texnologiyalashtirishga*, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilalaganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchi*dan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

*Ikkinchi*dan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat Indashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchi*dan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjimi oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To'rtinchi*dan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayrlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatلامي talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublarni, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

- Innovatsiya – (ingliz tilida: “- in- prefiks qo'shimcha, “kirish”, “singish” va “novatsiya” –“yangilik, tizim ichki tuzilishini o'zgartirish) nuayyan jarayonga yangilik kiritish jarayoni.
- Innovatsiya -o'quv jarayoniga yangilik olib kirish, o'quv jarayonini tahsil oluvchining ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, ularning bilim olishlari, ko'nikma va malaka (BKM)larini shakllantirishlariga zamin yaratish.

Innovatsiyalar tarixidan

O'tgan asming 70-yillari oxirlarida amerikalik olimlar: G.Gardner, K. Levi, L. Stross;

Rus olimlari: A.M.Arseneva, K.N.Volkov, M.N.Skatkin;

O'zbekistonlik pedagog olimlar: J.Yo'ldoshev, N.Saidahmedov, U.Nishonov, R.Ishmuxamedov, M.Ochilov va boshqalar pedagogika fani va amaliyotida muvaffaqiyatga erishish muammosini hal qilish borasida innovasion g'oyalarni ilgari surdilar.

Interfaol («Inter» - bu o'zaro, hamkorlikda, «act» - harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq Iki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylatgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'mi qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

- o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

## ***2. Geografiya ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.***

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq.

O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa

ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (lki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Zamonaviy geografiyani o'qitishda innovasion texnologiyalardan samarali foydalana olish eng birinchi navbatda o'qituvchining faoliyatiga, nazariy bilim darajasiga, tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Bugungi kun ta'lim tizimining talablaridan kelib chiqqan holda innovatsion texnologiyalardan geografiya darslarida mavzuga mos turda saralab olish va olib borishdan ko'zda tutiladigan maqsadlar quyidagicha taqsimlanadi:

-o'quvchilarning geografiya faniga va u orqali o'zi yashayotgan o'lka tabiatiga mehr-muhabbatni shakllantirish,

-ularning nazariy bilimlarni chuqur o'rganishida, o'zicha fikrlay olishi hamda o'rganilgan bilimlarni amalda bajara olishida muhim o'rinni egallash;

-o'rganilayotgan mavzuni yengil o'zlashtira olishga yordam berish va boshqada shunga o'xshagan ahamiyatli vazifalarini o'z ishiga oladi.

Geografiya darslarni o'qitishda avvaldan takomillashtirilgan ta'lim metodlari: og'zaki bayon, suhbat, darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kuzatish va tajriba, amaliy ishlar va shuning bilan bir qatorda innovasion texnologiyalardan to'g'ri foydalana bilish - bu o'quvchilarning fikrlarni oydinlashtiradi, darsga jadalligini o'ttiradi.

Innovatsiya – bu inglizcha «yangilik kiritish» degan tushuncha bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan geografiya darsida yangiliklar, interfaol metodlar bilan boyitilib, to‘ldirilib borilishi kerak.

Innovation pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda ta‘lim mazmunidan kelib chiqib o‘ziga xos usul va vositalardan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar metodlariga quyidagilar kiradi:

- o‘qitishning faol metodlari;
- pedagogik texnika;
- ta‘lim jarayonini individuallashtirish;
- ilg‘or pedagogik tizimlarni loyihalash;
- ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish;
- modulli ta‘lim texnologiyalari;
- pedagogikada innovation jarayonlar;
- pedagogik mehnatni tashkil etishning ilmiy asoslari;
- pedagogik test va standartlar;
- ishbilarmonlik o‘yinlari;
- o‘yinli o‘qitish madaniyati;
- o‘yinli o‘qitish texnikasi.

Innovation pedagogik texnologiyalarni faoliyatli tashkil etish ta‘limning zamonaviy vositalari, o‘qitish vositalari, ta‘lim turlarining ta‘lim vositalariga muvofiqligini ta‘minlashga bog‘liq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi innovation pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Innovation ta‘lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta‘lim va ta‘lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan o‘quv va ta‘lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi.

Ta‘limdagi innovation texnologiyalar ta‘limni tartibga solish va uni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma‘lum va yangi narsalardan qo‘rqishgan, ular har qanday o‘zgarishlarga salbiy munosabatda bo‘lishgan. Oddiy hayot tarziga ta‘sir qiladigan ommaviy ongda mavjud bo‘lgan stereotiplar og‘riqli hodisalarga olib keladi, ta‘limning barcha turlarining yangilanishiga to‘sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta‘limdagi yangiliklarni qabul qilishdan bosh tortishining sababi, qulaylik, xavfsizlik va o‘zini tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni to‘shib qo‘yishdan iborat. Hamma ham nazariyani qayta o‘rganishga, imtihon topshirishga, fikrini o‘zgartirishga, shaxsiy vaqtini va pulini

bunga sarflashiga tayyor emas. Yangilash jarayoni boshlanganidan so'ng, uni faqat maxsus usullar yordamida to'xtatish mumkin.

### *Ta'limda innovasion texnologiyalar turli sabablarga ko'ra "sekinlashadi".*

1. Ijodiy to'siq. Eski dasturlar bo'yicha ishlashga odatlangan o'qituvchilar hech narsani o'zgartirmoqchi emas, o'rganishni yoki rivojlanishni xohlamaydilar. Ular ta'lim tizimidagi barcha yangiliklarga dushman.

2. Muvofiqlik. Moslashuvchanlik, rivojlanishni xohlamaslik, boshqalarning nazarida qora qo'yga o'xshab qolishdan qo'rqish, kulgili tuyulishi tufayli o'qituvchilar g'ayrioddiy pedagogik qarorlar qabul qilishdan bosh tortadilar.

3. Shaxsiy tashvish. O'ziga ishonmaslik, qobiliyat, kuch, o'zini past baho berish, o'z hukmlarini ochiq aytishdan qo'rqish tufayli, ko'plab o'qituvchilar ta'lim muassasasidagi har qanday o'zgarishlarga oxirgi imkoniyatgacha qarshilik ko'rsatadi.

4. Fikrlashning qattiqligi. Eski maktab o'qituvchilari o'z fikrlarini yagona, yakuniy, qayta ko'rib chiqilmaydigan deb hisoblaydilar. Ular yangi bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishga intilmaydilar va zamonaviy ta'lim muassasalarida yangi tendentsiyalarga salbiy munosabatda bo'lishadi.

#### **Innovasion faoliyat tushunchasi**

“Innovatsiya” tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. «Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi va bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu mahnosi hozirgacha etnografiyada saqlanib qolgan.

Pedagogik texnologiya - ta'lim modellarini maqbullashtirish maqsadida, inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, amalga oshirish va natijalarini aniqlash tizimidir.

(YUNESKO)

### **3. Geografiya ta'limida innovasion jarayonning asosiy bosqichlari.**

1-bosqich. Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik konsepsiyasi yuzaga kelishi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalardan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2-bosqich. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan ob'ekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namunasi ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3-bosqich. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'payish topilib uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu bosqich

faqatgina yangilikni qabul qilish shartidagina amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinadi.

4-bosqich. Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo'shilib) keng tatbiq etilishidan iborat.

5-bosqich. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

6-bosqich. Yangilikning qo'llanilish doirasi qisqarib, yangi mahsulotlar bilan almashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Ta'lim-tarbiya jaryonidagi o'zgarishlar o'qituvchilar yoshlar oldiga ham muhim vazifa qo'yadi. Ular izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to'plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog'liq. Umuman olganda globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayoni zamon qo'yayotgan talablarga javob berishi, undan orqada kolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasidagi yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo'lsa, tarbiya sohasidagi o'ziga xoslik O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini kafolatlab beradi degan so'zlarini e'tirof etgan holda ta'lim-tarbiya berish yosh o'qituvchilarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovasion jarayon bo'lib, oldingi egallangan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarni yaratish va joriy etishdan iboratdir. Geografiya ta'limida o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda, asosiy o'rinni ta'limga interfaol usullarni, innovasion pedagogik texnologiyalarini kiritish va ulardan mohirona foydalanish muhim o'rin tutadi. Zero an'anaviy ta'limda o'qituvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lishsa, rivojlantiruvchi ta'lim mezonlariga muvofiq bilimlarni talabalarning o'zlari mustaqil qidirib topishi, o'rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga yo'naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik innovasion texnologiyalarning qo'llanishi ta'lim tizimi modernizatsiyasini tarkibiy elementi hisoblanadi. Bu davlat va jamiyatni malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishiga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim tizimida innovasion texnologiyalarni qo'llash pedagogik faoliyat va mahoratni muhim ko'rinishi hisoblanadi va u bir necha bosqichlarda ya'ni, loyiha yaratish, pedagogik jarayonni tashkillashtirish va samaradorligini ta'minlash, talabalar faoliyatini baholash va nazorat etish bilan birlilikda olib boriladi.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida texnologiyalashtirish, innovasion o'qitish usullarini keng qo'llash, kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon yaratadi. O'qitish sifatini yaxshilash samaradorligini oshiradi. Ushbu jarayonga yangiliklarni kiritish innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi. Innovasion jarayon esa qusydagi uchta asosiy bosqichlarning rivojlanishi sifatida qarab chiqiladi: ya'ni, g'oyalarning shakllantirilishi, amaliy jihatdan g'oyalarning ishlab chiqilishi va yangilikning amaliyotga joriy etilishi. Mazkur o'zgarishlarga bog'liq ijtimoiy –pedagogik muhitdan foydalanish amaliyoti sifatida qarash mumkin.

Ta'lim sohasida innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarni izchil olib kiritishni ta'minlaydi. Didaktik imkoniyatlarga ko'ra ta'lim tizimi innovasion faoliyat o'qituvchilar jamoasini pedagogik mahorati rivojlanib boradi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Texnologik yondashuv, aslini olganda, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga ocherish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali ta'lim tizimidan iboratdir. Tahlillardan ma'lumki, innovasion pedagogik faoliyatni shakllanishi va uni tadbiiq etilishi geografiya fanini o'rganish jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan yangiliklar, holat yoki natijaga olib boruvchi usullar fanning o'zlashtirish ko'rsatkichi o'zgarib boradi. Natijada fanni o'qitish samaradorligining takomillashishini ko'rsatmoqda. Barcha fanlarda bo'lganidek, geografiya fanini o'qitishda shartli yangilik sifatida munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

Geografiya fani yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik ishlar boshqa fanlarga qaraganda sust olib borilmoqda. Shunday ekan har bir geografiya fani o'qituvchisi dars jarayonlarini zamonaviy dars talablari asosida takomillashtirishi va sifat-samaradorlikka erishishi lozim.

### ***Geografiya fanini o'qitishda innovasion pedagogik faoliyatni shakllantirish.***

Geografiya fanini o'qitishda innovasion pedagogik faoliyatni shakllantirishda yangi texnik vositalar, usullar va modullar asosida mamlakatimiz va xorij mamlakatlarini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi rivojlanishi, taraqqiyoti va istiqbolini chuqur o'rganadi. Innovasion texnologiyalardan unumli va to'g'ri tanlash orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

- O'quvchilarni dars mavzusiga qiziqitirish;
- Bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish;
- Yoshlar tafakkurini rivojlantirish, ya'ni o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish;
- O'quvchilarni o'zaro muloqot qilishga o'rgatish;
- Ta'lim jarayoniga hamma o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun sharoit yaratish;
- O'quvchilar guruhida mo'tadil psixologik iqlim yaratish;
- O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi.

### ***Pedagogik texnologiya unsurlari***

- 1) O'qituvchi va o'quvchi faoliyati
- 2) ta'lim-tarbiya maqsadi
- 3) ta'lim-tarbiya mazmuni
- 4) ta'lim jarayoni
- 5) texnik vositalar, inson salohiyati, "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari va faoliyati
- 6) ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari
- 7) ta'lim-tarbiyaning kafolatlangan natijasi va h.k.

Ta'lim texnologiyasi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda muayyan metod, usul va vositalar asosida samarali boshqarish tizimi maqsadga yo'naltiriladi. Kafolatlangan natijaga erishish kuzda tutiladi.

### ***Zamonaviy ta'lim texnologiyasi***

- ta'lim mazmunini mukammal o'zlashtirishga olib kelishi;
- teskari aloqalarning ta'minlanishi;
- bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- turli xil faol ta'lim metodlarining qo'llanilishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- O'zlashtirilgan materialni uzoq muddat xotirada saqlab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baholash qobiliyatini shakllanishi;

- o'quvchilarning fan, mavzu va o'qib-o'rganishga oid ijobiy munosabatlarni shakllanishi;
- O'quvchilarda mustaqillik xislatlarini shakllanishi,
- tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi;
- Muammolarni mustaqil yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

### **Mavzu bo'yicha test savollari:**

#### **1. Innovatsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Innovatsiya (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilik demakdir
- B) Innovatsiya lotincha *innovazione*) – o'zgarish yaratish, o'zgartirish demakdir
- C) Innovatsiya (yunoncha *innovatiye* – birgalikdagi faoliyat demakdir
- D) Innovatsiya (inglizcha *innovation*) – qo'shimcha kiritish, qo'shish demakdir.

#### **2. Interfaol so'zining ma'nosi nima?**

- A) Interfaol («Inter» - bu individual, «act» - harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq
- B) Interfaol («Inter» - bu o'zaro, hamkorlikda, «act» - harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq
- C) Interfaol («Interact» - bu loyihaviy) – loyihaviy harakat qilmoq
- D) Interfaol («Inter» - bu yakka tartibda, «act» - harakat qilmoq) – yakka harakat qilmoq

#### **3. «Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta nechanchi asrda kimlarning o'rganishlarida paydo bo'ldi?**

- A) XXI asrda tilshunoslarda o'rganishlarida paydo bo'ldi.
- B) XIII asrning ikkinchi yarmida siyosatshunoslarda o'rganishlarida paydo bo'ldi.
- C) XIX asrda madaniyatshunoslarda o'rganishlarida paydo bo'ldi.
- D) XX asrda tarixchilarda o'rganishlarida paydo bo'ldi.

#### **4. Geografiya ta'limida innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari nechta?**

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 6 ta

## Nazorat savollari:

1. Innovasion pedagogik texnologiyalarning mohiyati nimalardan iborat?
2. Geografiya ta'limida qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshishiga yordam beradi?
3. Geografiya ta'limida innovasion jarayon qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
4. Geografiya fanini o'qitishda innovasion pedagogik faoliyatni shakllantirishda nimalar alohida ahamiyatga ega?

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.
2. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat., O'quv qo'llanma, Toshkent. 2008.
3. Ergasheva G, Ahmedova N.Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchini innovasion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari. Uzluksiz ta'lim jumali.1-son, 2015 yil.
4. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. "Ta'limda innovasion texnologiyalar: ta'lim muassalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar". T. 2016.
5. Tolipov O'Q. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: «Fan», 2006.
6. Vahobov H, Mirzamahmudov O. Geografiya o'qitish metodikasi. "Namangan", 2016.
7. Vaxobov X., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - "Nodirabegim" nashriyoti. 2021 yil.
8. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: «Iqtisod-moliya», 2009.

## Internet saytlari:

9. <http://www.ziyonet.uz>
10. <http://www.pedagog.uz>
11. <http://www.geografiya.uz>
12. <http://www.geograf.uz>

## 2.GEOGRAFIYA TA'LIMINI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.

### Reja:

1. Geografiya ta'limida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari.
2. Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari.
3. Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar. Geografiya ta'limida foydalaniladigan interfaol metodlardan namunalar.


### *1. Geografiya ta'limida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari.*

Respublikamizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, unda zamonaviy innovasion texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-Sonli Qarorida tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ta'lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni qo'llashga qiziqish kun sayin oshib bormoqda. Bu bilan biz o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan hoxish va qiziqishlarining oshishiga erishamiz. Xususan, umumta'lim maktablarida geografiya darslarini zamon talablariga javob bera oladigan, eng ilg'or innovasion texnologiyalardan foydalanib tashkil etish o'quvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga, dunyoqarashlarining kengayishiga, tabiat va inson kabi tushunchalarining shakllanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda respublikamizning ayrim umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishda o'qituvchilar faqatgina geografik xarita va darslik bilan chegaralanib qolayotganligi sir emas. Zero, geograf olim Baranskiy ta'kidlaganidek, hech kaysi fan geografiya fanidek go'zallikka, maroqlilikka va ko'rgazmalikka muhtoj emas. Geografiya darslarining samarali tashkil etilishida interfaol metodlarning ahamiyati

933014



NIZOMIY NOMIDAGI  
TDPU  
AXBOROT-RESURS  
MARKAZI


katta. Bu o'quvchilarda faollikni va geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga yordam beradi

Interfaol ta'lim ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi. *Interfaol ta'lim* (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) – o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Mohiyatiga ko'ra interfaollik o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi.

## 2. Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari.


Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. Interfaol ta'limda suhbat quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi.



### Interfaol ta'limda tashkil etiladigan suhbat (dialog)

Interfaol TT mohiyatiga ko'ra suhbatning "O'quvchi – axborotkommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma,

malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi. O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqib olish kabi sifatlarini shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol TTni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi. O'quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi.



### Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar

Shu bilan birga interfaol TTni qo'llash samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq.



### Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar


*Odatda interfaol TTga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:*

- individual;
- juftlik;
- guruh,
- jamoa bilan ishlash

Interfaol TTni qo'llash jarayonida o'quvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalari erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqib olish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Interfaol ta'lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta'limga xos asosiy belgilar sanaladi.



### **Interfaol ta'limning asosiy belgilari**

**Izoh:** Refleksiya (lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash), o'z-o'zini tahlil qilishi.

Barcha ta'lim turlari kabi interfaol ta'lim ham ustuvor tamoyillarga ega:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p.
3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.


4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.

5. Mashg'ulotda o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).

6. Bildirilgan g'oyalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

#### **Interfaol ta'lim quyidagi imkoniyatlarga ega:**

- o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir o'quvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- o'quvchilarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- o'quvchilarda mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- o'quvchilarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o'quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.



#### **Interfaol ta'limning asosiy shakllari**

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blis-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshqalar.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b.

Interfaol ta'lim texnologiyalarining asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Interfaol metod-ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Inter-faol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:

norasmiy bahs-munozaralar- o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

### ***3. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari. Geografiya ta'limida foydalaniladigan interfaol metodlardan namunalar.***

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish soha-sidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emostional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi (Taksonomiya — borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkumi bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustah-kamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

***Interfaol ta'lim metodlari.*** Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng

qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil

nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchitalabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Quyida biz zamonaviy geografiya darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

**1.«Rezyume» texnologiyasi** - bu texnologiyani fandagi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishda qo'llash tavsiya etiladi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

**7-sinf. O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi mavzusi misolida**  
(1-ilova. Misol tariqasida)

O'quvchilar tabiiy-geografik o'lka bo'yicha ushbu jadvalni to'ldiradilar

O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi							
Geografik o'rni		Iqlimi		Suvlari		Tuproqlari	
Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.
<b>Xulosa:</b>							

**2. «Muammo» texnologiyasi** - o'quvchilarga mavzudan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechiuvda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishda qo'llash tavsiya etiladi.

**9-sinf. Zamonaviy ekologik muammolar mavzusi misolida**  
(2-ilova. Misol tariqasida)

Muammoning Turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va Sizning harakatlaringiz
Zamonaviy ekologik muammolar	Insoniyatda ekologik madaniyatning yetarlicha shakllanmaganligi	Atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga oid tadbirlar o'tkazish

**3. "Qarorlar shajarasi" strategiyasi ("Qaror qabul qilish texnologiyasi")** -

metodi geografiya fanidagi murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan metod hisoblanadi.

**6-sinf. Okean boyliklari va ulardan foydalanish va muhofaza qilish muammosi mavzusi misolida**

<b>MUAMMO: DUNYO OKEANINI MUHOFAZA QILISH</b>		
<b>1-G'OYA</b>	<b>2-G'OYA</b>	<b>3-G'OYA</b>
Dengiz transportida tashiladigan neft va neft mahsulotlarini tashiydigan maxsus kema — tankerlarning halokatga uchrashini oldini olish	Dunyo okeanini muhofazasi bo'yicha milliy, regional va xalqaro ko'lamda tadbirlar amalga oshirish	Dunyo okeanini tadqiq etish va foydalanish hamda muhofaza qilish maqsadida ko'plab xalqaro tashkilotlar sonini ko'paytirish va ularning faoliyatini yaxshilash
<p><b>QAROR:</b> Dunyo okeani boyliklaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ularni muhofaza qilish, tiklash va ekologik sharoitini yaxshilash borasida <b>INSONIYAT</b> ibratli faoliyat ko'rsatishi lozim.</p>		

**4. FSMU texnologiyasi** – geografiyadagi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki dars yakunida (o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

**VAZIFA.** «*Fan texnika inqilobining jahon xo'jaligi rivojiga ta'siri katta!*» (9-sinf) mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting! (misol tariqasida)

**F** – Fan-texnika inqilobi jahon xo'jaligi tarmoqlarining tez sur'atlarda rivojlanishiga, ularning tarkibiy takomillashuviga katta ta'sir ko'rsatadi.

**S** – Texnika va texnologiyalar sohasida yangi texnologik jarayonlarning joriy etilishi, EHM, robotlardan ishlab chiqarishda keng foydalanishi, kvant texnikasining rivojlanishi (lazerlar) kabi o'zgarishlar natijasida jahon xo'jaligida rivojlanish jarayoni tezlashdi, ishlab chiqarish samarasi, mehnat unumdorligi oshdi.

**M** – FTI ta'sirida fanda davlat tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari uchun sarflanadigan mablag'lar ko'paytirildi, ta'lim tizimida sifatiiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Fan sohalari tarkibida yangi yo'nalishlar rivojlandi

**U** – Fan-texnika inqilobi hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Uning ta'sirida moddiy ishlab chiqarish bilan bir qatorda aholiga xizmat ko'rsatuvchi nomoddiy soha ham jahon xo'jaligida o'z o'miga ega bo'la boshladi. Bu holat, o'z navbatida, postindustrial davming boshlanishiga turkii bo'ldi.

Mamlakatimizning yanada gullab yashnashi, taraqqiiy etishi va dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shilishi uchun o'quvchi-yoshlarga zamonaviy ta'lim berish, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalash zarur bo'ladi. Shunday ekan, har bir fan o'qituvchisi o'z fanining yetuk mutaxassisi bo'lmog'i, darslarni zamon talablari asosida, innovation, pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

### **Mavzu bo'yicha test savollari:**

#### **1. Interfaol ta'limning asosii belgilarini toping?**

- A) Ko'p fikrlilik, suhbat (dialog), refleksiya
- B) Loyixalash, ishlab chiqish, amalga oshirish
- C) Tanlash, samarali o'zlashtirish, hamkorlik
- D) Birgalikdagi harakat, malaka va ko'nikmalar hosil qilish.

#### **2. Interfaol ta'lim tamoyillarini toping?**

- A) Mashg'ulot ma'ruza emas, jamoaning umumii ishi, guruhning tajribasi o'qituvchining tajribasidan ko'p, o'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra teng.
- B) Ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi, Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning anii belgilanishi.
- C) O'quvchilarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorgarliklarini inobatga olish, o'quvchilar sonining ko'p bo'lmasligi.
- D) Loyihalashtirish, o'quv kontentlarini yaratish, o'quvchilarning kichik guruhlarga mohironi biriktirilishi.

#### **3. Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish qanday bosqichlarda olib boriladi?**

- A) Web-xosting xizmatini tanlash, validatsiya, franchayzing
- B) Loyihalashtirish, xizmat ko'rsatish, amalga oshirish
- C) Tahlil, loyihalashtirish, jorii qilish, ishga tushirish
- D) Ishlab chiqish, rivojlantirish, nazorat qilish, yakunlash

#### **4. .... - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar?**

- A) Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

- B) Muammoli metodlar
- C) Interfaol metodlar**
- D) An'anaviy metodlar

#### **Nazorat savollari:**

1. Interfaol ta'lim nima?
2. Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari kimlar hisoblanadi?
3. Interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limiy harakatlar qanday shakllarda tashkil etiladi?
4. Geografiya ta'limida qanday interfaol metodlardan foydalanish samarali?
5. Interfaol ta'lim qanday imkoniyatlarga ega?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.
2. Abdukadirov Abdukaxxor Abduvakilevich. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya - T.: "O'zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi" Fan, 2009.
3. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat., O'quv qo'llanma, Toshkent. 2008.
4. Ayupov R.X., Shayakubov Sh.Sh. Interfaol ta'lim usullari va vositalari. T.: TMI, 2016 y.
5. Ergasheva G, Ahmedova N. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'qituvchini innovasion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari. Uzlüksiz ta'lim jumali. I-son, 2015 yil.
6. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. "Ta'limda innovasion texnologiyalar: ta'lim muassalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar". T. 2016.
7. Tolipov O'.Q. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006.
8. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.

#### **Internet saytlari:**

9. <http://www.ziyounet.uz>
10. <http://www.pedagog.uz>
11. <http://www.geografiya.uz>

### 3.GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARI (EATR)DAN FOYDALANISH.

#### Reja:

1. Elektron darsliklar, ularni yaratishga qo'yiladigan talablar va tamoyillar.
2. Geografiya fanidan elektron darsliklar yaratish va ulardan dars jarayonida foydalanish metodikasi.
3. Videodarslar va ularning geografiya ta'limidagi ahamiyati

#### *1.Elektron darsliklar, ularni yaratishga qo'yiladigan talablar va tamoyillar.*

Elektron darsliklar hayotimizga juda tez kirib keldi. Ularning sonini aniq aytishning hozirgi kunda imkoni yuq. Shu bilan birga odatdagi kitoblar qatori ularning ta'lim jarayonida tutgan mavkei ancha yuqori darajaga chikishiga qator omillar ta'sir etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim oluvchilar, umuman kompyuterdan foydalanuvchilar orasida elektron darslik (E-book) haqiqiy o'mini oldi va bu sohada o'ziga xos evalyusion uzgarishlarni olib kelmoqda.

Elektron darslik o'zi nima? U odatdagi kitoblardan nimasi bilan farq qiladi? Kishilar orasida uning ommaviy tarzda tez tarqalishiga sabablar nima bo'ldi?

2004 – 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umimilliy dasturi maktablarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan elektron darsliklar yaratish va uni ta'lim jarayoniga tadbik etishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yymoqda. Shunday ekan, elektron darsliklar yaratishdan maqsad, ularga qo'yilgan talablar nimalardan iborat? Uning qanday turlari va variantlari mavjud kabi savollarga ilmiy asoslangan javob topish talab etiladi.

Elektron darslik (qo'llanma) o'quv jarayoni sifatini oshirish, o'qituvchi mehnatini yengillashtirish, o'quvchilarni bilim darajasini oshirish, o'quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish uchun keng yo'l ochib beradi. Bu jarayonda o'qituvchi, psixolog, tahlil natijalarini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis (testolog), Dizayner yoki web-usta, kodlovchi (dasturlovchi) qatnashishi nazarda tutilgan. Xo'sh, elektron darslik yaratuvchilar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha qanday mezonlarga amal qiladilar? Ularga qo'yiladigan umimiy talablar nimalardan iborat?

Elektron darslik yaratuvchi mualliflar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

- Elektron darslikning mazmuni;
- Elektron darslik yaratishda mualliflar guruhi e'tiborini qaratadigan jihatlar quyidagilardan iborat:
- elektron darslik yaratishga fanning o'quv dasturini asos qilib olish;

- elektron darslikka kiritiladigan materiallarni malakali o'qituvchi professorlarning amaliy tajribalari, fan ehtiyorlaridan kelib chiqqan holda muhokama qilish;
- o'quvchi-talabaga bilim ko'nikmalarini shakillantirishga ko'mak beruvchi tushinchalarga o'z o'rni foydalanish;
- o'quvchi-talabalarga fan mavzusiga aloqador uangi bilimlarni tushinishga yordam beradigan qiziqarli sxemalar, diagrammalar, turli chizma va jadvallarni elektron darslikka kiritish; erishilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashqlar va nazorat savollarini keltirish;
- elektron darsliklarni yaratishga ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish;
- elektron darslikning tili, mazmuni o'quvchilarning maxsus olish sharoitlari va qobiliyatlari, yoshiga mos kelishini inobatga olish;
- o'qituvchi-professorlarning elektron darslikdan samarali foydalanish uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish va h.k.

Yaratilgan elektron darsliklarning ilmiylik va taqdimot sifati o'quv rejaga moslik, mavzu bayoni, til darajasi, manba tuzilishi, taqdimot va dizayn, illyustratsiya kabi muammolarga ta'sirchanligi kabi mezonlarga javob berishi lozim. Elektron darslik muallif yoki mualliflar guruhi tomonidan ma'lum bir dasturlash tilida yoki html-gipermatnli tili yordamida yaratiladi. Elektron darslik foydalanish uchun ikki variantda – on-line va off-line da yaratilishi mumkin. Elektron darslikdan on-line variantda foydalanishda komp'yuter texnologiyasi global yoki lokal tarmoqqa ulangan bo'lishi lozim. Off-line variantda tarmoqqa ayrim hollardagina kiriladi. Odatda, bu variantda elektron darslik CD diskka yoziladi va o'quvchiga beriladi. Elektron darslik Internetda ma'lum bir saytda joylashtirilishi ham mumkin. Foydalanuvchi bunday holatda kelgusida foydalanishi uchun undan nusxa olib ishlatilishi mumkin.

Elektron darslik o'quv dasturiga va o'quv metodik nashr talablariga mos kelishi lozim. Elektron darslik tomomila yangi, ya'ni birinchi bor chop qilinishi yoxud oldin nashr qilingan o'quv metodik qo'llanmaning elektron versiyasidan olingan bo'lishi mumkin. Unda: kurs yoki fan mazmunini ochib berish uchun yetarlicha material va hajmga, o'quv-metodik maqsadlarga erishishni quvvatlovchi illyustrativ materiallarga ega bulishi; darslikning barcha kisimlariga-manba va resurslarga erkin murojaat mavjudligi; darslik tili-uzbek tili (boshqa tillarga o'tish imkoni mavjudligi).

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar elektron darslik yaratishga qo'yiladigan asosiy talablar bo'lib, ular bevosita ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron darslik maxsus dasturlash kodlari hamda grafik, animatsion, ovoz va Videotasvir elementlari yordamida yaratilgan odatdagi kitobning elektron kurinishidir. Uning odatdagi kitoblardan farqi, qulaylik va noqulaychilik taraflari

mavjud bulib, IKT rivojlanishi bilan mavjud salbiy jihatlar miqdori kamayib bormoqda.

Elektron darslikni qo'llashning ijobiy taraflari quyidagilardan iborat:

-uni yaratish qulayligi-cheklanmagan miqdorda va tezlikda ko'paytirish imkoniyati;

-uni doimiy taxrir qilib turish imkoniyati mavjudligi;

-juda kam xarajatlar bilan yaratish mumkinligi;

-grafik, ovoz, animasiya, Video tasvirlardan foydalanish mumkinligi;

-materiallar bilan tanishish qulayligi, zarur ma'lumotni tezda axtarib topish mumkinligi.

Elektron darslik zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalar yordamida o'quv uslubini, mustaqil ta'lim olishning samarali usullarini qo'llash orqali o'quv materiallari va ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga mo'ljallangan darslikdir, ya'ni oddiy darslikning raqamli ifodasidir. Elektron darsliklar zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslanib jamlanganligi va umumlashtirilganligi, ko'rgazmalarga boyligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olganligi, bilimlarni nazorat qilish imkoniyatiga egaligi, asosiy tushuncha va xulosalarning, ta'rif, qoida-qonuniyatlarning matnlarini jozibali shakllar va har xil ranglarda berilishi oddiy o'quv darsliklardan ajralib turadi.

Elektron darsliklar ta'lim olishning yangi shakli bo'lgan masofadan o'qitishning asosi hisoblanadi. U o'quv fani, uning biron yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat ta'lim standartiga va o'quv dasturiga mos holda bayon etilgan mahsulotdir. Elektron darslik axborot kommunikasion texnologiya (AKT) asosida yuqori ilmiy –uslubiy darajada yaratilgan fanlardan Davlat O'quv Standartiga to'liq mos keladigan elektron o'quv mahsulot hisoblanadi. Elektron qo'llanma darslikni qisman yoki to'la o'mini bosuvchi yoki uni to'ldiruvchi mahsulot bo'lib, qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan mahsulotdir. Elektron darslik kitobning o'mini bosa olmaydi va bosishi ham shart emas. Biror badiiy asarning kinosini yaratish uangi janr bo'lgani singari, elektron darslik ham darslikning boshqa janri hisoblanadi. Elektron darslik o'quv jarayonida oddiy darslikdan ko'ra inson miyasining qabul qilish yo'llarini, ya'ni tovush, emotsional xotiralarni jalb qilib, asosiy tushuncha, qoidalarni, misollarni tushunish va yodga olish jarayonlarini maksimal yengillashtirish uchun xizmat qiladigan AKTning imkoniyatidan to'liq foydalanishi kerak.

Geografiya fanidan yaratilgan elektron darsliklar quyidagi toifalarga bo'linadi:

1-toifa. O'quv materiallari asosan verbal matn sifatida berilib, ular giperilova va glossariyga hamda ikki o'lchovli grafiklar, diagrammalar, rasmlarga ega bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi.

2-toifa. O'quv materiallari qisman giperilovalni va glossariyga hamda 2D grafikli matn shaklida va 3-o'Ichovli grafikdan iborat bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi

3-toifa. O'quv materiallari matn, 2D grafiklar, Video va audio animasiyalar va 3D effektlarga ega bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi.

4-toifa. Elektron darslik virtual muhitda, zamonaviy tarmoq texnologiyalarni qo'llab, o'qituvchi bilan komp'yuter tarmog'i (Internet) orqali bog'langan holda masofaviy mashg'ulotlar olib borish darajasida yaratilgan bo'ladi.

*Elektron darsliklar* - O'qilayotgan materiallarni boshqa usullar (qabul etish yo'llari oshirish bilan) qo'llash orqali o'zlashtirishni yengillashtiradi;

-o'quvchining talablari, tayyorgarligi va intellektual darajasiga moslashadi;

-murakkab hisob-kitoblarda vaqtning tejaliishi hisobiga fanni chuqurroq o'zlashtirishga sharoit tug'diradi;

-ishning har bir bochqichida o'zini tekshirish uchun keng sharoitlar yaratadi;

-bajarilgan ishni Faylga yoki chop qilishga imkoniyat beradi;

-kerakli tushuntirish, takrorlash va yordamchi materiallarni takror-takror beradi.

Elektron darsliklar -turli masalalarni yechishda komp'yuter yordamini ishlatish hisobiga vaqtni tejashi mumkin;

-o'quvchilarga mashg'ulotlarni komp'yuterlarda mustaqil ishlar shaklida o'tishi mumkin;

-murakkab hisobli nazorat ishlari komp'yuter yordamida tekshiriladi.

## ***2. Geografiya fanidan elektron darsliklar yaratish va ulardan dars jarayonida foydalanish metodikasi.***

Bugungi kunda geografiya fani bo'yicha bir qancha electron darsliklar yaratilgan bo'lib, ulardan ta'lim jarayonlarida foydalanilib kelinmoqda. Quyida geografiya fanidan yaratilgan "Geografiya" elektron darsligi va undan foydalanish metodikasini ochib beramiz:



**Elektron darslikning asosiy ko'rinishi**

"Geografiya" elektron darsligi quyidagi komponentlardan tashkil topgan:

- |                         |  |
|-------------------------|--|
| 1. Ma'ruzalar           | 6. Onlayn kasbiy rivojlantirish darslari |
| 2. Analiy mashg'ulotlar | 7. Taqdimotlar                           |
| 3. Videodarslar         | 8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati    |
| 4. Qiziqarli faktlar    | 9. Mualliflar                            |
| 5. Nazorat testlari     | 10. Web saytlar ro'yxati                 |

Elektron darslikning afzallik tomoni shundaki geografiya fani o'qituvchilari undan nafaqat malaka oshirish jarayonida, balki umumta'lim maktablarida ham foydalanishlari mumkin bo'ladi. Sababi elektron darslikdagi materiallar maktab o'quv reja mavzulariga ham moslashtirilgan. Elektron darslikning "Ma'ruzalar" qismida 4.1-moduldagi 8 ta mavzu bo'yicha ma'ruzalar kiritilgan. "Taqdimotlar" qismida esa shu ma'ruzalarga mos taqdimotlar joylashtirilgan.



**Elektron darslikning "Ma'ruzalar" oynasi**



**Elektron darslikning "Taqdimotlar" oynasi**

"Videodarslar qismida" Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 12-maydagi 124-son buyrug'i asosida "Onlayn kasbiy rivojlantirish" ruknidagi loyiha doirasida Milliy teleradiokompaniya va axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda tayyorlangan televeziyon darslari hamda

umumta'lim maktablarining barcha sinflarida geografiya fanidan o'qitiladigan mavzular bo'yicha videodarslar joylashtirilgan.




**Elektron darslikning “Videodarslar qismi” oynasi. Onlayn kasbiy rivojlantirish darslari.**



**Elektron darslikning “Videodarslar qismi”. Umumta'lim maktablari darsliklar bo'yicha videodarslari.**

Elektron darslikning “Nazorat testlari” qismi mavzular bo'yicha Ispring dasturida tayyorlangan 11 talik testlar bilan boyitilgan bo'lib, bu malaka oshirayotgan har bir geografiya fani o'qituvchisining ushbu moduldan olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek darslikda barcha tabiiy fanlar o'qituvchilariga mustaqil bilim olish va malaka oshirish uchun zarur saytlar ro'yxati keltirilgan. “Qiziqarli faktlar” qismiga geografiya faniga tegishli qiziqarli ma'lumotlar, faktlar, yangiliklar kiritilgan. Bu o'z navbatida elektron darslikdan geografiya faniga qiziquvchilar ham foydalanishi mumkinligini bildiradi.



**Elektron darslikning “Nazorat testlari” oynasi.**



Elektron darslikning “Qiziqarli faktlar” oynasi

### **5. Videodarslar va ularning geografiya ta'limidagi ahamiyati.**

Hozirgi pandemiya sharoitida ta'lim jarayonlarini onlayn tashkil etishda barcha fanlar qatori geografiya fanidan ham videodarslar tayyorlash va ulardan foydalanish alohida ahamiyatli vazifalar qatoriga kiradi. Videodars nima, uni yaratish va foydalanish metodikasi qanday amalga oshiriladi? Quyida ushbu savollarga javob beramiz.

Videodars - bu o'quv materialini videoyozuv orqali uzatishni o'z ichiga olgan masofaviy o'qitish formati. Videodars - ta'lim muassasasida o'qitishning klassik shaklini o'zgartirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan masofaviy o'qitish shakli bo'lib, o'qituvchining doskadagi ma'ruzalarini ushbu harakatni videokamera yoki ovoqli kompyuterga yozib olish bilan almashtiradi.

#### ***Videodarsdan foydalanishning 10 ta afzalligi***

- 1). O'tilgan darsni qayta-qayta ko'rish mumkin;
- 2). Ko'p o'quvchilarni bitta monitoring oldiga to'plab olishga ehtiyoj bo'lmaydi;
- 3). Har bir darsni, o'quvchining qabul qilish tezligiga moslashtirish mumkin bo'ladi;
- 4). Uyga vazifalarni mustaqil shug'ullanish uchun yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi;
- 5). Oddiy qog'oz tashuvchida ko'rsatish imkoniyati chegaralangan mikro va makro jarayonlarni ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi;
- 6). Darsning ko'rgazmalilik darajasi oshishi;
- 7). O'qituvchi va o'quvchini o'quv yuklamasini yengillashtirish imkonini berishi;

8). Videodars yordamida loyiha uslub (metod)larini qo'llash imkoniyatining mavjudligi;

9). O'quvchilar qo'lidagi gadjetlar yordamida BYOD texnologiyasini ishga tushirish imkonining paydo bo'lishi;

10). BYOD ishga tushirilsa, o'quvchilarda gadjetlardan foydalanish madaniyati oshirishga erishish mumkin.

### ***Geografiya fanidan videodars yaratish uchun umumiy talablar:***

1). Ilmiylik - o'quv materiallarni ilmiy jihatdan asoslanganligi, to'g'riligi, chuqurligi va eng oxirgi ilmiy yangiliklarga asoslanganligi;

2). O'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi, o'quvchiga tushunarli bo'lgan ravon tilda o'rtacha tezlikda bayon qilinganligi;

3). Ko'rgazmalilik – videodars yoritiladigan o'quv materialini o'quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinishiga erishish;

4). O'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltiradigan va rag'batlantiriladigan bo'lishi;

5) Tizimli – ya'ni oldin o'tilgan mavzuni eslatib, o'tiladigan mavzuni chuqurlashtirish va keyingi mavzuga o'tish uchun ko'prik bo'lishi kerak;

6). O'tiladigan mavzuni mustahkam o'zlashtirish imkonini berish;

7). Adaptiv – o'quv materialidan foydalanadigan o'quvchini qabul qilish tempiga moslashadigan bo'lishi;

8). Interaktiv – imkoniyat doirasida o'quvchini faollashtiradigan uslublardan foydalanish.

9). Mualliflik huquqlariga rioya qilish, ya'ni internet va boshqa manbalardan olingan videodarslardan foydalanishda muallifni qayd etish, imkoniyat doirasida tarjima qilish yoki foydalanish uchun ruxsat olish;

10). Videodarsni yoritishda etik qoidalarga rioya qilish.

Videodars o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlashga xizmat qilsa, pedagogik maqsadga erishish mumkin. Darsning mazkur turi, faqat nazariy axborot berishga emas, balki yoritiladigan formula, jarayon, o'rganiladigan ob'ektning mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi zarur. Videodars janri qiziqarli, lo'nda

va hamma uchun qulay bo'lish bilan birga mustahkamlangan va tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak. U ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq ilmiy dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi zarur. Ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarning amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

**Metodik talablar:** Videodarsning mazmun yaxlitligi, mavzularning oddiy va sodda, tushunarli, ravon tilda bayon qilinganligi, mantiqiy ketma-ketlikni, izchillikni qamrab olinganligi, milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilganligi, savol va topshiriqlarning aniqligi o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, mustaqil ishlashga, axborot madaniyatini shakllantirishga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga yo'naltirishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

**Pedagogik-psixologik talablar:** Videodars keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglash va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Videodarsdagi materiallarda o'quvchilarni yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, avvalgi olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan hamda ularning yoshini hisobga olib, aniq va ravon, tushunarli tarzda ortiqcha sana va shaxs nomlarini ko'paytirmagan holda takomillashtirish lozim.

**Estetik talablar:** Videodars imkon darajasida yorqin rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi lozim. Undagi kadrlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi kerak. Shu sababli Videodarsning ifodalanish tili majoziy (metafora) tarzda bo'lishi talab etiladi.

**“Bandicam” dasturi va unda geografiya fanidan videodarslar yaratish metodikasi.** Bandicam - bu eng yaxshi ekran yozuvchisi, o'yin yozuvchisi va video yozuvchisi.

Bandicam - bu kompyuter ekranida sodir bo'layotgan hamma narsani yuqori sifatli video formatida yozib oladigan ixcham Windows ekran yozuvchisi. Siz shuningdek ekranning ma'lum qismini yoki DirectX / OpenGL / Vulkan grafik texnologiyalaridan foydalanadigan o'yinlarni yozib olishingiz mumkin.

Bandicam sizga o'yinni yuqori siqilish nisbati bilan yozib olishga yordam beradi, shu bilan birga sifatini saqlab qoladi va shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa yozish dasturlariga qaraganda yaxshiroq ishlaydi.

Bandicam - operatsion tizimning ish stolidan video yozib olish uchun mo'ljallangan. Yozuvchi yozib olingan videoni yuqori sifatli saqlashga qodir. Bandicam fan bo'yicha turli o'yinlarning borishini yozib olish, shuningdek, sevimli film kliplarini saqlash imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu dastur yordamida yaratilgan videodarslar barcha fanlarda, xususan, geografiya darslari saaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi avvaldan tayyorlangan videodarsni darsning yangi mavzu bayoni qismida foydalanish mumkin. Shuningdek, yaratilgan videodarsni o'quvchilarga onlayn holatda ham taqdim etishlari tavsiya etiladi.

Ta'lim oluvchilar videodarslarni qayta-qayta ko'rishlari orqali o'tilgan mavzularni mustahkamlab oladilar.

Quyida biz «Bandicam» dasturi yordamida geografiya fanidan videodars tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma keltiramiz.

1. Dastlab internet tarmog'idan Bandicam programmasini yuklab olish lozim.



«Bandicam» dasturi logotipi.

2. Programma yo'riqnoma asosida o'rnatib olinadi.


Shundan so'ng kompyuterda programmaning ilk oynasi ochiladi. Asosiy oyna ochilgach, undagi tugmalarni o'rganib chiqish lozim.



«Bandicam» dasturi ishchi oynasi.

3. Tayyorlangan slaydni katta ekraniga chiqarib olishga xalaqit bermasligi uchun ushbu dasturni kompyuterning pastki qismiga joylashtirib olinadi.

4. Bu bosqichda mavzu bo'yicha Power Point dasturida tayyorlangan taqdimotni tanlab olib, kompyuter ekraniga chiqarib olinadi.




**«Bandicam» dasturida taqdimotni boshlash.**

5. Bu bosqichda ushbu dasturni kompyuterga o'ratilayotgan vaqtda videodarsni boshlash tugmasi klaviaturaning qaysi tugmasiga sozlangan bo'lsa, usha tugma bosiladi. Masalan "+" tugmasi..

**Taqdimot boshlanishi.**

Natijada ekranda dastur tomonidan 3 daqiqa berilgan vaqt ko'rsatiladi va vaqt tugagach, videodarsni olish jarayoni boshlanadi.



**Videodars boshlanishi.**




6. Videodars nihoyasiga etganidan so'ng, yana dastavval videodars yakuni uchun sozlangan tugma (+) bosiladi va dars yakunlanadi.



### Yangi mavzu boshlanishi.

Tayyor bo'lgan videodarsingiz kompyuteringizning belgilangan qismiga saqlanadi. Siz undan bema'lol dars jarayonlarida foydalanishingiz mumkin. Bu dasturda yaratilgan videodarslar ayniqsa onlayn rejimdagi darslar uchun juda qulay vosita hisoblanadi. O'quvchilar videodarsingizni istagan vaqtlarida, qayta-qayta qo'yib ko'rishlari va mavzuni mukammal o'zlashtirishlari mumkin.

Dasturning yana bir imkoniyati videodarsni tayyorlash jarayonida uni to'xtatib qo'yishingiz va keyin yana davom etishingiz ham mumkin.



### Videodars yozish jarayoni.

Dasturning keyingi qulaylik tomoni siz slaydingizdagi muhim sanalar, so'zlar, geografik obekt, xaritalarning dars mavzusi bilan bog'liq joylarining nomlarini tagiga

Hozirgi vaqtda dunyoda 44 ta monarxiya davlatlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati **konstitutsion monarxiyalarga** bo'linadi.

Konstitutsion monarxiyalarda davlat rahbari (qorol, qorolva, kray qorol) hamma vaqt davlat hokimiyatini o'z qo'lida tutadi, ammo u faqat rasmiy vakolatlar bilan ta'minlanadi va hamma qonunlar parlament va hukumatning o'z mutlaq hisobiga qabul qilinadi.

Mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlatlarda monarxiya vakolatlari cheklangan bo'ladi.

dasturning o'ng tomonida joylashgan qalamlardan birini mos rangi bilan tanlab chizishingiz mumkin.

## *Videoda ranglar politrasidan foydalanish.*

Shuningdek chizilgan chiziqlarni o'chirg'ich yordamida o'chirish ham mumkin.  
*Taqdimotda ma'lum bir qismini belgilash.*

Hozirgi vaqtda dunyoda 44 ta monarxiya davlati mavjud bo'lib, ular **konstitutsion va mutlaq monarxiyalarga** bo'linaadi.

Konstitutsion monarxiyalarda davlat rahbari (qiroli, amir, knyaz va h.k.) ning siyosiy vakolatlari ma'lum darajada cheklangan bo'lib, davlat boshqaruvida parlament va hukumathning o'zini muhim hisoblanadi.

Mutlaq monarxiya boshqaruvi shakliga ega bo'lgan davlatlarda esa monarxiyning vakolatlari cheklanmagan bo'ladi.



Elektron videoda ranglar politrasidan foydalanish uchun chizilgan chiziqlarni o'chirg'ich yordamida o'chirish ham mumkin.

Tayyor bo'lgan videodarslaringiz kompyuteringizda quyidagi ko'rinishda saqlanadi.

Ushbu dasturda videodars tayyorlash juda qulay va imkoniyatlari keng. Bu imkoniyatlardan foydalangan holda geografiya fanidan namunali va sifatli videodarslar yaratish mumkin.

### **Mavzu bo'yicha test savollari:**

**1.Geografiya ta'limida elektron darslik foydalanish uchun nechta variantda yaratilishi mumkin?**

- A) Ikki variantda – on-line va off-line variantda
- B) Uchta variantda – qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli variantda
- C) Ikki variantda – xususiy va umumiy variantda
- D) Ikki variantda – ilmiy va ommabop variantda

**2.Geografiya fanidan yaratilgan 1-toifadagi elektron darsliklar o'quv materiallari asosan verbal matn sifatida berilib, ular giperilova va glossariyga hamda ikki o'lchovli grafiklar, diagrammalar, rasmlarga ega bo'lib, ular o'quv materialining necha foizgacha qismini oladi?**

- A) 35 %
- B) 25 %
- C) 40 %
- D) 15 %

**3.Geografiya fanidan videodars yaratish uchun nechta umumiy talablarga rioya qilish lozim?**

- A) 7 ta
- B) 5 ta
- C) 10 ta
- D) 5 ta

**4. Geografiya fanidan yaratilgan videodarsning qaysi talabida videodarsning mazmun yaxlitligi, mavzularning oddiy va sodda, tushunarli, ravon tilda bayon qilinganligi, mantiqiy ketma-ketlikni, izchillikni qamrab olinganligi, milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilgan bo'lishi lozim?**

- A) Pedagogik-psixologik talablar
- B) Ilmiy talablar
- C) Estetik talablar
- D) Metodik talablar**

#### **Nazorat savollari:**

1. Elektron darslik nima va undan foydalanishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati qanday?
2. Elektron darslik yaratuvchi mualliflar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha qanday mezonlarga amal qilishi lozim?
3. Geografiya fanidan yaratilgan videodarslar qanday umumiy talablarga javob berishi kerak?
4. Geografiya ta'limida videodarsdan foydalanishning qanday afzalliklari mavjud?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.
3. Abdullayeva D.N. Geografiya ta'limida axborot kommunikatsion va innovasion texnologiyalardan foydalanish. O'quv-uslubiy qo'llanma.-T.: "Ilm ziyo zakovat", 2021.
4. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.
5. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009.
6. Avazov Sh., Saydamatov F., Allaberganov H. «Biosfera (ekosfera) va odam (jamiyat)» tizimida geoeкологиya va geoeкологик o'lkashunoslik. Monografiya. – T.: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019.
7. Axmedov A, Taylaqov N. "Informatika". T.: O'zbekiston 2008 yil .

8. Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Ssoy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: – 2011.
9. Mirakmalov M., Avezov M., Nazaraliyeva E. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015.
10. Muslimov N.A va boshqalar. Innovasion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015.
11. Sayfurov D.M., Alimova M.M., Turaxanov Sh.U., Ta'lim jarayonida videodarslar. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi respublika ta'lim markazi. T.: -2019 yil.
12. Vaxobov X., N.R. Alimkulov., N.B. Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - “Nodirabegim” nashriyoti. 2021 yil.

**Internet saytlari:**

13. <http://www.ziyonet.uz>
14. <http://www.pedagog.uz>
15. <http://www.geografiya.uz>
16. <http://www.geograf.uz>
17. <http://natlib.uz>

#### 4. MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH.

##### Reja:

1. Muammoli ta'limning nazariy asoslari.
2. Muammoli ta'limning maqsad va vazifalari.
3. Geografiya ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish.

##### Muammoli dars strukturasi.

##### *1. Muammoli ta'limning nazariy asoslari.*

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi etakchi o'rinni egallaydi.

*Muammoli ta'lim* – o'quvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

*Muammoli ta'lim* – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Didaktikada muammoli o'qitish yangi yo'nalish sifatida XX asrning 70-80 yillarida yuzaga keldi. A.M. Matoshkin, T.V. Kudryashev, M.I. Maxmutov, I.Ya. Lernerlar muammoli o'qitish qonuniyatlarini chuqur o'rgandilar. An'anaviy didaktika butun e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga qaratgan edi va ta'lim jarayoni deganda asosan o'qitish jarayonini ko'zda tutgan edi. O'qitish jarayoni etarli o'rganilmas edi, ko'pincha o'quvchilarning reproduktiv faoliyati bayon qilinardi, xolos. Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil – o'quv – bilish faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi.

Muammoli ta'lim nazariyasi o'quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Ma'lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko'rsatkichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar ta'lim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanuvchi ta'lim deb hisoblash mumkin.

Rivojlanuvchi ta'lim deb, ya'ni umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'limni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga tayaangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikirlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish olib boradi. Bunda ta'lim, fikrimizcha, muammoli ta'lim hisoblanadi. Muammoli ta'lim yo'li bilan faollashtirishning maqsadi favqulodda, betartib ravishda vujudga keladigan fikrlash operatsiyalariga o'rgatish emas, balki (o'quvchilarni tushunchalarning o'zlashtirish darajasini oshirish) nostereotip masalalarni hal qilish uchun aqliy harakat tizimiga o'rgatishdir. Bu faollik shundan iboratki, bunda o'quvchi faktik materiallarini tahlil qilib, qiyoslab, sintez qilib, umumlashtirib, konkretlashtirib, undan o'ziga yangi axborot oladi.

Boshqacha qilib aytganda, bu ilgari o'zlashtirilgan hamda avvalgi bilimni yangicha qo'llash yordamida bilimni kengaytirish chuqurlashtirish demakdir. Avvalgi bilimlarni yangicha qo'llashni kitob ham, o'qituvchi ham o'rgata olmaydi. Bu mavjud tegishli vaziyatda o'quvchi tomonidan izlanishi va topilishi lozim. O'quvchilar tomonidan ijodiy aqliy harakatlar tizimini asta-sekin o'rganilishi ko'nikma va malakalarning yig'ilishiga, bundan harakatlar tajribasi esa aqliy faoliyat sifatining o'zgarishiga, odatda, ilmiy, tanqidiy, dialektik deb ataladigan maxsus tipdagi fikrlashni yaratishga olib keladi.


## ***2. Muammoli ta'limning maqsad va vazifalari.***

O'qitish jarayoniga muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilish:

1. O'quv dasturi bo'yicha mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

2. Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;


3. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o'z o'mida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash zarur.



**Muammoli ta'lim** – bu o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqarvchi muayyan shaxsiy sub'ektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

- 1) o'quvchilarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.
- 2) insonning his-tuyg'usi va emotsiyasiga ta'sir etish, uning bilimini e'tiqodga aylantirish.



*O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra muammoli ta'limni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:*

Muammoli ta'lim darajalari	O'qituvchi va o'quvchi faoliyati
Mustaqil bo'lmagan (odatdagi) faollik darajasi	O'qituvchi tushuntirganini o'quvchi tomonidan idrok etilishi muammoli vaziyatlar sharoitida aqliy mehnat

Yarim mustaqil faollik darajasi	Ilgarigi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarining echish usullarini izlashda ishtirok etish
Mustaqil faollik darajasi	Reproduktiv – izlanish tipidagi ishlarni bajarish, bunda darslik matni bilan o'quvchining o'zi ishlaydi, ilgarigi bilimlarini yangi vaziyatda qo'llanadi, konstruksiyaaydi, o'rtacha murakkablikdagi masalalarni echadi, o'qituvchining ko'magi bilan gipotezalarni isbotlaydi va h.k.
Ijodiy faollik darajasi	Ijodiy tasavvurni talab etuvchi, mantiqiy tahlil qilish va o'ylab topishni, o'quv muammolarini echishning yangi usullarini kashf etishni, mustaqil isbotlashni: mustaqil xulosa va umumlashmalar chiqarishni, kashfiyot va badiiy insholar yozishni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish

Muammoli ta'limni tadqiqot metodi bilan aynan bir narsa deb emas, balki o'quvchi tafakkuri va uning xotirasining rivojlanishini ta'minlaydigan, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishiga, ilmiy faktlarni jamlashga ko'maklashadigan hamda e'tiqodni tarkib toptiradigan ta'limning bir turi deb qarash lozim.

Muammoli ta'lim hamma o'quvchilar bopmi? Amalda deyarli hamma uchun tushunarli. Biroq muammolilik saviyasi va mustaqil bilish darajasi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, ularning muammoli ta'lim texnologiyasi bilan o'qitilganlik darajasiga qarab farqlanadi.

*O'quv jarayonida muammoli vaziyat* – bu ta'lim oluvchining oldin o'zlashtirgan bilimlari va ayni paytdagi intellektual darajasi o'rtasidagi tafovut yoki ziddiyatlar tizimi. Muammoni echish uchun o'quvchi o'zida mavjud bilim va malakalari etarli emas ekanligini va o'z intellektual yuksalishi yo'lida qo'shimcha izlanishi, o'qishi, o'rganishi, tajriba orttirishi lozimligini tushunib etadi. Yoki bo'lmasa ta'lim oluvchiga yangi bilimlar negizida o'z imkoniyatlari darajasini sinab ko'rish, o'z-o'zini tashxislash va baholash uchun sharoit yaratiladi. Eng muhimi o'quv muammosini o'rganishda va hal qilishda ta'lim oluvchida intellektual va ma'naviy-madaniy rivojlanishga nisbatan kuchli motivatsiya yuzaga keladi.

*Muammoli vaziyat quyidagi sifatlar bilan xarakterlanadi:*

- o'quvchi uchun o'quv axborotida no'malumlikning mavjudligi;
- o'quv muammosini hal qilishga bo'lgan birlamchi ichki va tashqi motivatsiyaning shakllanishi;
- o'quv muammosi va o'quvchi bilim, ko'nikma va malakalari tizimi o'rsidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishi;

muammoni echish uchun kasbiy-intellektual yuksalishga bo'lgan shaxsiy ehtiyoj negizida ikkilamchi motivatsiyaning yuzaga kelishi;

muammo asosida o'quvchining mustaqil ijodiy-izlanuvchanlik faoliyatga yo'naltirilganligi.

qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat xamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab qiladi.

muammoli ta'limni tashkil qilish natijasida madaniyatli, intellektual malakali mutaxassislarni tarbiyalash maqsadlarini amalga oshirish muvaffaqiyatli kechishi mumkin.

### ***3. Geografiya ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasi vositalaridan foydalanish. Muammoli dars strukturasi.***

Geografiya ta'limida muammoli ta'lim – o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malkalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lib, muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.

Geografiya ta'limida muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Geograf olimlar S.N.Abduvoxidov va Z.A.Ganievlarning fikricha muammoli ta'lim metodining nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassalari oldida turgan bosh maqsad ta'lim oluvchilarni har tomonlama barkamol avlod bo'lib rivojlanishini ta'minlashdan iborat <sup>2</sup>.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

<sup>2</sup> S.N.Abduvoxidov., Z.A.Ganiev. Geografiya ta'limi metodikasi. Samarqand-2021.

Geografiya ta'limida muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarda: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Geografiya fanidan muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Zero geografiya o'qitish metodikasining rivojlanishi yangi o'qitish metodlarini ishlab chiqish, majmualarni takomillashtirish, ilg'or metodlarni qo'llash bilan bog'liq<sup>3</sup>.

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy qismlardan iborat bo'lganligi uchun unda tabiat va jamiyatdagi barcha muammolar mujassamlashgan. Geograf-olimlar X.Vahobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultonovalar geografik muammolarni chiqishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratadilar:

- tabiiygeografik muammolar;
- iqtisodiy-ijtimoiy muammolar;
- geoekologik muammolar;
- ta'limiy va tarbiyaviy muammolar.

***Tabiiy geografiya kursida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.***

Ta'lim oluvchilar ushbu kursda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish orqali quyidagi geografik tushunchalar bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar: tabiatdagi hodisalari, tabiat va undagi komponentlarning o'zaro bog'liqligi va o'zgarishi, tabiatning moddiyligi, qonuniyatlarning obektivligi, global, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar, tashqi muhit bilan bog'liq bo'lgan antropogen tassurotlar, tabiiy muhit va resurslarning inson xo'jalik faoliyatidagi ahamiyatiga bu bilan bog'liq bo'lgan muammolar, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, va b. Shuningdek, tabiiy-geografiya darslarida quyidagi muammolarni o'rta tashlab uni yechish namunasini ko'rsatish mumkin<sup>4</sup>:

- Orol va Orol atrofi muammosi, bundan o'qituvchi Orol dengizining qurishi sabablari va oqibatlarini hamda Orol muammosini yechish yo'llarini ilmiy asoslab berishi lozim;

- atmosferani ifloslanishi va u bilan bog'liq ravishda Yer yuzasida o'rtacha haroratni muntazam ortib borishi va uning oqibatlarini ochib berishi lozim;

<sup>3</sup> Vahobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.


<sup>4</sup> Vahobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.

- o'rmonlarni kesilishi va u bilan bog'liq ravishda tabiiy sharoitni o'zgarishini asoslab berishi lozim.

*Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kursida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.* Ushbu kursda ta'lim oluvchilar jahon mamlakatlarining siyosiy xaritasi, xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti, dunyo tabiiy resurslaridan foydalanish, zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf qilish, jahon energetikasi, sanoat tarmoqlari va ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri, xalqaro iqtisodiy aloqalar, dunyo aholisi va ularning joylashuvi, fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta'siri kabi bir qator masalalari bilan bog'liq muammolarni hal etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Geografiya ta'limida muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish o'quvchilarning egallagan bilimlaridan amaliy faoliyatda foydalanishlariga, ularning dunyoqarashlarini yanada kengayishiga hamda atrof-muhitga to'g'ri munosabatda bo'lishlariga yordam beradi.

O'quvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va ulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.



Quyida geografiya darslarida muammoli interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha namunalar keltiramiz.

«Muammo» texnologiyasi - o'quvchilarga mavzudan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni echishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni echishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni echishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishda qo'llash tavsiya etiladi.

### 9-sinf. Zamonaviy ekologik muamolar mavzusi misolida

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo'llari va sizning harakatlaringiz
Zamonaviy ekologik muammolar	Insoniyatda ekologik madaniyatning etarlicha shakllanmaganligi	Atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga oid tadbirlar o'tkazish

“Qarorlar shajarasi” strategiyasi (“Qaror qabul qilish texnologiyasi”) - metodi geografiya fanidagi murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan metod hisoblanadi.

### 6-sinf. Okean boyliklari va ulardan foydalanish va muhofaza qilish muammosi mavzusi misolida

MUAMMO: DUNYO OKEANINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOSI		
1-g'oya	2-g'oya	3-g'oya
Dengiz transportida tashiladigan neft va neft mahsulotlarini tashiydigan maxsus kema — tankerlarning halokatga uchrashini oldini olish	Dunyo okeanini muhofazasi bo'yicha milliy, regional va xalqaro ko'lamda tadbirlar amalga oshirish	Dunyo okeanini tadqiq etish va foydalanish hamda muhofaza qilish maqsadida ko'plab xalqaro tashkilotlar sonini ko'paytirish va ularning faoliyatini


		yaxshilash
<p><b>QAROR:</b> Dunyo okeani boyliklaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ularni muhofaza qilish, tiklash va ekologik sharoitini yaxshilash borasida INSONIYAT ibratli faoliyat ko'rsatishi lozim</p>		

### Muammoli dars strukturasi.

Struktura – bu butun predmet, xodisa, jarayon tomonlari, qismlari, elementlarining mustahkam, nisbatan barqaror aloqasi (munosabati) va o'zaro hamkorligidir.

Zamonaviy muammoli dars strukturasi uning tipi va turidan qat'i nazar har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masalani ko'ramiz:

- 1) o'quvchilar oldingi bilimlari va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 2) yangi bilimlar va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 3) ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.




Didaktikada muammoli darslarni muammoli vaziyatlarning tipiga qarab xarakterlashga oid tadqiqotlar mavjud. Shu o'rinda G.V.Artyomova o'z izlanishlari asosida muammoli darslarni tashkil etishning bir necha variantlarini taklif etadi.


Bular: 1. Versiya xarakteridagi dars.

- 2 Qiyosiy-umumlashtirish xarakteridagi dars.
- 3 Ma'naviy-axloqiy muammoli dars.

### *Versiya xarakteridagi dars strukturasi*



### *Qiyosiy-umumlashtirish xarakteridagi dars strukturasi*



Darsning didaktika va mantiqiy-psixologik strukturasi o'qituvchiga nazariya sifatida, darsni tashkil qilishning umumiy qoidalarini tushuntirish sifatida beriladi. Metodik strukturani o'qituvchi o'zi o'quv materialining mazmuni, didaktik maqsadi va o'quvchilarning o'qishga bo'lgan tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tuzadi. Uning ijodi, san'ati, uning takrorlanmas individualligi ana shunda.

### **Mavzu bo'yicha test savollari:**

**1. Didaktikada muammoli o'qitish yangi yo'nalish sifatida qachon yuzaga keldi?**

- A) XX asrning 70-80 yillarida
- B) XXI asrning 50-60 yillarida
- C) XIX asrning 50-70 yillarida
- D) XXI asrning boshlarida

**2. Muammoli ta'imning qanday asosiy vazifalari mavjud?**

- A) Umumiy va xususiy
- B) Umumiy va maxsus
- C) Ko'rsatmalilik va didaktik
- D) Variativ va kreativ

**3. Muammoli ta'limning nechta faollik darajalari mavjud?**

- A) 3 ta
- B) 6 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

**4. Qaysi pedagog olim muammoli ta'lim asosi sifatida 4 ta yo'nalishlar (ijtimoiy, konstruktiv, badiy-ifodaviy, ilmiy-tadqiqot) ni ajratadi?**

- A) I. Ya. Lerner
- B) J. Dyui**
- C) V. Okon
- D) M. N. Skatkin

**Nazorat savollari:**

1. Muammoli ta'lim nima va uning qanday maqsad va vazifalari mavjud?
2. Muammoli vaziyat qanday sifatlar bilan xarakterlanadi?
3. Muammoli ta'limning samaradorligi ko'rsatkichlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Geografiya ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasining muhim vositalari nimalardan iborat?
5. Muammoli dars strukturasi haqida ma'lumot bering?

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.
- Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar - T., «Fan», 2003.
- Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot asoslari. - T., 2005.
- Farberman B.L. Ilgor pedagogik texnologiyalar. - T., 2002.
- Farberman B.L. Oliygozlarda zamonaviy o'qitish metodlari. - T., 2000.
- Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М., 1989.
- Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: 2006
- Qurbonniyozov R. Geografiyadan o'quvchilar bilimini tekshirishning shakli va metodlari. T. 1993.
- Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.: 2016.
- Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.

**Internet saytlari:**

- <http://www.ziynet.uz>
- <http://www.pedagog.uz>
- <http://www.geografiya.uz>

## 5. GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH.

### Reja:

1. Geografiya fanini o'qitishda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish.
2. Test topshiriqlarini tuzish prinsiplari.
3. Geografiya ta'limida nostandart testlarning mazmuni va mohiyatiga ko'ra turlari va prinsiplari.

#### *1. Geografiya fanini o'qitishda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish.*

Geografiya fanini o'qitishda test savollari, ayniqsa nostandart test topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular yordamida qisqa vaqt davomida o'quvchilarning juda ko'p mavzulardan olgan bilimlarini sinab ko'rish va aniqlab olish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Nostandart testlardan foydalanish birinchi navbatda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mavzuda o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ishlash, o'z fikrini bayon eta olish, muayyan jarayon, ob'ekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirish, mazkur jarayon, ob'ekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsata olish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Shu bilan birga nostandart test topshiriqlarini tuzish geografiya fan o'qituvchisida ijodkorlik (kreativlik)ni shakllantirib, uni rivojlantiradi, o'z ustida ishlashga, o'zining bilimiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, fan o'qituvchisi mavzuni o'qitishda yo'l qo'ygan kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi hamda iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilarni aniqlashga yordam beradi.

Test inglizcha "test" so'zidan olingan bo'lib "tekshirish, sinash, nazorat qilish" ma'nolarini anglatadi. Dastlab testlar psixologiya fanida kishining fikrlash qobiliyati, alohida muhim imkoniyatlari, irodasini va boshqa tomonlarini aniqlashda qo'llaniladigan bir qolipdagi so'zli yoki rasm shaklida topshiriqlardan iborat bo'lgan. Niderlandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Daniya, Fransiya, Isroil, Finlyandiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa rivojlangan davlatlar test bobida yetakchi hisoblanadi. Mazkur ro'yxatdan aholisining hayot tarzi yuqori bo'lgan mamlakatlarning joy olishi tasodifiy emas. Bu yerda test qo'llanishi ta'lim sifatiga ta'sir etishi boshqaruv sifati bilan bog'liq bo'lsa, sifatli boshqaruv, o'z navbatida, aholi turmush darajasining sifatini oshirishga zamin yaratadi.

Hozirgi davrda testlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- maqsadga erishuv testlari - bilimlarni o'lchashga qaratilgan;
- aqliy testlar - zehn, aql-idrok, aql-zakovat, iste'dodni aniqlashga yo'naltirilgan;
- ijodiyot testlari - ijodkorlik, bunyod etishlik darajalarini tekshiruvchi;

- mezoniy mo'ljall testlari - o'quv yoki kasbiy bilimlar va topshiriqlarni qaysi ko'nikma, malaka va hatti-harakat tizimi orqali o'lchash mumkinligi;
- shaxsga oid testlar xususiyat, bezovtalanish, sifat, fazilat, xislatlarni o'lchashga aloqador;
- proeksiyaviy testlar - tashqi ta'sirsiz shaxs o'zini o'zi oshkor qilishiga mo'ljallangan va boshqalar.

Testlashtirish - testlar yordamida ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish usuli hisoblanadi. Test insoniyat tarixidagi qadimgi jarayonlardan bo'lib qadimgi Xitoyda fuqarolik xizmatiga kiruvchi amaldorlar shu usul yordamida ishga olingan. Ilk bor «aqliy test» atamasi 1890-yil amerikalik psixolog Jeyms Makkin Kattel maqolasida qo'llanilgan bo'lib, unda kollej o'quvchilarining intellektual darajasini aniqlash uchun har yili qo'llaniladigan turkum testlar tavsiflangan. Fransuz psixologi A.Bine ham o'z tadqiqotlarini aqliy salohiyatni aniqlash usullariga bag'ishlagan.

1920-yildan boshlab AQShning ayrim shtatlari maorif bo'limi testlar bo'yicha imtihon olish tajribasini boshlaganlar va 1930-yillardan keyin bunday usul AQShning hamma maktablarida qo'llanila boshlangan, testlar tuzish bo'yicha kooperativ xizmati tashkil qilingan. Uning asosiy vazifasi, AQShning maktab va kollejlarda o'quvchilar o'zlashtirishini ko'rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu xizmat ta'lim testlari xizmatiga aylantirilgan. Imtihonlar bo'yicha kengash testlarning ma'lumotlarini kollej va universitetlarga kiruvchilarning bilimini tekshirishda ishlatila boshlangan.

Ma'lumki, sobiq ittifoqda bilim va malakalarni test orqali tekshirish noilmiy deb qaralgan, ammo 1970-yillardan boshlab test usuli maktablarda yana asta-sekin tajriba sifatida olimlar va ilg'or o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlangan. Geografiya sohasida mazkur ishlar T.P.Gerasimova, M.K.Kavalebskaya, V.A.Karinskaya, L.M.Pancheshnikova, L.P.Safonova, M.K.Teltevsckaya va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Hozirgi paytda jahonda testlarning juda ko'p turlari mavjud, ulardan eng asosiylari quydagilar: ko'p javobli testlar; uyg'unlashgan savolli testlar; tushurilib qoldirilgan so'zlarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar; rasmi, xaritali yoki chizmalı testlar; murakkab testlar; jadval shakldagi testlar; didaktik testlar yoki ko'p savolli va javobli testlar; nostandart testlar va h.k.

## ***2. Test topshiriqlarini tuzish prinsiplari.***

Test topshiriqlarini tuzishda ilmiylik, izchillik, ixchamlilik va aniqlik, formal emaslik, mantiqiy ketma-ketlik, tizimlilik, umumiylik va xususiylik, oddiylik yoki murakkablik, ko'rgazmalilik, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, tafakkurni

rivojlantirish, ijodiylik, mustaqillik va onglilik - tabaqalashtirish ya'ni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, tarbiyaviylik, o'quv dasturiga moslik, vaqt jihatdan ob'ektivlik, qo'llashga mumkinlik prinsiplariga amal qilinadi. Ushbu prinsiplarga amal qilingan holda tuzilgan testlar yuqori sifatli va samarali bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan test topshirig'i to'rt qiyinlik darajasi asosida tuzilishi va har bir topshiriqning qiyinlik darajasi topshiriq pasportida ko'rsatilishi kerak, bular:

- Oson (reproduktiv) (I) - o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, hodisa, voqea, qonun va atamalarning mohiyatini bilishni talab qiladigan daraja;

- O'rtacha qiyin (produktiv) (II) - o'quvchilardan ob'ektlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;

- Qiyin (qisman-izlanishli) (III) - o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, ob'ektlarni tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llagan holda umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;

- Eng qiyin (kreativ) (IV) - o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda vujudga keltirilgan o'quv muammolari hal etishda qo'llash, tahlil, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, xulosa yasash kabi aqliy jarayonlarni bajarishni talab qiluvchi daraja.

### ***3. Geografiya ta'limida nostandart testlarning mazmuni va mohiyatiga ko'ra turlari va prinsiplari.***

**Nostandart testlar** mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi: integrativ, adaptiv va mezonli-mo'ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinlik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o'quvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartib-qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida o'quvchining egallashi mumkin bo'lgan ballari va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, o'quvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Bu testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit tizimida muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Buning uchun fan o'qituvchisi

bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinlik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, fan o'qituvchisining pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Geografiya ta'limida nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

**1. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi.** Mazkur prinsip o'quvchilarning geografiya fanidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashni reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

**2. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi.** Muhimlik prinsipi test topshirig'i savollariga o'quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko'nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma'lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.

**3. Mazmun va shakl birligi.** Mazkur prinsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

**4. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riligi.** Test topshiriqlariga o'quv kursi mazmunidagi ob'ektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

**5. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi.** Mazkur prinsip test topshiriqlarini tayyorlashda o'quv kursi mazmunini to'liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O'quv kursi bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o'quv materialida o'z aksini tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar shaklida topgan bo'lsa, bunda hamma mavzular bo'yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo'yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

**6. Test topshiriqlari mazmuni fanning hozirgi zamon holatiga mosligi.** Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yoriy hujjatlar, fanning o'quv kursi ta'lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

**7. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo'lishi.** Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi, nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning

turi va qo'llanishini e'tiborga olingan holda bob, bo'lim yoki kurs mazmunini to'liq qamrab olishni taqazo etadi.

**8. Test topshiriqlari mazmunining tizimliliigi.** Bunda test topshiriqlari mazmunini tanlashda, mazmun o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi, bir-biri bilan uzviy bog'langan bilimlarning umumiy jihatlarini aks ettirishi zarur.

**9. Test topshirig'i mazmunining variativliliigi.** Test topshirig'i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni o'quvchilarga ma'lum bo'lib qoladi va test javoblari haqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur prinsip test savollari va javoblarini ko'p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqazo etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinlik darajasini saqlash lozim bo'ladi.

**Geografiya fanidan nostandart test topshiriqlariga qo'yilgan talablar.** Nostandart test topshiriqlariga qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat: test topshirig'i mazmunning to'g'riligi; savolning mantiqiy jihatdan tanlanganligi; test topshirig'i shaklining to'g'riligi; test topshirig'i savol va javoblarning qisqaligi; test topshirig'i elementining to'g'ri joylashganligi; test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi; o'quvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi; ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Ushbu test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli fanning o'quv kursi mazmunidagi bilimlarni aniqlash va ularga mos o'quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq.

Nostandart test texnologiyasi fan o'qituvchisiga dars jarayonini tashkil etishda, baholashda va o'quvchilar bilimini nazorat qilishda a'lo darajadagi ko'makchidir. Bu test topshiriqlarining ijobiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- geografiya fani o'qituvchisiga bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchini yoki butun auditoriyani nisbatan qisqa vaqt davomida baholash imkonini beradi va o'qituvchi topshiriqlarni tekshirish jarayonini osonlashtiradi (guruhdagi o'quvchilardan og'zaki so'rov usulida qancha vaqt ketishini yoki yozma topshiriqlarni tekshirishga ketadigan vaqt hamda o'quvchilarning husnixati bilan bog'liq muammolarni hal etadi);

- mavzuni to'liq qamrab oladi va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab tabaqalashtirish imkoniyati yaratiladi;

- nostandart test topshiriqlari orqali o'quvchilarning bilimini baholashda o'quvchilar tomonidan turli norozilik bildirilishining oldini oladi, ya'ni e'tirozlar bildirilishiga o'rin qoldirilmaydi.

Test topshiriqlari o'z navbatida salbiy xususiyatlarga ham ega bo'lib, ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: o'quvchilarning topshiriqlarni ko'chirishiga imkoniyat mavjud bo'ladi; tasodifiy to'g'ri javob topish imkoniyati ayniqsa javob

variantlari kamaygan sari ortib boradi; ogʻzaki va yozma nutqning rivojlanishiga toʻsqinlik qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:








- nostandart testlardan foydalanish birinchi navbatda oʻquvchilarda geografiya fani va uning tarmoqlari boʻyicha mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mavzuda oʻrganilgan maʼlumotlarni qayta ishlash, oʻz fikrini bayon etish, muayyan jarayon, obʼekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirish, mazkur jarayon, obʼekt yoki voqeaning oʻziga xos xususiyatlarini ajratib koʻrsata olish kabi ijobiy fazilatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

- nostandart test topshiriqlarini tuzish geografiya fani oʻqituvchisida ijodkorlik (kreativlik)ni shakllantiradi, fanga boʻlgan geografik va kartografik bilimlarni rivojlantiradi, fan oʻqituvchisi va oʻquvchilarni oʻz ustida ishlashga, oʻzining ishiga tanqidiy munosabatda boʻlishiga olib keladi. Ayni paytda oʻquvchilarga mavzuni oʻqitishda yoʻl qoʻygan kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi hamda iqtidorli oʻquvchilarni aniqlashga amaliy jihatdan yordam beradi.

### Nostandart testlardan namunalari:

#### 1. Rasmi nostandart test.


#### 1. Quyida berilgan sharti belgilar nomini toʻgʻri joylashtiring?

1		A	Kuchli shamol
2		B	Havo bulut
3		C	Doʻl
4		D	Yongʻir
5		E	Havo yarim bulut
6		K	Havo ozgina bulut
7		L	Havo ochiq

Javob	1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-
Javob	L	A	B	C	K	D	E

2. Atmosfera qatlamlarini quyidan yuqoriga tomon ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirib, raqamlarni tegishli kataklarga yozing.

1. Stratosfera; 2. Mezosfera; 3. Ekzosfera; 4. Troposfera;  
5. Termosfera;



3. Afrika materigining o'rganilish tarixiga oid amalga oshirgan kashfiyotlarni mualliflari bilan moslang?

1	6000 dan ortiq madaniy o'simliklardan namuna oldi. U Efiopiya qimmatli qattiq bug'doy navining vatani ekanligini aniqladi.	A	N.I.Vavlov							
2	Zanzibar orolini, Viktoriya ko'lini va Nil daryosining boshlanish irmog'i Kagera ekanligini aniqladi, Luulaba va Kongo daryolarini quyil oqlmiga qadar o'rgandi.	B	Devid Livingston							
3	Kalaxari cho'lini, Zambezi daryosini, Kongo daryosining yuqori oqlmirlrini, Nyasa, Tanganika ko'llarini o'rgandi. Zambezi daryosidagi shaharlariga Viktoriya nomini berdi.	C	Bartolomey Dlash							
4	Afrikaning shimoliy va sharqiy sohillarini, Nil havzasini (1325 — 1349- y.), Sahroyi Kabirning g'arbly qismini, Niger daryosining yuqori oqlmidan o'rtal oqlmigacha o'rganan.	D	Ibn Battuta							
5	Afrikaning janubidagi Yaxshi Umid burniga qadar, Atlantika okeani sohillarini o'rgandi.	E	G.M.Stenil							
Javob	1-	A	2-	E	3-	B	4-	D	5-	C

4. O'zbekistonning siyosiy xaritasidan viloyatlarga mos raqamlarni yozing?

	Viloyatlar	Raqamlar
	Goraqalpog'iston	?
4	Buxoro	?
	Navoiy	?
1	Gashqadaryo	?
	Surxondaryo	?
2	Samarqand	?
	Toshkent	?
3		
5		
6		

Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Nechanchi yillardan boshlab test usuli maktablarda yana asta-sekin tajriba sifatida olimlar va ilg'or o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlangan?

- A) 1970-yillar
- B) 1990-yillar
- C) 1950-yillar
- D) 1995-yillar

2. Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra qanday guruhlariga ajratiladi?

- E) Reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli testlar
- F) Integrativ, adaptiv va mezonli-mo'ljal olish testlari
- G) Kreativ, motivatsion, murakkab testlar
- H) Variativ, tizimli, muvozanatlashgan testlar

3. Nostandart testlarning qaysi guruxida o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, fan o'qituvchisining pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi?

- A) Qisman izlanishli testlar
- B) Integrativ
- C) Mezonli-mo'ljal olish testlari
- D) Adaptiv testlar

4. Nostandart testlarning qaysi guruxida integral mazmun, shakl, qiyinlik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi?

- A) Reproduktiv testlar
- B) Integrativ testlar**
- C) Mezonli-mo'ljal olish testlari
- D) Adaptiv testlar

#### Nazorat savollari:

1. Test topshiriqlarini tuzishda qanday prinsiplarga amal qilgan holda tuzilgan testlar yuqori sifatli va samarali bo'ladi?
2. Testlashtirish qanday jarayon?
3. Geografiya ta'limida nostandart test topshiriqlarini nimalar asosiy o'rinni egallaydi?
4. Geografiya ta'limida nostandart test tuzishning qaysi prinsipida test topshirig'i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni ta'lim oluvchilarga ma'lum bo'lib qoladi va test javoblari haqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur prinsip test savollari va javoblarini ko'p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqazo etadi?

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.
2. Abdieva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy.: 2003.
3. Alimkulov N.R., Raximova Ch.N., Xabibullaeva D.Sh. "Oliy ta'lim geografiya fanlarini o'qitishda nostandart testlarning o'rmi". Yangilanayotgan O'zbekistonda geografiya: fan, ta'lim va innovatsiya. Resp.ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 15.12.2022.
4. Avezov Sh., Saydamatov F.R., Sultonova N. Tabiiy geografiya: standart va nostandart test topshiriqlari. T.: 2019.
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: 2006
6. Qurbonniyozov R. Geografiyadan o'quvchilar bilimini tekshirishning shakli va metodlari. T.1993.
7. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.: 2016.
8. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.

9. Сиротин В.И. Тестовые задания для проверки знаний, умений и навыков учащихся. География в школе 1991, №2.

**Интернет сайтлари:**

10. <http://www.ziyounet.uz>
11. <http://www.pedagog.uz>
12. <http://www.geografiya.uz>
13. <http://www.geograf.uz>

## 6. MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH.

### Reja:

1. Masofali o'qitishning nazariy va didaktik asoslari.
2. Masofaviy ta'lim modellari. Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari.
3. Geografiya ta'limida masofaviy ta'limning ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar uchun imkoniyat va afzalliklari.

### *1. Masofali o'qitishning nazariy va didaktik asoslari*

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi. Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim elementlari kirib keldi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda o'quvchi va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida o'quvchi interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» o'quvchilari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasimga muhrlangan videoma'ruzalar

o'quvchilarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish o'quvchilarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida aym vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz. Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovasion metodlar, o'qitish vositalari va formalari o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

**Masofaviy o'qitish** – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shartsharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qitish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

**Masofaviy ta'lim** – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir.

**Masofaviy o'qitish tizimi** – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Nima uchun masofaviy ta'lim kerak bo'lib qoldi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- Ta'lim olishda yangi imkoniyatlar (ta'lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog'liqmasligi va boshqalar).

- Ta'lim maskanlariga o'quvchi qabul qilish sonining cheklanganligi.

- Ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.

- Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

- Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

**Xorij tajribasi.** Xorijiy mamlakatlarda masofadan o'qitish borasida boy tajriba to'plangan. 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko'ra masofaviy ta'lim texnologiyasi shakllantirilgan bo'lib, ammo masofadan o'qitish ancha oldinroq, ya'ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, 1858 yildan boshlab ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalaridagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta'lim bo'yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab masofaviy ta'lim bo'yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta'lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Ochiq universitetlardagi masofaviy ta'limda o'qish xarajatlari an'anaviy institutlarda o'qitishga qaraganda 8–10 marta arzon. Masalan, Angliyada turg'un o'qishga 3000, masofaviy o'qitish orqali bilim olishga esa atiga 300 funt sterling to'lanadi. Binolarga xizmat ko'rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o'qituvchi, ma'muriyatlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi. Qandaydir oliygoxda o'tkazilayotgan o'quv kurslar, ma'ruzalar yoki seminarlar talabalar yig'iladigan uzoqlashtirilgan o'quv auditoriyalarga sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko'rinishida telekommunikatsiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo'yicha AQSh ning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televedenie universiteti (China Central Radio and TV University)da masofali o'qitish tashkil etilgan. Uzoqlashtirilgan auditoriyalar modelidan biz talabalarga barcha fanlar modulini o'qitishda keng foydalanishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim oluvchilarga filiallar tarmog'i, telestudiya va kompyuter tarmog'i orqali maslahatlar beriladi. Angliyada o'quvchilarni tayyorlash dasturi 130 ta kursni o'z ichiga qamrab oladi, ularning ko'plari fanlararo bog'lanish xususiyatiga ega.

Masofaviy ta'lim AQShda o'tgan asrning 60-yillari o'rtalaridan, Yevropada esa 70-yillarning boshlarida jadal rivojlana boshlandi. O'qitishning bu shakli ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning bir-birlari hamda o'qitish vositalari bilan o'zaro ta'sirining maqsadga yo'naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo'lib, bunda ta'lim jarayoni ularning geografik fazoviy joylashishiga bog'liq bo'lmaydi. Ta'lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya'ni o'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, nazorat, o'quv-moddiy, moliyaviy-iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va marketing kabi elementlarni qamrab olgan o'ziga xos pedagogik tizimda kechadi.

### ***O'zbekistonda masofaviy ta'lim qanday yo'lga qo'yilgan?***

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 27 martda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida"gi buyrug'iga ko'ra respublikamizdagi mavjud OTMlar masofaviy o'qitish texnologiyalarini yaratish va ishga tushirish yuzasidan ishlarni boshlagan.

Yuqorida sanab o'tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o'qitishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi;
- ta'limda qo'llaniladigan an'analar;
- masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

***Umuman olganda masofaviy ta'limning maqsadiga quyidagilar kiradi:***

- Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o'quvchilar, o'quvchilar, ta'lim olishni xohlovchilarga birdek ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish.

- Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta'lim muassasalarining ilmiy va ta'lim berish potentsiallaridan foydalanish evaziga ta'lim berishning sifat darajasini oshirish.

- Asosiy ta'lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish.

- Ta'lim oluvchilarni ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ta'lim muhitini kengaytirish.

- Uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini yaratish.

- Ta'lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta'lim darajasini ta'minlash.

Masofaviy ta'limga quyidagi beshta asosiy holat bilan tavsiflanuvchi ta'lim sifatida qarash mumkin:

- o'qituvchi va o'quvchining mavjudligi;
- ta'lim jarayonining ma'lum masofada amalga oshirilishi;
- o'rgatuvchi va o'quvchining o'zaro ikkiyoqlama muloqoti;
- masofaviy o'qish uchun mo'ljallangan maxsus materiallar mavjudligi;
- har ikki tomonning kompyuter va boshqa texnika va kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganligi.

2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, «Zamonaviy kompyuter» va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan «Internet» ga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida 2001 yil 24 may Vazirlar Mahkamasining Qarori chiqqan edi.

Shu munosabat bilan barcha o'quv muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida, o'quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqi shva ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimidagi yangiliklar, yutuqlarni o'rganish va ularni o'zimizda tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Hozir bu yo'nalishda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, qolaversa, bir qator universitetlarda, jumladan O'zbekiston Milliy universitetida keng ko'lamda ilmiy-uslubiy ishlar olib borilmoqda. Bunda «Masofadan o'qitish» alohida o'rini tutishini uqtiramiz.

Hozirda bu jumladan rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimining asosini tashkil etadi. Bu tizim orqali o'quvchilar faqat belgilangan joydagi auditoriyalarda ta'lim olmasdan, ma'lum masofadan turib o'rganish, muloqot o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu kabi o'quv tizimi Amerika, Hindiston ochiq universitetlarida keng yo'lga qo'yilgan.

***Masofadan o'qitishning turli ko'rinishlari mavjud:***

- lokal kompyuter tarmog'i orqali;
- global kompyuter tarmog'i orqali;
- maxsus kabel televideniya orqali;
- har xil kompakt disklar, kassetalar orqali foydalanish turlari.

Masofadan o'qitishning ustun tomonlari quyidagilardir.

- o'qituvchi va o'quvchi vaqtdan yutadi;
- o'quvchini zamonaviy texnologiyalarga yaqinlashtiradi;
- har tomonlama tejamkorlikka ega;
- albatta asosiysi – o'qitishda, masofa tanlamaydi;
- o'quvchilarning o'rganishi uchun qulay, oson va sodda;
- qayta o'zlashtirish, takrorlash, vaqtga moslash imkoniyati mavjud;
- keyinchalik ish joyida zamonaviy texnologiyalarda tadbir etish uchun mos;
- o'quv materialini zamon talabiga binoan tez va doimiy o'zgartirish imkoniyati mavjud.

***Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida ustunliklari quyidagilardan iborat:***

- masofaviy o'qitish ochiq hisoblanadi, hamma xohlaganlarga ta'lim olish imkoniyatlarini beradi;
- masofaviy o'qitish turli xil darajadagi o'quv dasturlaridan foydalanish imkonini beradi;
- masofaviy o'qitish ta'lim oluvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi;
- masofaviy o'qitish individuallashtirilgan va differentsiyalashgan o'qitishning vazifalarini yechishga imkoniyat yaratadi;
- masofaviy o'qitish ta'lim oluvchiga yashash joyini o'zgartirmasdan, ishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatini yaratadi;

- masofaviy o'qitish kadrlarni tayyorlashdagi ustunligi, tyutorning kasbiy mahorati darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi. xodimlarning yetishmasligini kompensatsiya qilish va o'quv kursining davrli takrorlanishini qisqartirish imkonini beradi;
- masofaviy o'qitish mahalliy va xorijiy elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi;
- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari va hayot muammolarini hal qilishga yordam beradigan bilimlarni uzluksiz egallash imkoniyatini beradi;
- o'ziga qulay bo'lgan vaqtda va istalgan joyda mustaqil ravishda o'rganishini tashkil etish va o'ziga zarur bo'lgan ta'lim vositalarini erkin tanlash, olish imkoniyatini yaratadi;
- o'quv jarayonini mustaqil ravishda uzluksiz yoki vaqti-vaqti bilan ta'lim olish ehtiyojini boshqarish imkoniyatini beradi;
- ta'lim oluvchining qanday yoshda bo'lishiga qaramasdan, turli xil ta'limga oid manbalardan cheksiz foydalanish imkoniyati yaratiladi;
- ta'lim muassasalarida shakllantirilgan noyob o'quv dasturlarini birlashtirish imkoniyatini beradi;
- ta'lim sifati va jamiyatning ta'lim olish darajasini oshirish imkonini yaratadi;
- malakali va sifatli mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlari kengayadi;
- aholining ijtimoiy va kasbiy moslashuvchanligi, uning tadbirkorlik va ijtimoiy faolligi bo'yicha ongini va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Shu bilan birga kelajak uchun muammo bo'lmagan kamchiliklari ham mavjud;

- albatta foydalanishda zarur kompyuter va texnika qurollari mavjud bo'lishi;
- kerakli texnologiyalardan foydalanishda yetarli ko'nikmaga ega bo'lish;
- texnik ko'rsatkichlarga tobeligi.

***Masofaviy ta'limning o'qituvchi va o'quvchilar uchun noqulayliklari.***

Muammoli jihati shundaki, bunday jarayonda o'quvchi barcha materialni mustaqil tarzda o'qib-o'rganishi kerak. Shuning uchun undan iroda kuchi, mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish talab etiladi.

Shu bilan birga masofadan turib o'qitilganda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita muloqot bo'lmaydi. Shuning uchun doimiy tarzda bunday tizimda o'qigan o'quvchi ko'pchilik orasida fikrini bimalol ifodalashga qiynalishi mumkin.

Bundan tashqari, onlayn o'qitishda o'quvchining uy vazifalarini o'z yechgani, mustaqil ishlaganini aniqlash qiyin. Shuning uchun masofaviy ta'lim tizimidagi oliygohlarda yakuniy imtihonlarda talaba shaxsan o'zi kelib, sinov imtihonlarini topshirishi belgilangan.

Chekka hududlarda internet tezligi yaxshi bo'lmashligi hamda ayrim bolalarning internetdan foydalanish ko'nikmalari yetarli emasligi bunday ta'lim jarayonining samarali bo'lishiga halal beradi.

## ***2. Masofaviy ta'lim modellari. Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari.***

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida (xususan, masofaviy ta'lim jarayonini) qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir.

1. Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hakazo.

2. Dasturiy ta'minotga: mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta'minotlardan tortib shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi. So'nggi yillarda G'arbda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llanilib kelinayotgan Internet yoki Interanet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turini Elearning (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi.

**Elektron ta'lim** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elearning o'z ichiga elektron o'quv kontenetlarni bilim oluvchiga yetkazish usulidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratish mumkin. YuNESKO institutining 2000 yildagi tahliliy tadqiqot materiallarida ("Distance Education for the Information Society: Policies, Pedagogy and Professional Development") keltirilgan masofali o'qitish modellarini keltiramiz:

**Birlamchi (Yagonalik) modeli.** Ushbu model tashkiliy tuzilishiga ko'ra faqat masofali o'qitishda va «masofali» o'quvchilar bilan ishlash maqsadida tashkil etiladi. O'qitish shunday amalga oshiriladiki, bunda ta'limning kunduzgi shakli zarur bo'lmaydi. Barcha o'qitish masofadan amalga oshiriladi. Ushbu modelda o'qitishda xududiy markazlar bo'lib, ularda o'quvchilar o'qituvchilardan maslahatlar olishi e'ki yakuniy imtihon topshirishlari mumkin. Bunday oliygohlarda o'qituvchilarga ham o'quvchilarga ham o'quv faoliyatining shakl va uslublarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Vaqt va o'quv jadvalariga qat'iy chegaralar qo'yilmaydi. Bunday tamoyilda o'qitish Ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University – <http://www.open.ac.uk>) da tashkil etilgan.

***Ikkilamchi (Ikkilangan) modeli.*** Bunday tizimda oliygox kunduzgi o'quvchilarni ham, qisman kunduzgi va qisman masofali dastur asosida o'qitadi. Har ikkalasida ham dars jadvallari, o'qitish dasturlari, imtihonlari va baholash mezonlari bir xil bo'ladi. Odatda ikkilangan modelni rivojlantiraётgan oliygox kunduzgi o'quvchilar soni masofali o'qitgan o'quvchilar sonidan katta bo'lgan ana'naviy oliygoxlardir. Shuning uchun bir universitetning o'zida ikki shaklning birgaligida ko'proq o'zlarida katta o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan kunduzgi ta'lim olayotgan o'quvchilar yutadilar. Bunday oliygoxlarda masofali kurslar har doim ham foyda keltirmaydi, ba'zan u qisman kunduzgi o'quvchilarni o'qitish hisobidan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda asosiy urg'u tajribaga, pedagogika va uslubiy innovatsiyalar tadqiqotiga va boshqalarga beriladi. Masofali o'qitishning bunday modeli Avstraliyaning yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia – <http://www.une.edu.au>) da tashkil etilgan.

***Aralash model.*** Ushbu model universitet o'quvchilarini masofali o'qitishning turli shakllarini, aniqrog'i shakllarning integratsiyasini nazarda tutadi. Masalan, kunduzgi shaklda o'qitgan o'quvchilar masofali o'qitish kurslarining dasturlaridagilarni yoki ushbu universitetining o'qituvchisi o'qiyotgan kunduzgi kurslari bilan parallel ravishda qisman o'qiydilar. Shuningdek, bu modelda an'anaviy kurslar doirasida virtual seminarlar, taqdimotlar, ma'ruzalar ko'rinishidagi mashg'ulotlar alohida shakllarining birlashmasi bo'lishi mumkin. Universitet axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan qanchalik yuqori jixozlangan bo'lsa, shunchalik o'qitish shakllari turli-tuman bo'ladi. Integrallashgan bunday kurslar Yangi Zelandiyadagi Massey universitetida (Massey University, New Zealand – <http://www.massey.ac.nz>) tashkil etilgan.

***Konsorsium.*** Ushbu model ikki universitetni birlashmasidan iborat. Bunda ular o'quv materiallari bilan almashadilar yoki ba'zi vazifalarni bo'lishib oladilar. Masalan, bir universitet masofali o'qitish uchun o'quv materiallar ishlab chiqaradi, boshqasi virtual o'quv guruhlarini o'qituvchilar bilan ta'minlaydi yoki masofali o'qitish dasturlarini rasmiy akkreditatsiyasini o'tkazadi. Bunday hollarda universitet butunlay e'ki uning alohida markazlari, fakultetlari, xatto ta'lim xizmati bozorida ishlayotgan tijorat yoki davlat tashkilotlari hamkor bo'lishlari mumkin. Konsorsiumlar faqat qattiy markazlashgan boshqarish va yaratilayotgan ashyolarning mualliflik hamda material xuquqlarini rioya etish shartlaridagina samarali bo'ladi. Kanadadagi Ochiq o'quv Agentligi (Open Learning Agency, Canada – <http://www.ola.bc.ca>) konsorsiumga misol bo'lishi mumkin.

***Franchayzing.*** Franchayzing tamoyilida tashkil etilgan masofali o'qitish modelida hamkor universitetlar bir – birlariga o'zlarining masofali kurslarini beradilar. Bunda ta'lim xizmati bozorida o'zini ko'rsatgan qandaydir universitet o'zida ishlab chiqqan kurslarini masofali o'qitishni endigina tashkil qilayotgan va

masofali o'qitish uchun o'quv ashyolarini mustaqil ishlab chiqish tajribasiga ega bo'lgan boshqa oliygox – hamkorlariga o'qitish huquqini berishi mumkin. Bunday modelning qiziq tomoni shundaki, o'quvchilar o'zlarining universitetida o'qishga yoziqib, konsorsiumga kirgan ilg'or oliygox o'quvchisi kabi o'sha hajmda va o'sha sifatda ta'lim xizmatlariga, o'qishni bitirganlaridan keyin xatto diplomlariga ega bo'ladi. Bunda ilg'or universitetning barcha atributikalari o'z kuchini saqlab qoladi. Franchayzing modeliga misol sifatida Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) va uning Sharqiy Yevropadagi universitetlari bilan aloqasini olish mumkin.

**Validatsiya.** Masofali o'qitishning juda keng tarqalgan modeli bo'lib, bunda ta'lim muassasalari masofali o'qitish bo'yicha xizmatlarni barcha hamkorlari teng darajada bajarishlari haqida kelishuv imzolab oladilar. Ularning biri diplom validatsiyasi, kurs va dasturlarni akreditatsiyasini qiladi, rasman tan olinadigan diplom va sertifikatlarni berishga mas'ul bo'ladi, ilmiy darajalar beradi va xokazo. Bosh oliygox (davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lgan taniqli oliygox) va uning xududlardagi ko'p sonli filiallari orasidagi munosabatlar ham shu model asosida tashkil etiladi.

**Uzoqlashtirilgan auditoriyalar.** Bu modelda zamonaviy axborot texnologiyasi vositalari faol foydalaniladi. Qandaydir oliygoxda o'tkazilayotgan o'quv kurslar, ma'ruzalar yoki seminarlar o'quvchilar yig'iladigan uzoqlashtirilgan o'quv auditoriyalarga sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko'rinishida telekommunikatsiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo'yicha AQSh ning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televedenie universiteti (China Central Radio and TV University) da masofali o'qitish tashkil etilgan.

**Loyihalar.** Davlat ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida keng qamrovlik loyihani amalga oshirish uchun mo'ljallangan masofali o'qitish modelidan iborat. Ushbu modelda asosiy ahamiyat o'quv materiallarini ishlab chiquvchi asosiy mutaxassis xodimlar, masofali kurslarni olib boruvchi o'qituvchilar va olimlar yig'iladigan ilmiy – uslubiy markazga qaratiladi. Markazda ishlab chiqiladigan masofali kurslar u yoki bu davlat (xudud) ning katta auditoriyasiga uzatiladi. Bunday o'qitish vaqtinchali hisoblanib, loyihada mo'ljallangan ishlar bajarilgandan yoki tugagandan so'ng tugatiladi. Bu modelga misol sifatida Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan qishloq xo'jaligi, agrotexnikaning yangi uslublari, ekologiya bo'yicha va sh.k. masofali o'qitish kurslari olish mumkin.

**Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari.** Elektron ta'limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);
- Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);
- Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Hammamizga ma'lumki, har bir universitet yoki ta'lim muassasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan. Bu o'quv modulimizda masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasini g'tahlili keltiriladi. O'quv modulida keltirilgan dasturiy majmualar tahlili ko'p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

### ***3. Geografiya ta'limida masofaviy ta'limning ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar uchun imkoniyat va afzalliklari.***

***Ta'lim oluvchilar uchun imkoniyatlar.*** Shaxsiy kompyuter va internetning rivojlanishi zamonaviy hayotni ko'p jihatdan o'zgartirdi. Yildan yilga maktablarda zamonaviy ta'lim sharoitlari yaxshilanib bormoqda. Bir paytlar O'zbekistondagi yuqori texnologiyali o'rta maktablar kino proektorlar va slayd kadaskoplari bilan jihozlangan bo'lsa, bugungi kunda maktablarimiz zamonaviy kompyuterlar, internetga ulangan portativ qurilmalar, o'quvchi, o'qituvchi va ma'muriyat uchun yuqori texnologiyali elektron vositalar bilan jihozlangan. Ushbu texnologik yutuqlar tufayli O'zbekiston maktablarida yangi zamonaviy sinf modellari paydo bo'ldi. Maktablarning kompyuterlar bilan ta'minlanishi yangi ta'lim imkoniyatlari eshigini ochib berdi.

Endi onlayn mashg'ulotlar hatto eng olis joylarda joylashgan o'quvchilarga o'zlarining maktablarida ilgari taqdim eta olmaydigan darslarga kirishga ham imkon beradi. Bugungi kunda COVID-19 pandemiyasi o'quvchilar uchun ta'lim xizmatlari endi sinfxonalar bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Onlayn ishlashga o'tish katta imkoniyatlar yaratish bilan birga ma'lum muammolar mavjudligini ham ko'rsatmoqda. Onlayn dars mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish uchun malakali o'qituvchilarga ehtiyoj seziladi.

Onlayn o'qitish ko'p jihatdan an'anaviy ta'limga o'xshaydi, ammo o'qituvchilar Internet orqali sifatli ta'lim berishlari uchun o'ziga xos ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim. Biz ushbu qo'llanmada turli o'rganish dasturlari orqali onlayn

ta'lim standartlarini kodlash va baholash imkoniyatlarini o'rganishni boshlaymiz. Har bir o'quvchini huddi ananaviy dars jarayonlaridagi kabi onlayn dars mashg'ulotlarida ham yuqori malakali o'qituvchi bilan ta'minlashimiz lozim.

**Ta'lim beruvchi uchun inkoniyatlar.** Onlayn o'qitish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishlari uchun metodik yordam vazifasini ham o'taydi, bu esa o'qituvchilarga ularning o'quvchilari singari, o'qishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan kasb resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Agar Internet orqali mustaqil malaka oshirish to'g'ri amalga oshirilsa, har bir o'qituvchi tajribasidan qat'iy nazar eng yaxshi ta'lim resurslarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular virtual tarmoqda yuqori malakali ustoz o'qituvchilarni kuzatib borib, eng qiyin vaziyatlarda samarali strategiyalar bilan ishlaydigan vaziyatlarga tayyorlanishi va bu borada ular bilan o'zaro fikr almashishi mumkin.

Onlayn tarmoqlar, shuningdek, yosh o'qituvchilarni o'zlarining tengdoshlari bilan bog'laydigan va maktabida taqdim etilmagan qo'shimcha metodik yordam orqali onlayn-ta'lim jamoalaridan qo'llab-quvvatlanishlari mumkin. Ya'ni, o'qituvchilar boshqa o'qituvchilar bilan norasmiy ravishda, masalan, boshqa (Kasbiy rivojlanish uchun virtual muhit) manbalar orqali bog'lanishlari mumkin.

Mustaqil masofaviy malaka oshirish o'qituvchilarga kasbiy layoqatini sinfdan chiqmasdan kengaytirish imkonini beradi. Yangi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun sifatli kasbiy rivojlanishdan doimiy ravishda foydalanish imkoniga ega bo'lmagan o'qituvchilar endi eng yaxshi amaliyotlarni Internet orqali o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar maktabdan tashqari holda ham sevimli mashg'ulotlari – dars berish bilan shug'ullanishlari mumkin. Masalan Nemis tili o'qituvchisi o'z maktabida nemis tilini o'rganishga qiziquvchilar bo'lmasa o'z xizmatini boshqa maktab o'quvchilariga ham taklif qilishi mumkin. Tajribali ustoz o'qituvchilar, o'zlarining maktablarida bu iste'dodlardan foydalanishni talab qiladigan lavozimlarga ega bo'lmasalar ham hamkasblari va yosh o'qituvchilar uchun onlayn murabbiy sifatida ishtirok etish orqali o'zlarining professional imkoniyatlarini kengaytirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, onlayn o'rganish kasbni yanada moslashuvchan, ijodiy va bir so'z bilan aytganda ko'proq professionalga aylantirib, kasb doirasini kengaytirishi mumkin. Bu esa fan o'qituvchilarining onlayn jamoalarini shakllanishiga olib keladi.

#### **Mavzu bo'yicha test savollari:**

**1..... - masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir?**

**A) Masofaviy ta'lim**

- B) Masofaviy o'qitish
- C) Masofaviy ta'lim tizimi
- D) Of-layn ta'lim

**2. Masofaviy o'qitishning qanday o'ziga xos tamoyillari mavjud?**

- I) Me'yoriy-huquqiy tizim tamoyili, moliyaviy-iqtisodiy tizim tamoyili.
- J) **Interfaollik, boshlang'ich bilimlar tamoyili, individuallik tamoyili.**
- K) Identifikatsiyaviy-nazorat tamoyili, ilmiy o'quv material tamoyili.
- L) Loyihalashtirish tamoyili, o'quv kontentlarini yaratish tamoyili

**3. Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish qanday bosqichlarda olib boriladi?**

- A) Web-xosting xizmatini tanlash, validatsiya, franchayzing
- B) Loyihalashtirish, xizmat ko'rsatish, amalga oshirish
- C) **Tahlil, loyihalashtirish, joriy qilish, ishga tushirish**
- D) Ishlab chiqish, rivojlantirish, nazorat qilish, yakunlash

**4. Masofaviy ta'limga nechta asosiy holat bilan tavsiflanuvchi ta'lim sifatida qarash mumkin?**

- A) 3 ta
- B) **5 ta**
- C) 4 ta
- D) 6 ta

**Nazorat savollari:**

1. Test topshiriqlarini tuzishda qanday prinsiplarga amal qilgan holda tuzilgan testlar yuqori sifatli va samarali bo'ladi?
2. Geografiya ta'limida masofaviy ta'lim texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchilar uchun qanday afzalliklari bor?
3. Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirishning qanday bosqichlari mavjud?
4. Masofadan o'qitishning qanday ko'rinishlari mavjud?

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.
2. Abdulkadirov Abdukaxxor Abdusakilevich. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya - T.: "O'zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi" Fan, 2009.

3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009.-145 b.
4. Ayupov R.X., Shayakubov Sh.Sh. Interfaol ta'lim usullari va vositalari. T.: TMI, 2016 y. -164 b.
5. Azizova M.I, Djamalova G.S.- O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018. <http://karsu.uz>
6. Parpiev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.
7. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.
8. Сиротин В.И. Тестовые задания для проверки знаний, умений и навыков учащихся. География в школе 1991, №2.

**Интернет сайтлари:**

9. <http://www.ziyonet.uz>
10. <http://www.pedagog.uz>
11. <http://www.geografiya.uz>

## 7.GEOGRAFIYA TA'LIMIDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH.

### Reja:

- 1.Geografiya ta'limida mashq va masalalar yechishning o'quvchilar bilimini mustahkamlashdagi ahamiyati.
- 2.Atmosfera qobig'i yuzasidan amaliy mashg'ulotlar tashkil etish metodikasi.
- 3.Soat mintaqalari va vaqt hisobi, Yerning ichki tuzilishiga doir masalalar.

### *1. Geografiya ta'limida mashq va masalalar yechishning o'quvchilar bilimini mustahkamlashdagi ahamiyati.*

Geografiya tabiiy fanlar ichida o'zining keng qamrovligi, qiziqarliligi va ommabopligi bilan ajralib turadi. Geografiya o'quv dasturi hamda geografiyadan qabul qilingan davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan talablarda o'quvchilar o'rganib o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan. Ammo, geografik obyekt, hodisa va jarayonlar, ularni keltirib chiqaradigan sabab – oqibat bog'lanishlarini mohiyatini to'liq anglab yetish uchun nazariy bilimlarning o'zi kifoya etmaydi.

Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ayrim geografik hodisa va jarayonlarga oid mashq hamda masalalar yechish zarurati o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Ko'pgina geografik qonuniyatlar mazmunini tushunish uchun tegishli hisob – kitob ishlarini bajarish kerak.

*Geografiyadan mashq va masalalar yechish o'quvchilarda quyidagi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga ximat qiladi:*

1. O'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.
2. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarning tashqi ko'rinishi bilan birga uning ichki tuzilishini tasavvur eta bilish qobiliyati rivojlanadi.
3. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga qaratilgan bilimlar rivojlanadi.
4. O'quvchilarda muayyan geografik obyekt, hodisa va jarayonlar ko'lamini aniqlashga doir hisoblash malakalari takomillashadi.
5. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy tafakkurlay olish malakalari shakllanadi.

*Amaliy topshiriqlarning maqsadi* - o'quvchilarda geografiya faniga oid bo'lgan ko'nikma va malakalar (geografik mashq va masalalar yechish, xarita bilan ishlash, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilish va hokazo) ni hosil qilishdan iborat. Olingan bilimlarni mustahkamlash amaliy topshiriqlarning asosini tashkil etadi.

Amaliy topshiriqlar o'quvchilar tomonidan individual tarzda ham,

o'qiluvchining ishtirokida ham bajarilishi mumkin. O'quvchilar amaliy topshiriqlarni bajarish, geografik mashq va masalalarni yechish usullarini egallaganlaridan keyin topshiriqlarni mustaqil bajarish imkoniyati vujudga keladi.

**Amaliy topshiriqlarning asosiy maqsadi** dars davomida egallangan bilimlarni amalda tadbiq etish va ularni yanada mustahkamlashdir.

Amaliy topshiriqlar geografiya o'qituvchisidan ham, o'quvchilaridan ham alohida tayyorgarlikni talab etadi. Amaliy topshiriqlarga o'quvchilarni dars jarayonida «oddiydan murakkabga» usulini qo'llagan holda oddiy, elementar ishlardan sekin - astalik bilan murakkab topshiriqlarga o'rgatib borish zarur. O'qituvchi eng avvalo o'quvchilarni darslikdagi matn, rasm va amaliy topshiriqlar bilan ishlashga, geografik xaritalarni o'qish qobiliyatini yaxshilashga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini tahlil qilishga, keyinchalik esa alohida o'quv va uslubiy qo'llanmalardagi topshiriqlarni bajarishga, geografik mashq va masalalarni yechishga o'rgatib borishi lozim.

**O'quvchilar bajaradigan amaliy topshiriqlarga quyidagi metodik talablar qo'yiladi:**

1. Amaliy topshiriqlar o'quvchilarning bilimi va qobiliyatiga mos, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan. ayni vaqtda ularning fikrlash qobiliyatini va ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan borishi kerak;

2. O'quvchilarning amaliy topshiriqlari (geografik mashq va masalalar, xarita bilan ishlash va hokazo) ilgari egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanishni taqozo etadigan hamda ularni yanada rivojlantiradigan bo'lishi lozim;

3. Amaliy topshiriqlarning turi va mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarlik (bilim) darajasiga va individual xususiyatlariga mos kelishi shart;

4. Amaliy topshiriqlarning mazmunan xilma-xil va qiziqarli bo'lishiga e'tibor berish kerak, ularning natijasi o'quvchilarga yangilik berishi shart;

5. Amaliy topshiriqlar quyi sinflardan yuqori sinflarga tomon asta-sekin murakkablashib borishi lozim;

6. Har bir amaliy topshiriqning natijasi o'z vaqtida tahlil qilinishi, muhokama qilib baholanishi, amaliy topshiriq natijalari esa ta'lim jarayonida foydalanilishi maqsadga muvofiqdir.

**P. Yesipovning ma'lumotlariga ko'ra, amaliy topshiriqlar ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni hal etishi mumkin:**

1) o'quvchilarning ongliligini va o'zlashtirilgan bilimning sifatini oshirishga;

2) ularda Davlat ta'lim standarti (DTS) va o'quv dasturlarida talab etilgan o'quv ish usullari (shu jumladan bilim manbalari bilan mustaqil ishlash) ga oid bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga;

3) o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda, ishlab chiqarishda tadbiq eta olish;

4) o'quvchilarning bilish qobiliyatlari (kuzatuvchanlik, sinchkovlik, mantiqiy tafakkur, ijodiy faollik va bilimlarni tadbiq etish) ni rivojlantirish;

5) ularni mustaqil ishlashga, oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga odatlantirish;

6) o'quvchilarni kelgusida samarali va mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyatlarini beradi.

## 2. Atmosfera qobig'i yuzasidan amaliy mashg'ulotlar tashkil etish metodikasi.

### HAVO HARORATI

*Havo harorati* deb havoning qanchalik isiganiga yoki soviganiga aytiladi. Havo harorati *termometr* asbobi yordamida o'lchanadi. Termometr yer yuzasidan 2 metr balandga, Quyosh nuri tushmaydigan soya joyga o'rnatiladi. Dunyodagi juda ko'p meteorologik stansiyalarda ob – havoning holati, shu jumladan havo harorati har 3 soatda bir marta (sutkasiga 8 marta) o'lchab turiladi. Shundan so'ng o'rtacha harorat aniqlanadi.

*Sutkalik o'rtacha harorat*ni aniqlash uchun sutka davomidagi barcha kuzatish natijalari qo'shib, necha marta kuzatish olib borilgan bo'lsa, shunchaga bo'linadi.

*Oylik o'rtacha harorat*ni topish uchun shu oydagi sutkalik o'rtacha haroratlar qo'shib, oyning kunlari soniga bo'linadi.

*Yillik o'rtacha harorat*ni aniqlash uchun bir yil mobaynidagi barcha oylik o'rtacha haroratlar qo'shib, 12 (bir yildagi oylar soni) ga taqsimlanadi.

Sutkalik havo haroratining eng yuqori va eng past ko'rsatkichlari orasidagi farq (tafovut) *havo haroratining sutkalik amplitudasi* deb ataladi.

Yil davomidagi eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi tafovut *havo haroratining yillik amplitudasi* deyiladi. Troposferada havo harorati o'rtacha har 100 metr balandlikda  $0,6^{\circ}\text{C}^5$  ga, har 1000 metr (1 kilometr) balandlikka ko'tarilganda esa  $6^{\circ}\text{C}$  ga pasayib boradi.

**Misol:** Toshkentda 10 – apreldagi bir sutkalik kuzatish natijalari quyidagicha: kechasi soat  $1^{\text{oo}}$  da  $+4^{\circ}\text{C}$ , soat  $4^{\text{oo}}$  da  $+2^{\circ}\text{C}$ , ertalab soat  $7^{\text{oo}}$  da  $+5^{\circ}\text{C}$ , soat  $10^{\text{oo}}$  da

<sup>5</sup> Aslida havo harorati yuqoriga ko'tarilgan sari har 100 metr balandlikda  $0,6^{\circ}\text{C}$  dan  $0,9^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi. Foydalanuvchilarning yoshini hisobga olgan holda hamda hisoblashlarga qulay bo'lishi uchun mazkur qo'llanmada (xuddi maktab darsliklari va boshqa qo'llanmalardagi singari)  $0,6^{\circ}\text{C}$  soni asos qilib olindi.

+9°C, kunduzi soat 13<sup>00</sup> da +12°C, soat 16<sup>00</sup> da +16°C, kechqurun soat 19<sup>00</sup> da +10°C, soat 22<sup>00</sup> da +6°C.

Ushbu ma'lumotlar asosida sutkalik o'rtacha haroratni aniqlang.

**Yechish:** dastlab kuzatuv natijalarini qo'shib chiqamiz va hosil bo'lgan yig'indini kuzatishlar soniga, ya'ni 8 ga bo'lamiz:

$$+4^{\circ}\text{C} + 2^{\circ}\text{C} + 5^{\circ}\text{C} + 9^{\circ}\text{C} + 12^{\circ}\text{C} + 16^{\circ}\text{C} + 10^{\circ}\text{C} + 6^{\circ}\text{C} = +64^{\circ}\text{C}$$

$$+64^{\circ}\text{C} : 8 = +8^{\circ}\text{C}$$

**Javob:** sutkalik o'rtacha harorat +8°C ga teng ekan.

## ATMOSFERA BOSIMI VA UNI ANIQLASH

Havoning Yer yuzasiga va undagi barcha narsalarga beradigan bosimi *havo bosimi* deb ataladi.

Havo juda yengilga o'xshaydi, lekin uning ham og'irligi bor. Havo har 1 sm<sup>2</sup> yuzaga 1 kilogramm 330 gramm (1330 gramm yoki 1,33 kilogramm) kuch bilan ta'sir etadi.

**Yuqoriga ko'tarilgan sari havo bosimi har**

**10 metrda 1 mm ga**

**(100 metrda 10 mm ga,**

**1000 metr yoki 1 kilometrda 100 mm ga) kamayadi.**

**1 mm simob ustuni 1,33 mb (millibar) ga,**

**760mm simob ustuni esa 1013,2 mb (millibar) ga teng.**

### 3. Soat mintaqalari va vaqt hisobi, Yerning ichki tuzilishiga doir masalalar.

#### SOAT MINTAQALARI VA VAQT HISOBI

Soat mintaqa vaqti joriy qilingandan so'ng qaysi soat mintaqasini yangi sutkaning boshlanishi kerak degan muhim masala chiqib qoldi. Shartli ravishda sutka 12-mintaqada uning o'rta meridianidan boshlanadi deb kelishildi. Bu meridian 1800 uzunlikdadir. Biroq, meridian ba'zi joylarda orollarni kesib o'tadi. Bunday joylarda kartaga meridiandan chetga chiqadigan chiziq chizildi. Bu chiziq qutbdan qutbgacha sana o'zgarish chizig'i deyiladi. Yer sharida har bir sutkaning boshlanishi shu chiziqdan hisoblanadi.

Soat mintaqalari va vaqt hisobini aniqlashga doir masalalar turli geografik uzunlik bo'ylab joylashgan geografik obyektlar orasidagi vaqt farqini bilish uchun, avvalo, shu obyektlarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash zarur. Buning uchun quyidagi formulalardan foydalanish zarur<sup>6</sup>.

Sharqiy yarim shardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqalarida joylashganligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S_{\text{shq}} = (\text{E} - 7^{\circ}30') : 15^{\circ}$$

<sup>6</sup> Avezov M. Soat mintaqalari va vaqt hisobi u qanday aniqlanadi? // Maktabda geografiya T 2015. 11-15 b.

Bu yerda:

24 - soat mintaqalari soni;

$\epsilon$  - obyektning geografik uzunligi;

$7^{\circ}30'$  - har bir soat mintaqasining o'rtasidan o'tuvchi meridiandan g'arb yoki sharq tomonga hisoblanadigan qiymat;

$15^{\circ}$  - yerning o'z o'qi atrofida bir soat davomida aylanish burchagi;

Mazkur formulalar yordamida yer sharining istalgan nuqtasida ma'lum geografik obyektning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash mumkin.

## YERNING ICHKI TUZILISHI

Yerning ichki tuzilishi juda kam tadqiq qilingan sohalardan hisoblanadi. Ammo olimlar yerning ichki qismiga kirib borgan sari moddalarning harorati va zichligi o'zgarib borishini aniqlaganlar. Yer po'stidan ichki qavatlariga kirib borgan sari harorat oshib borishi aniqlangan. Har 100 metrdagi chuqurlikda ko'tarilgan harorat graduslari miqdori geotermik gradient deb ataladi. Chuqurga tushgan sari haroratning  $1^{\circ}$  ko'tariladigan masofa (metr-hisobida) geotermik bosqich deyiladi. Geotermik bosqich turli joyda turlicha bo'ladi. U relyefga, tog' jinslarining issiqlik o'tkazilish qobiliyatiga, vulkan o'choqlarining uzoq-yaqinligiga bog'liq. Geotermik bosqich o'rta hisobda har 33 metrga  $1^{\circ}$ ga teng deb qabul qilingan. Shu issiqlik miqdorini topish bilan bog'liq masala va mashqlar haqida gapirilganda mana shu raqam asos qilib olinadi.

**Misol:** Yerning yuza qismida  $+5^{\circ}\text{C}$  harorat bo'lsa suv qaynashi mumkin bo'lgan chuqurlikni hisoblab toping.

Yechish: Suvning qaynash harorati  $100^{\circ}\text{C}$  deb qabul qilingan. Yerning yuza qismida  $+5^{\circ}\text{C}$  harorat bo'lsa,  $100^{\circ}\text{C} - 5^{\circ}\text{C} = 95^{\circ}\text{C}$

$95^{\circ}\text{C} \times 33\text{m} = 3135 \text{ m}$  Javob: 3135 m.

## GIDROSFERA

Sayyoramizdagi suv qobig'i gidrosfera deb ataladi. Gidrosfera tarkibiga yer yuzasidagi barcha suvlar - okean, dengiz, daryo, ko'l, muz, botqoq, yer osti suvlari, atmosferadagi suv bug'lari va tuproq tarkibidagi suvlar kiradi. Gidrosferadagi suvning 97,20 foizi sho'r, faqat 2,80 foizigina chuchuk suv bo'lib, ularning asosiy qismi muz, daryo va ko'llarga to'g'ri keladi. Gidrosferadagi suv bir holatda turmasdan o'zgarib doimo aylanma harakatda bo'ladi. Gidrosferadagi suv quyoshdan keladigan issiqlikni yutib energiya to'plovchi akkumlyatorga o'xshaydi<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Bahromov Q., Halimova G. Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.

**Misol:** Okean tubiga qarab exolotdan yuborilgan tovush to'liqini 8 sekundga qaytib kelgani qayd etilgan bo'lsa okean chuqurligini aniqlang.

**Yechish:** Tovush to'liqini okean tubiga urilib qaytib keladi. Shuni hisobga olib unga sarflangan vaqtni ikkiga bo'lamiz.

$8 \text{ sek} : 2 = 4 \text{ sekund}$   
 $4 \text{ sekund} \times 1500 \text{ metr} = 6000 \text{ metr}$   
Ya'ni, okean chuqurligi 6000 metrga teng. **Javob:** 6000 metr.

## GEOGRAFIYAGA DOIR MANTIQUIY SAVOLLAR VA JAVOBLAR

1. Yer shari g'arbdan sharqqa tomon o'z o'qi atrofida aylanadi. Aksincha, Yer shari o'z o'qi atrofida sharqdan g'arbga tomon aylanganda yer tabiatida qanday o'zgarishlar bo'lar edi?

**Javob:** Yer shari o'z o'qi atrofida sharqdan g'arbga tomon aylanganda, yer tabiatida quyidagi o'zgarishlar bo'lishi mumkin:

a) Quyosh g'arbdan chiqib sharqqa botadi;

b) Shimolga oquvchi daryolar chap, janubga oquvchi daryolar esa o'ng qirg'og'ini yemiradi;

v) Ekvator atrofida yerning o'z o'qi atrofidan aylanishi tufayli paydo bo'luvchi passat shamollari o'z yo'nalishini teskari tomonga qarab o'zgartiradi;

g) Golfstrim va boshqa dengiz oqimlari o'z yo'nalishini teskari tomonga qarab o'zgartirar edi;

2. Bir kilogramm olma shimoliy qutbda og'irmi yoki janubiy qutbdami, nima uchun?

**Javob:** Olimlarning aniqlashlaricha, yerning janubiy qutbiy radiusi, shimoliy qutbiy radiusga nisbatan 30 metr qisqa ekan. Shuning uchun 1 kg olma janubiy qutbda og'irroq bo'ladi.

3. Biz qachon quyoshga yaqinlashamiz, tushdami yoki kechqurun?

**Javob:** Shimoliy yarim sharda yashovchilar, jumladan bizlar ham tushdan ko'ra kechqurun quyoshga yaqinroq bo'lamiz.

4. Yer sharining qaysi qismida yil bo'yi kun va tun doimo teng bo'ladi?

**Javob:** Ekvatorda.

5. Nima uchun shimolga qarab oqadigan daryolar faqat o'ng qirg'og'ini va janubga qarab oquvchi daryolar esa chap qirg'og'ini yemiradi?

**Javob:** Akademik K.M. Ber qonuniga ko'ra, daryolar qaysi tomonga oqishidan qat'iy nazar shimoliy yarim sharda ko'proq o'ng qirg'og'ini, janubiy yarim sharda esa chap qirg'og'ini yuvadi. Ber qonuni deb atalgan bu hodisaning sababi yer o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa aylanadi.

6. Nima uchun sharqiy yarim sharlar g'arbiy yarim sharlarga nisbatan qishda sovuq va yozda issiq bo'ladi.

**Javob:** sharqiy yarim sharda quruqlik maydonining kattaligi hisoblanadi.

7. Qorli tog' cho'qqilari quyoshga yerdagi tekisliklarga nisbatan yaqin bo'lsa-da ammo, ularning tepasida yozning jazirama vaqtida ham qorning erimaslik sababini tushuntiring.

**Javob:** toqqa chiqqan sari atmosfera bosimni pasayishi tufayli havo harorati ko'tarilmay aksincha har ming metrdan  $6^{\circ}\text{C}$  ga pasayib boradi.

### Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Ufq tomonlarini aniqlovchi kompas asbobi qachon va qayerda kashf qilingan?  
A) Eramizdan avvalgi III asrda Xitoyda  
B) Eramizdan avvalgi II asrda Gresiyada  
C) Eramizdan avvalgi IV asrda Rimda  
D) Eramizdan avvalgi I asrda Xitoyda
2. Magnit strelkasi og'ish burchagi bir xil qiymatga ega bo'lgan nuqtalarni tutashtiradigan chiziq qanday chiziq deyiladi?  
M) Izobara chiziq  
N) **Izogon chiziq**  
O) Izotermik chiziq  
P) Izogiyeta chiziq
3. Yer aylanishining burchak hisobidagi tezligi uning hamma qismida teng, u bir soat vaqt ichida  $15^{\circ}$  ga siljiydi?  
A)  $25^{\circ}$  ga  
B)  $10^{\circ}$  ga  
C)  **$15^{\circ}$  ga**  
D)  $45^{\circ}$  ga
4. Yuqori mantiya Moxo chegarasidan quyida 400 km chuqurlikkacha davom etadi?  
A) 200 km  
B) **400 km**  
C) 250 km  
D) 500 km

### Nazorat savollari:

1. AQSh poytaxti Vashington shahri  $78^{\circ}$  g'arbiy uzunlikda joylashgan. U qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlang?
2. Dengiz bo'yida havo bosimi 715 mm simob ustuniga teng. Xuddi shu paytda 4000 metr balandlikda havo bosimi necha mm simob ustuniga teng bo'lishi mumkinligini hisoblab toping?

3. Sinf xonasida 200 m<sup>3</sup> havo bo'lib, uning harorati +20°C bo'lsa, bu havo o'zida qancha suv bug'ini tutib turishi mumkin?
4. Agar yanvarning o'rtacha harorati -4°C ga, iyulniki esa +20°C ga teng bo'lsa, bir yillik havo haroratining amplitudasi necha gradusga teng bo'ladi?
5. Qizil dengiz (sho'rligi 42% ga teng) suvidan bir tonna tuz olish uchun qancha suvni qayta ishlash lozim?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
2. Abdullaeva D.N. “Geografiya darslarida masalalar, qiziqarli savollar va geografik topishmoqlar”, Toshkent – 2015.
3. Bahromov Q., Halimova G. Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari. “Navro'z”, Toshkent – 2017.
4. Jumaxanov Sh., Toshpo'latov A. Geografiya. Uslubiy ko'rsatma, Namangan-2018.
5. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Nazaraliev E.Y. “Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar”, “Fan va texnologiya”, Toshkent - 2015.
6. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B. Geografiya o'qitish metodikasi. “Nodirabegim”, T.: 2021.
7. Xolmurodov Sh. “ Geografiya fanidan amaliy topshiriq ishlarini bajarishda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida hamkorlik texnologiyalarini qo'llash”. Toshkent – 2014.
8. Hikmatov F.H., Aytboev D.P., Hayitov Yo.Q. Umumiy gidrologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent, 2004.

#### **Internet saytlari:**

9. <http://www.ziyonet.uz>
10. <http://www.pedagog.uz>
11. <http://www.geografiya.uz>

## 8. TOPONIMIK RAYONLASHTIRISH MASALALARI. O'ZBEKISTONNING TOPONIMIK RAYONLARI.

**Reja:**

1. Geografik nomlar, toponimlar va toponimika fani.
2. Toponimikaning rivojlanish tarixi, geografik nomlarning paydo bo'lishi.
3. Toponimik rayonlashtirish. O'zbekistonning toponimik rayonlari.

### *1. Geografik nomlar, toponimlar va toponimika fani.*

Yer yuzida millionlab geografik nomlar - toponimlar mavjud. Yer yuzidagi har bir geografik obyekt, hodisa va voqeaning o'z nomi bor. Har bir dengiz, har bir daryo, har bir tog'u - cho'qqi, har bir shahar, qishloq, har bir daha, har bir mahalla, ko'cha o'z nomiga ega. Geografik nomlarga shunday o'rganib ketganmizki, hatto, ularning mavjudligini ham unutib qo'yamiz. Faraz qilaylik, bir zum geografik nomlar yo'qolib qoldi deb: kim qayerga borishini ham, qayerdan kelayotganini ham, shuningdek qayerda yashashini ham bilmay qoladi. Geografik nomlar hayotiy zarurat bo'lib qolgan.

Geografik nomlar asosan ikki xil bo'ladi: ayrim geografik obyektни bildiruvchi atoqli ot, nom va geografik obyekt hamda voqea, hodisalarning, umumiy nomini bildiruvchi turdosh otlar. Atoqli geografik nomlar **toponimlar** deyiladi. Yunoncha *topos* - joy va *onoma* - ism, nom so'zlaridan tashkil topgan.

Toponimlarga, ularning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi, ma'nosi, o'zgarishi, talaffuz qilinishiga kishilar juda qadim zamonlardan qiziqib kelishgan. Har bir geografik nom orqasida qanchadan - qancha voqea va hodisalar, tabiiy hodisalar, tabiiy xususiyatlar, xalq, qabila, urug', ayrim kishilar faoliyati haqidagi tarixiy ma'lumotlar yashirinib yotadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Tyanshan, Pomir, Amudaryo, Qizilqum nomlarida qancha voqea, hodisalar, tarix yashirinib yotibdi. Nega ular shunday nomlar bilan ataladi?

Har bir kishi, avvalo, o'z joyi - shahri, qishlog'i, mahallasi, ko'chasi nomini, ularning qanday hodisa, voqea, tabiiy xususiyat, qanday inson nomi bilan bog'liqligini bilishni istaydi. Nega Hindikush, Ajal vodiysi, Borsakelmas, Dashti Margoh, Dashti Lut, O'lik dengiz deyiladi? Chet ellardagi nomlarning ba'zilarini o'zbek tiliga tarjima qilinsa, g'alati, ba'zan bema'ni nomlarni ko'rasiz. Krivoy Rog - Egri shoh, Tbilisi - Qaynar buloq, Vladivostok - Sharqni egalla, Velikiye Luki - Katta yoylar, Los - Anjeles - "Bizning janobi oliylari farishtalar qiroli" va h.k.

Joy nomlarini yozishda ham nozik tomonlari bor. Ba'zan bir harf o'zgarishi bilan tamomila boshqa joy tushuniladi. Masalan: Amu - Amur, Avstriya - Avstraliya, Riga - Risa, Jurjon - Juzjon, Mari - Mariy, Neva - Niva va boshqalar.

Bulaming hammasini **toponimika** fani o'rganadi. Toponimika ham yunoncha "topos" va "noma" so'zlaridan hosil bo'lgan. Bu fan geografik nomlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, o'zgarishini, ularning mazmuni, shakli va to'g'ri yozilishini o'rganadi. Toponimika geografiya, tarix va tilshunoslik (lingvistika) fanlari o'rtasidagi fan bo'lib, ular bilan juda bog'langan. Bu fanlarning tadqiqot uslublaridan foydalanib ish ko'radi.

Geografik voqea, hodisa va obyektlarning umumiy nomini, turdosh otlarni, ya'ni termin (atama)larni geografik terminshunoslik o'rganadi.

Har bir fanning terminlarini o'rganuvchi terminshunoslik (atamashunoslik) fanlari mavjud. Geografik terminshunoslik geografik terminlarning ma'nosi, kelib chiqishi (etimologiyasi), o'zgarishi, to'g'ri yozilishi va manbalarini o'rganadi. Har bir fanni chuqur o'rganish uning terminlarini qanchalik to'g'ri va to'liq bilishga bog'liq. Har bir fanning rivojlanishida mukammal o'rganilgan va ilmiy ishlab chiqilgan terminologiyaning ahamiyati kattadir. Terminlarning aniqligi, mukammalligi fanning rivojlanishini ma'lum jihatdan belgilab beradi. Termin yordamida ma'lum hodisa tasnifi ixcham beriladi va o'sha hodisani tez o'zlashtirib olish imkoniyati yaratiladi.

Joy nomlarini o'rganuvchi mutaxassislar **toponimistlar** deb, terminlarni o'rganuvchi mutaxassislar **terminologlar** deb ataladi.

Toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlar kishilar bilimini juda kengaytiradi hamda madaniy saviyasini o'stiradi. Deyarli barcha buyuk kishilar, allomalar toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlarga juda qiziqqan va o'zlari ham fanning bu sohalarini bilan shug'ullanganlar.

Geografiya darslarida toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlardan foydalanish o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytiradi va shu sohada chuqur bilim olishlariga yordam beradi.

## ***2. Toponimikaning rivojlanish tarixi, geografik nomlarning paydo bo'lishi.***

Geografik nomlarning ma'nosini, ularning kelib chiqishini, o'zgarishini bilishga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Toponimikaga oid ma'lumotlar qadimgi dunyo olimlari asarlarida ko'plab uchraydi. Chunonchi, Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Pomiponiy Melaning "Xorografiya", Pliniyning "Tabiiy tarix" nomli asarlarida ko'pgina toponimik ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda ham toponimikaga qiziqish qadimdan boshlangan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy", "Hindiston", "Saydana", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ibn Sinoning "Dengiz qirg'oqlari" asarlarida toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin. Toponimik ma'lumotlar muallifi noaniq "Hudud

al - olam” nomli geografik asarda ham mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning “Bobumoma” asari mumtoz o’lkashunoslik asari bo’lishi bilan birga unda toponimikaga oid juda ko’p ma’lumotlar bor.

X-XI asrlarda yashagan Abu Rayhon Beruniy o’z davrining buyuk olimi - astronom, matematik va geograf bo’lgan. U 973 yili 4 sentabrda Xorazmdagi Kot (hozirgi Beruniy) shahrining chekkasida tug’ilgan va 1048 yilda 75 yoshda G’aznada vafot etgan. Uning ilmiy merosi orasida toponimikaga oid ma’lumotlar ko’p uchraydi. Uning geografik va toponimik merosi “At - Tafhim”, “Qonuni Ma’sudiy”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Minerologiya”, “Osori boqiya”, “Saydana” kitoblarida keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlari mavjud. Chunonchi, yunonlar va arablar turkiy so’zlarni buzib, o’z talaffuzlariga moslab ishlatganliklari oqibatida ayrim so’zlarning ma’nosi o’zgarib ketganini aytadi. Masalan, turkiycha *tosh* so’zini arablar *shosh* deb talaffuz qilishidan ma’no o’zgarганиni aytadi. “Saydana” kitobida 400 dan ortiq qishloq, tog’, daryo, shahar va orollarning nomlari tilga olingan. “Qonuni Ma’sudiy” kitobida 603 ta joy nomi ko’rsatilgan.

Abu Rayhon Beruniy Mo’lton shahri nomiga quyidagicha izoh bergan (H.H.Hasanov, 1985): “Mo’ltonning (asl) nomi Koshiyapura edi. Keyin Hansapura, keyin Bashapura, keyin Sanbhapura va keyin Mo’lastxona, ya’ni “Asl joy” deb nomlanadi; mo’l - “asl”, tona - “joy” demakdir” deydi. “Minerologiya” kitobida konlarning geografik tarqalishi, qaysi toshning qaysi tog’, qaysi daryo vodiysi va qaysi qishloqdan qazib olinishi haqida yozishi bilan birga ayrim tosh, minerallarga izoh ham bergan. Beruniyning dunyo xaritasida qirqqa yaqin joy nomlari berilgan.

Muallifi noma’lum “Hudud al - olam” (X asr) kitobida ham geografik toponimika va terminshunoslikka oid ma’lumotlar ko’p. Bu kitobda Buxoro, Farob, Poykent, So’g’d, Tavovis, Karmina, Dabusi, Arbinjon, Kushoniya, Samarqand, Kesh, Termiz, Zomin, Jizzax, Farg’ona, Axsikat, Qubo, Shosh, Kot va boshqa joylar haqida ma’lumotlar bor.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483 - 1530) “Bobumoma” kitobi mumtoz o’lkashunoslik kitobi bo’lishi bilan birga, unda toponimikaga va terminshunoslikka oid ma’lumotlar juda ko’p. Xususan Farg’ona vodiysidagi geografik nomlar ma’nosi, etimologiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Andijon, Kandibodom, Isfara, Xo’jand, Ahsi, Xo Darvesh, Sayhun, Marg’ilon haqida batafsil ma’lumotlar mavjud.

Bulardan tashqari, Abu Hayyon (XIII - XIV asrlar), Jaloliddin Turkiy (XIV - XV asrlar), Mirzo Ulug’bek (XIV - XV asrlar), Abulg’ozixon (XVI asr), Qori Rahmatulla Buxoriy (Vozix) (XIX asr) asarlarida toponimikaga va geografik terminshunoslikka oid ma’lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan Abulg’ozixonning

“Shajarai turk”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Qori Rahmatulla Buxoriyning “Xotiralar”, “Sayram risolasi” nomli asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda toponimika va geografik terminshunoslikning XX asrdagi rivojlanishida mahalliy tadqiqotchi olimlar bilan birga O‘rta Osiyoni o‘rgangan rus olimlarining ham hissasi katta bo‘ldi. Bular orasida V.V.Bartold, V.P. Semenov - Tyanshanskiy, E.M. Murzayevlarni alohida ko‘rsatish mumkin. V.V.Bartold o‘zi tarixchi, uning toponimikaga oid maxsus ishi yo‘q. Toponimik ma‘lumotlarining 9 jildli tarixiy asarida uchraydi. Uning joy nomlarini tushuntirish sodda, ancha aniq va ko‘p fikr-mulohazalari ishonarlidir. U o‘z asalarida mahalliy geografik terminlardan yaxshi foydalanadi. Uning *asalarida ariq, jo‘y, kom, qir, rabod, tarxon, to‘rtko‘l, shahriston, yurt* kabi terminlar talqinini bergan.

O‘zbekistonda toponimika va geografik terminshunoslikni rivojlantirishda H.H.Hasanovning (1919 - 1985) xizmatlari katta. Uning toponimikaga oid fikr, mulohaza va ma‘lumotlari “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” (1965), “Geografik nomlar imlosi” (1962), “Yer tili” (1977), “Geografik nomlar siri” (1985) asalarida, terminshunoslikka oid ishlari “Geografiya terminlari lug‘ati” (1964) kitobida, geografiya va terminshunoslik tarixiga oid ishlari “O‘rta Osiyolik geograf sayyohlar” va ko‘pdan - ko‘p maqolalarida o‘z aksini topgan. Bu olimning toponimikaga oid kitoblarining ikkinchi qismi izohli lug‘atlardan iborat bo‘lib, bu mazkur asarlarning qiymatini yana ham oshiradi.

O‘rta Osiyo o‘lkasi, xususan O‘zbekiston toponimlarini tadqiq etgan yana bir tadqiqotchi S. Qorayevdir. Bu tadqiqotchi toponimlarning etimologiyasiga oid ancha ish qilgan. U toponimlarni, xususan etnotoponimlarini chuqur o‘rgangan. Uning ilmiy xulosalari “Geografik nomlar ma‘nosi” (1978), “Geografik nomlar ma‘nosini bilasizmi?” (1970), “Toshkent toponimlari” (1991) kitoblarida bayon etilgan. O‘zbekistondagi joy nomlarini o‘rganish va tadqiq etishda filolog tadqiqotchilardan H.Egamov, Z.Do‘simov va T.Nafasovlar ishlari ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Geografik nomlarning paydo bo‘lishi.** Toponimlarning paydo bo‘lishi masalasi bir qarashda juda oddiyga, hech qanday qonuniyat yo‘qqa o‘xshaydi. Bunda bir qancha misollar keltirish mumkin. Rossiya imperiyasi vaqtida rus qo‘shinlari bosib olgan joylarda ruslar mahalliy aholi bilan birga yashashni o‘ziga ep ko‘rmay, har bir yirik shahar yaqinida rus shahrini qurgan va eski shahar yonida yangi shahar - “город” paydo bo‘lgan. O‘zbekistondagi har bir yirik shahar yaqinida yangi shahar - город bo‘lib, ular shaharga qo‘shilib ketib, farq yo‘qolgan. Shunday shaharlardan biri Marg‘ilon shahridan 12 km masofada qurilib, unga Новый Маргелан deb nom qo‘yilgan. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olon bostirilganidan keyin

qo'zg'olonni bostirgan general Skobelev sharafiga shahar Skobelev shahri deb ataladigan bo'ldi. Sovet davrida Farg'ona deb o'zgartirildi.

Ba'zi geografik joylar nomlari o'sha joylarni tadqiq etgan kishilar nomiga, ba'zan ekspeditsiya kemalari nomi, ba'zan tadqiqotchining yaqin kishilari, podshohlar nomi bilan atalishi ham mumkin. Masalan, "Mod", "Foka", "Jannetta", "Vityaz", "Amem" kemalar nomidagi orollar, erlar bor. Komandor orollari, Bering bo'g'izi, Dejnev burni, Livingiston sharsharasi va boshqalar esa kishi ism familiyalari bilan bog'liq.

Bu keltirilgan misollarda geografik nomlarning paydo bo'lishida qonuniyatlar mavjudligi ko'zga tashlanmaydi. Aslida bir qancha qonuniyatlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Ko'pgina geografik nomlar til taraqqiyotining dastlabki davrida oddiy turdosh otlardan iborat bo'lib, keyinchalik, vaqt o'tishi bilan atoqli otlarga - geografik nomlarga aylanib ketgan. Masalan: ilgari odamlar oddiygina suv, soy, daryo, qo'rg'on, kent, ko'l, to'qay deb ataganlar. Keyinchalik bu oddiy so'zlar geografik nomga aylangan. Bularga Amur, Jayhun, Don, Edil, Ganga, O'kuz, Nil, Shott nomlari misol bo'ladi. Hammasining ma'nosi bitta, suv demakdir. Aydar - qir, yayla - yaylov, chink - jarlik, alp - tog', rio - suv, xingan - tizma va boshqalar.

2. Oddiy so'zlarga, toponimlarga aniqlovchi qo'shish yo'li bilan geografik nomlar hosil bo'ladi. Bunda aniqlovchi sifat so'z turkumidan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, sifat qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yangiqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Oqmachit, Ko'kerak, Yangiobod, Qoradaryo, Oqdaryoni misol qilib keltirish mumkin. Ot qo'shish yo'li bilan Qumqo'rg'on, Toshqal'a, Taxtako'prik, Toshkent, Chimkent, Shoshtepa, G'azalkent toponimlari vujudga kelgan. Son qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yettiterak, Beshqayrag'och, Uchtom, Qo'shtut, Yakkatut kabi toponimlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Qaynarbuloq, Xo'jabaqirgan, Kuvganyor kabi toponimlar otga ravishdosh qo'shilishidan hosil bo'lgan.

3. Geografik nomlarning bir obyektidan ikkinchi, ba'zan uchinchi, to'rtinchi obyektlarga ko'chishi natijasida yangi joy nomlari vujudga keladi. Masalan, Sirdaryo daryosi, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri, Sirdaryo tumani; Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri; Ohangaron shahri, Ohangaron daryosi; Zarafshon daryosi, Zarafshon shahri, Farg'ona vodiysi, Farg'ona viloyati. Ayrim daryolar bo'yidagi shaharlar nomi daryo nomiga suffiks qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. Masalan, Angara daryosi - Angarsk shahri, Tom daryosi - Tomsk shahri, Ij daryosi - Ijevsk shahri, Or daryosi - Orsk shahri.

4. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalqlar nomiga - iya, - iston suffikslarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan: Turkiya, Ispaniya, Finlandiya, Vengriya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va boshqalar. Lekin

ayrim davlatlar nomining yasashida - iya, suffiksi xalqlar nomiga emas, balki boshqa soʻzlarga ham qoʻshilishi mumkin. Masalan, Braziliya (brazil - oʻsimlik nomi), Kolumbiya (Kolumb - mashhur sayyoh), Islandiya (island - muz mamlakati).

5. Geografik obyektlarga nom qoʻyishda oʻxshatib nomlash ham mavjud. Bu har xil maqsadlarda boʻlishi mumkin. Chunonchi, Amir Temur Samarqandning shuhratini oshirish maqsadida poytaxt atrofiga bir qancha qishloqlar qurib, oʻsha vaqtdagi mashhur shaharlar nomini qoʻygan; Damashq, Parij, Sheroz, Bagʻdod, Misr va boshqalar. Bularning baʼzilari hozir ham nomini saqlab keladi. H.H.Hasanov keltirgan maʼlumotga koʻra, Yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venetsiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiyev nomlari mavjud ekan. Amerikada Moskva, Parij, London, Uels, Nyukasl va boshqa shaharlar mavjud.

6. Geografik nomlar umumlashtirish yoʻli bilan, yaʼni kichik joy nomini katta hudud yoki obyektga koʻchirish natijasida ham vujudga keladi. Bunga misol qilib Osiyo nomini keltirish mumkin. Qadimda Osiyo (Osu) deb Livan, Falastin, Suriya joylashgan kichik hudud atalar edi, keyinchalik bu nom butun qitʼa nomiga aylandi. Hozirgi Tyanshan deb ataladigan togʻlarning umumiy nomi boʻlmagan, har bir togʻ tizmasi oʻz nomi bilan Chotqol, Qurama, Koʻkshagʻal, Talas, Fargʻona va boshqa nomlar bilan atalar, faqat Tyanshanning markaziy qismi Tangritogʻ, Xontangri, deb atalar edi. Xitoylar Tangritogʻni oʻz tiliga tarjima qilib, Tyanshan deb atashgan. Keyinchalik bu nom butun togʻ tizimining umumlashma nomi boʻlib qolgan. Huddi shunday Yevropa, Afrika nomlari ham umumlashma nomdir.

7. Tarjima qilish yoʻli bilan ham shakllanib, yangi nomlar paydo boʻladi. Bunday nomlar bir joyda turli xalqlar yashaydigan hududlarda yoki bir geografik obyekt (xususan daryo, togʻ tizmalari) turli xalqlar hududlaridan oʻtadigan joylarda uchraydi. Bunday geografik nomlarga Qora dengiz - Чyомоуе more, Qorasuv - Сиуоруд, Qizilsuv - Surxob, Ilonoʻtti - Morguzar, Baliqchi - Рибаче, Movarounnahr - Daryo orasi, Qizil dengiz - Bahri muhit Ahmar - Красное море, Yangikent - Dehinov, Temir Darvoza - Железное ворота, Shaytonmakon - Чертово городище va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

**Toponimlarning paydo boʻlishi.** Geografik joy nomlari juda turli - tuman, baʼzi nomlar gʻaroyib, gʻalati. Ularning kelib chiqishi ham juda xilma - xil. Ularni turlarga ajratish ham juda murakkabdir. Koʻpincha til qoidalari nuqtai nazaridan turlarga ajratiladi. Yana shakllanish bosqichlariga, bunyodga kelishiga, nimalar bilan bogʻlanganligiga koʻra ham turlarga ajratiladi.

Quyidagi turlarga ajratish joy nomlarining kelib chiqishi, qanday hodisa va voqealarga bogʻlanganligiga qarab amalga oshirilgan. Geograflar uchun shunday yoʻl bilan turlarga ajratish maʼqulroq koʻrindi.

**1. Joyning geografik oʻrniga bogʻliq holda paydo boʻlgan nomlar.** Masalan: Nordkap (Shimoliy burun), Severnaya Zemlya (Shimoliy Yer), Xokkaydo (Shimoliy

orol), Janubi - sharqiy burun, Shimoliy dengiz, Sharqiy Xitoy dengizi, Rio - Grande del - Norte (Shimoliy katta daryo), Orqa Oloy, G'arbiy Dvina va boshqalar.

2. *Ayrim geografik nomlar o'sha joyning, geografik obyektning o'ziga xos xususiyatlaridan paydo bo'ladi.* Bunday nomlar orasida relyef shakllariga bog'liq nomlar ancha ko'p uchraydi. Qrimdagi Ayiqtog', Turkiyadagi Tavr (grekcha buqa) tog'i, Shimoliy Muz okeanidagi Shpisbergen (Nayzatog'), Dunay vodiysidagi Temir darvoza (dara nomi) shular jumlasidandir. Bizning o'lkamiz - O'rta Osiyoda bunday nomlar ko'p: Qumtepa, Egartosh, Belisiniq tizmasi, Odamtosh, Supatog', Beshiktog', Yo'g'ontepa, O'radaryo, To'rg'ay supasimon o'lkasi, Chuqursoy, Qo'yto'sh bularga misol bo'ladi.

Relyefdand boshqa xususiyatlarga ko'ra paydo bo'lgan nomlarga Qizil dengiz, Oq dengiz, O'lik dengiz, Sariq dengiz, Islandiya (Muz o'lkasi), Monblan (Oqtog'), Issiqko'l, Kungay Olatov, Terskay Olatov, Bog'ishamol, Qoraqum, Qoraqurum, Shamolli orollar, Shamolsiz orollar, Polineziya, Mikroneziya, Melaneziyani misol qilib ko'rsatish mumkin.

3. *Suv bilan bog'liq nomlar (gidronimlar).* Okean, dengiz, daryo, ko'l, muzlik, buloqlar nomlari gidronimlar deyiladi. Gidronimlar ham suvning xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Daryo, ko'l, buloq va quduqlar suvining rangi, sho'rligi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab har xil.

Yer osti suvlaridan, sizot suvlardan hosil bo'lgan daryolar Qorasuv, Qoradaryo deb, tog'lardagi qor va muzlardan suv oluvchi daryolar ko'pincha Oqdaryo deb, suvi tiniq, toza bo'lsa Ko'ksuv deb, loyqa suvli daryolar Sarisuv, Xuanxe (Sariq daryo) deb nom olgan. Tiniq va toza suvli ko'llar Oynako'l, Ko'kko'l, loyqa suvli bo'lsa Ayranko'l, sho'r bo'lsa Sho'rko'l, Achchiqko'l, Achchiko'l deb nomlanadi.

Farg'onadagi Tentaksoy, Surxondaryodagi Jinnidaryo bahorgi toshqin vaqtida jo'shqin bo'lib, o'zanini o'zgartirib, qirg'oqlarini buzib oqqanligi uchun shunday nom olgan. Buloq hamda quduqlar nomi ko'pincha suvning xususiyatlari - harorati, tozaligi, tarkibida qanday minerallar, tuzlar mavjudligiga qarab, er ostidan qanday tarzda chiqishiga qarab qo'yiladi. Masalan: Sho'rbuloq, Qo'tirbuloq (suv tarkibida olingugurt mavjud), Obirahmat (shifobaxsh, suvi shirin buloq), Issiqsuv, Obigarm, Arashon, Qaynarbuloq, Jimbuloq. Quduqlar ham huddi shunday xususiyatiga qarab Shirinquduq, Sho'rquduq, Chuqurquduq kabi nomlarga ega Yog'ingarchilik vaqtlarida suv oqib, ko'p vaqt qurib yotadigan kichik daryolar ko'pincha Quruqsoy deb ataladi.

4. *O'simliklarga bog'liq nomlar (fitonimlar).* O'simliklarga bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomlari mamlakatimizda ham, boshqa mamlakatlarda ham ko'p uchraydi. O'simliklar bilan bog'liq nomlar ba'zan aniq miqdorini bildiradi. O'rikzor, Bodomzor, Chilonzor, Terakzor, Qatortol nomlari o'sha joylarda shu tur o'simliklarning ko'p tarqalganligini bildirs, Yakkatut, Qo'shchinor, Qo'shtut kabi

nomlar bu tur o'simliklar kamligini bildiradi Yong'oq, Ko'kterak, Toldiqo'rg'on, Bukovina, Beryozovka, Archaqishloq kabi nomlarda noaniqlik bor. Shu joyda yong'oq bittami yoki ko'pmi, aniq emas. O'simliklar bilan bog'liq paydo bo'lgan nomlarga Yevropadagi Shvarsvald (qora o'rmon), Afrikadagi Drakon tog'lari (drakon - daraxt nomi), Amerikadagi Florida (o'simlik, ko'klamzor), Osiyodagi Kokos orollari nomlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. O'simliklar bilan bog'liq joy nomlari mikrotoponimlarda ayniqsa ko'p uchraydi. Toshkentdagi Olmazor, Sebzor, Qoraqamish, O'rikzor, Bodomzor, Olchazor, Olchali, Qoratal, Yettiterak, Bog'ko'cha, Chilonzor shular jumlasidandir.

**5. Hayvonlarning noni bilan bog'liq joy nomlari (zoonimlar).** Dunyo xaritasida hayvonlarga bog'liq holda vujudga kelgan nomlar ko'p uchraydi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan bunday nomlarni tahlil qilish bilan qadimda ayrim hayvonlar tarqalgan joylarni ham aniqlash mumkin. Amudaryo bo'yida Termiz yaqinidagi Maymunto'qay, Toshkent viloyatidagi G'azalkent (g'izol - kiyik), Bog'iston (aslida bug'iston so'zidan), So'qoq (oq kiyik), Ilonlisoy, Kaptarxona, Kurkuldak (qush), Toshkent shahridagi Bo'rijar, Qurbaqaobod va boshqalar mazkur joylarda qadimda shunday hayvonlar ko'p bo'lganidan dalolatdir.

Dunyoning boshqa joylarida ham bunday nomlar ko'p uchraydi. Masalan: Tinch okeandagi Galapagos orollari (galapago - toshbaqa), bu orollarda yirik toshbaqalar hozir ham mavjud. Baren dengizidagi Medvejy oroli, Shimoliy Amerikadagi Katta Ayiq, Kichik Ayiq ko'llari, Baykal ko'lidagi Tushkani (mahalliy aholi tilida tushkan deb ataydi), O'rta Osiyodagi Qoplonqir, Qoplonisirt nomlari hayvonlar bilan bog'liq.

**6. Foydali qazilmalarga bog'liq joy nomlari.** Juda ko'p joy nomlari kon bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Qirg'izistondagi Toshko'mir, Moylisuv shaharlari, O'zbekistondagi Kumushkon, Gazli, Tuzkon, Surmatosh, Turkmanistondagi Nebitdog', Gugurtdog', Uraldagi Magnitnaya tog'i, Magnitogorsk, Solikamsk, Kola yarimorolidagi Apatit shahri nomi foydali qazilmalar bilan bog'langan. Janubiy Amerikadagi And tog'lari (mis tog'lari), Argentina (Argentus - kumush), Turkiyadagi Marmara dengizi nomi ham foydali qazilmalar bilan bog'langan.

**7. Xalq, qabila, urug'lar nomlari bilan bog'liq toponimlar (etnonimlar).** Odatda xalq, urug', qabila nomlari ilmiy tilda etnonim deyiladi. Juda ko'p joy nomlari etnonimlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Etnonimlardan hosil bo'lgan joy nomlari **etnotoponimlar** deyiladi. Etnotoponimlarni o'rganib, tarixiy davrlarda qaysi xalqlar, urug'lar qayerlarda yashaganini, qayerlarga ko'chganligini aniqlash mumkin.

**Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish.** Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulardan geografiyada beriladigan ma'lumotlarni hududiy bog'lashda foydalaniladi. Geografiyada biror

hodisa yoki voqeani tushuntirmoqchi bo'linsa, albatta joy nomi bilan bog'lanadi. Geografik qonuniyatlarni geografik obyekt nomisiz tushuntirib bo'lmaydi.

Umuman, geografiyada joy yoki geografik obyekt nomi bog'lanmasdan bilim berish mumkin emas. Ikki joy tabiatini qiyoslash uchun ham joylar nomini bilish kerak. Umuman o'quvchilarning xaritaning bilishi, joy nomlarini qanchalik darajada bilishi bilan belgilanadi.

Biroq geografik nomlar, ayniqsa chet el geografik nomlari bolalarga tushunarsiz, ularni eslab qolish u yoqda tursin hatto talaffuz qilish ham juda qiyin. Bunday nomlarni o'quvchilar eslab qolishlari uchun ularning ma'nosini tushuntirib berish juda muhimdir. Chunki tushunarsiz so'zlarni eslab qolishdan ko'ra tushunarli so'zni, hatto so'z birikmasini eslab qolish osonroqdir.

Geografik nomlarni chuqur tushunishga mahalliy geografik terminlarni (atamalarni) o'rganish yordam beradi. Mahalliy geografik terminlarni tushunish o'quvchilarga atrof muhitni ongli bilib olishga yordam beradi. Bu esa o'z o'lkasiga, vatanga muhabbatni tarbiyalaydi.

Geografik nomlarni maktabda o'rganishda o'quvchilarning nomlarni to'g'ri yozishni va to'g'ri talaffuz qilishni bilib olishlariga erishish zarur. Bu talabning ahamiyati shundaki, geografik nomlarni to'g'ri yozish o'quvchilar savodxonligini muhim qismi hisoblanadi, nomlarni to'g'ri talaffuz qilish esa nutq madaniyatini o'stiradi.

Geografik nomlarning tarbiyaviy, ilmiy ahamiyati ham juda katta. Mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar uning xaritasida aks etib turadi. Mamlakatimiz O'zbekiston istiqolga erishgandan keyin uning xaritasida ham o'zgarishlar bo'ldi. Mustamlakalik davrida o'sha vaqtning siyosatini ifodalovchi geografik nomlar o'zgardi. Istiqolni, milliy qadriyatni ulug'lovchi geografik nomlar vujudga keldi. Mamlakatimiz tabiati, xalqimiz kasb - hunari, milliy an'analar, qadriyatlarimiz bilan bog'liq nomlar tiklandi. Istiqol, Mustaqillik maydoni, Amir Temur hiyoboni, Mirzo Ulug'bek tumani, Bobur bog'i, Alisher Navoiy bog'i, Mirobod, Muzrabot tumanlari shular jumlasidandir. Dunyoda ro'y beradigan siyosiy o'zgarishlar xaritada, binobarin, geografik nomlarda ham o'z aksini topadi.

Geografik nomlarda Yerni geografik o'rganish tarixi ham aks etadi. Yangi erlarni ochgan, o'rgangan ko'pchilik sayyohlar, dengizchilar, tadqiqotchilar nomlari geografik xaritalardan mustahkam o'rin olgan. Ko'pchilik geografik nomlar tabiiy sharoitni (yer yuzasi relyefini, o'simliklar va hayvonot dunyosini, tabiiy hodisa va voqealarni), aholining urf - odatlari, xo'jaligini aks ettiradi. Geografik nomlar asrlar davomida saqlanishini nazarda tutsak, ularni o'tgan zamon tabiati, ro'y bergan hodisa, voqealar, kishilarning tarixiy kasb - korligi, urf - odatlari, aholining migratsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

Geografik nomlarni o'rganish, o'qitishda predmetlararo aloqalarda ham qo'l keladi. Geografiya o'qitishda ona tili, chet el toponimlarini o'rganishda chet tillari bilan bog'lanish yaxshi natija beradi. Ayrim geografik nomlarning joylashishi va ma'nosi tarixiy voqealar bilan bog'langan. Bu esa geografiyaning tarix fani bilan aloqasini mustahkamlashga imkon beradi. Geografik nomlarning ma'nosini yaxshi bilish chet tillarini o'rganishga ham yordam beradi.

### **3. Toponimik rayonlashtirish. O'zbekistonning topimik rayonlari.**

Toponimik rayonlashtirish masalasi bilan E.M.Murzaev, Ye.M.Pospelov, S.Qoraev, M.Mamatkulov kabi olimlar shug'ullanishgan. Shuningdek, T.Enazarov «O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiq yo'llari» nomli doktorlik dissertatsiyasida respublikamizni toponimik hududlarga bo'lib o'rgangan. Ammo bu muammo barcha fanlardagi kabi toponimikada ham tugal tarzda o'z yechimini topmagan. Toponimik rayonlar esa tabiiy geografik yoki iqtisodiy geografik rayonlar kabi tabiatda aynan takrorlanmaydigan muayyan bir xududda joylashadi va alohida geografik nomga ega bo'ladi. Albatta toponimik rayonlarning bir-birlariga o'xshashlik jihatlari ham mavjud bo'lishi tabiiy, ammo ular o'zlarining asosiy muhim xususiyatlari bilan farqlanib turadi.

Shu tariqa toponimik rayonlashtirishning o'ziga xos tamoyillari shakllanadi. Ular quyidagilardan iborat:

**Xududiy jihatdan birlik tamoyili.** Bu tartibning asosini o'rganilayotgan xududning toponimik ko'rsatgichlariga ko'ra maydon jihatdan yaxlitligi tashkil etadi. Ushbu maydonlar bir-birlaridan farqlanuvchi xususiy belgilardan tashkil topganligi uchun yaxlit rayon tarzida aks etadi va xuddi shu ko'rsatgichi bilan boshqa xududlar buylab, aynan qaytarilmaydi.

**Tarixiy-genetik tamoyili.** Ma'lumki barcha xududlarda toponimlar bir xil rivojlanish tarixiga ega emas. Ayrim xududlar bo'ylab toponimlar qadimiyroq, ayrim joylarda esa ular birmuncha yangirok va genetik jihatdan turli millat suzlarini tashkil etuvchi o'zaklardan iborat bo'lishi bilan farqlanib tursa, ba'zan esa bir-birlariga turli ko'rsatgichlari bilan, masalan, juda o'xshashlik xususiyatlari bilan ajratiladi.

**Komplekslilik tamoyili.** Bu prinsipga rioya qilgan holda toponimik rayonlashtirish olib borilar ekan, atamalarning ayrim yetakchi, ya'ni ko'p uchrovchi turlari (masalan etnonim, gidronim yoki oronimlar) emas, balki barcha turlar bo'yicha hosil bo'lgan toponimlar birgalikda olib tahlil etiladi va ma'lum xududlar bo'yicha guruhlariga ajratiladi.

**Nisbiy bir xillik tamoyili.** Toponimlar ma'lum xududlarda bir-birlaridan aynan farq qiladigan ko'pgina guruxlarga ajralib ketadi. Nisbiy bir xillik tartibini qo'llab

toponimik rayonlashtirishda ana shu guruxlarning o'xshashlik xususiyatlariga qarab xududlar yaxlitlashtiriladi, tafovutlariga qarab esa qismlarga ajratiladi.

### ***O'zbekistonning toponimik rayonlari***

Respublikamiz xududini maxsus tamoyil va usullar asosida quyidagi toponimik rayonlarga ajratiladi<sup>8</sup>. Toshkent-Mirzacho'l, Zarafshon, Qizilqum, Quyi Amudaryo, Ustyurt, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo toponimik rayonlari shular jumlasidandir.

***Toshkent-Mirzacho'l toponimik rayoni.*** Bu toponimik rayon Sirdaryoning o'rta oqimi Chirchiq hamda Ohangaron vodiylarida joylashgan bo'lib, Toshkent-Mirzacho'l botig'ini o'z ichiga oladi. U janub tomondan Nurota, Molguzar va Turkiston tizmalari bilan, Sharqdan Mo'g'ultog', Qurama tog'lari bilan, shimoli-sharqdan Chotqol, Korjantog' tizmalari bilan o'ralgan. Demak, ushbu toponimik rayon relef xususiyatlariga ko'ra birmuncha murakkab, shimoli-sharqiy hamda janubi-g'arbiy, janubiy-sharqiy taraflarini tog'lar qurshab olgan holda, shimoli-g'arbiy qismlarini esa asosan tekisliklar tashkil etadi.

Hududning reliefi bilan bog'liq holda tog'lik va tog' oldi qismlarida turkiy o'zakli qadimgi toponimlar birmuncha zich joylashgan bo'lsa, cho'l qismida turkiy o'zakli toponimlar gegemonlik qiluvchi zamonaviy toponimlar tarkib topgandir. Toshkent Mirzacho'l toponimik rayonida «kent» qo'shimchali atamalar areali keng tarqalgandir. Tekislik qismida kanallar nomi bilan bog'liq toponimlarning zich joylashganligi bilan boshqa toponimik rayonlardan ajralib turadi. Bu hududni XI asrda kesib o'tgan xitoy sayyohi «O'simlik o'smaydigan hudud», - deya atagan edi.

***Qizilqum toponimik rayoni.*** O'rta Osiyoning eng yirik cho'llaridan biri bo'lgan Qizilqumni o'z ichiga oluvchi, ushbu toponimik rayon Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. Uning yirik qismi O'zbekiston hududi tarkibiga kiradi. Qizilqum toponimik rayoni shimoli-g'arbda Quyi Amudaryo toponimik rayoni, janubi-sharqda Zarafshon toponimik rayoni, sharqda esa Toshkent-Mirzacho'l toponimik rayonlari bilan chegaralanadi. Ushbu toponimik rayonning relef tuzilishi garchand asosan tekisliklardan tashkil topgan bo'lsada, yirik botiqlar, markaziy qismida esa qoldiq tog'lar uchraydi. Iqlimi o'ta quruq va keskin o'zgaruvchan, muttasil oqar suvlar tarmog'i kuzatilmayligi, yer osti suvlari birmuncha chuqurda yotadi va aksariyat hollarda sho'r bo'lganligi tufayli inson yashashi uchun noqulay sharoit vujudga kelgan.

Qizilqum toponimik rayonida gidronimlarning ko'llar, buloqlar, daryo, irmoqlar bilan bog'liq holda tarqalgan turlari o'ta siyrak, balki uchramaydigan geografik atamalardir. Aksincha 100 ga yaqin gidronimlar «Quduq» qo'shimchali (Ko'lquduq, Uchquduq, Yuzunquduq, Uzunquduq) hamda 20 dan ortiq «tog'» qo'shimchali

<sup>8</sup> Nizomov A., Raximova G., Rasulova N. Toponimika. O'quv qo'llanma. Toshkent., "Sharq" nashriyoti. 2013.

oronimlar arealining mavjudligi kuzatiladi. Misol: Bo'kantog', Tomditog', Yetimtog', Quljuqtog', Ouminzatog' va hokazolar. Umuman olganda ushbu toponimik rayonda turkiy o'zakdan tashkil topgan toponimlar gegemonlik kiladi.

**Zarafshon toponimik rayoni.** Bu toponimik rayon Zarafshon vodiysining o'rt va quyi qismlarini qamrab oladi. Shu boisdan uning g'arbiy hududlari ochiq va tekisliklardan iborat, janubiy qismi esa Qirqtog', Chaqilkalon, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, shimol tomondan Chumqartog', Gubdintog', Qaroqchitog', Oqtog' va Qoratog' kabi tizmalar bilan o'ralgan. Shu boisdan bu toponimik rayonda Zarafshon daryosining har ikkala tomonidan ushbu tog'lar yonbag'ri bo'ylab 120 dan ortiq soylar oqib tushadi va shuncha mikdordagi turkiy o'zakli gidronimlarni hosil qiladi.

**Qashqadaryo toponimik rayoni.** Ushbu toponimik rayon Qashqadaryo vodiysini o'z ichiga qamrab oladi. Sharq va janubiy sharqda Hisor tog'lari, shimoli-sharqda esa Zarafshon tog'lari, g'arb va shimoliy g'arbda esa Qizilqum kengliklariga tutashib ketadi. Rayonning janubiy-sharqiy qismlari bo'ylab tog'lar bilan bog'liq, shimoliy g'arbiy qismlarida cho'llar bilan bog'liq oronimlar, markaziy qismida esa aralash tarzda aholi-punktlarini anglatuvchi toponimik atamalar keng tarqalgan. Bu rayon etnotoponimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Gidronimlarning barcha ko'rinishlari faol ishtirok etadi. Janubi-sharqda buloq, daryo, soy, ko'llar, shimoli-g'arbda esa, gidrotexnik inshootlar - quduq, sardoba, kanal va hokazolar nomi bilan bog'liq gidronimlar guruxining zichligini ko'ramiz.

**Surxondaryo toponimik rayoni.** Ushbu rayon Surxondaryo havzasini o'z ichiga qamrab oladi. U respublikamizning eng janubiy qismida joylashgan bo'lib, Sharqda Bobotog', Shimolda Bosh Hisor tizmasi, Shimoliy-g'arbda Boysun va Ko'xitang tizmalari, janubda Surxon-Sherobod cho'llari bilan o'rab olingan. Nihoyatda murakkab cho'l, adir, tog', baland tog'ga mansub relef formalari mavjud.

**Quyi Amudaryo toponimik rayoni.** O'z ichiga Xorazm vohasi va Orol bo'yining sharqiy xududlarini qamrab oladi. Relefi asosan tekisliklardan iborat. Bu toponimik rayonning bir qator xususiyatlari diqqatga sazovor:

- ob, Yop, Arna qo'shimchali gidronimlar arealining keng tarqalganligini ko'ramiz;

- oroaykonimlar turkumi «qal'a» qo'shimchali arealining shakllanganligi xususiyatlidir. Masalan: Burgutqal'a, Gandumqal'a, Shoxsanamqal'a, Ellikqal'a, va.h;

- bu rayonda stratigrafik qatlamning eng qadimgi davrlarini aks ettiruvchi qadimgi eroniy o'zakdagi toponimlar, hamda - etimologik holati noma'lum bo'lgan (Xorazm, Xiva, Urganch kabi) geografik atamalarning mavjudligi xususiyatlidir;

- ushbu rayonning shimoliy hamda janubiy xududlari bo'ylab oronimlar cho'l relefiga xos tarzda shakllangan.

**Ustyurt toponimik rayoni.** Ustyurt toponimik rayoni respublikamizning eng shimoliy-g'arbiy xududini qamrab olgan bo'lib, g'arbda Qozog'iston, janubda Turkmaniston davlat chegaralari, sharqda esa Quyi Amudaryo toponimik rayoni va Orol dengizi qirg'oqlari bilan chegaralanadi. Asosan tekisliklar, botiqlar, qirlardan tashkil topgan, yer yuzasida oqar suv tarmoqlari uchramaydi. Ushbu rayon quyidagi toponimik xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- barcha turdagi toponimik atamalar o'ta siyrak tarqalgan. Bu holat joyning inson faoliyati uchun juda noqulay bo'lgan tabiiy-geografik sharoitning mavjudligi bilan izohlanadi.

- mavjud toponimik atamalar botiqlar, balandliklar tarzidagi oronimlarni tashkil etadi.

- gidronimlarning barcha ko'rinishdagi turlari kam kuzatilsada, ayrim gidroteknik inshootlar (quduq) tarzidagi toponimlarning uchrashi nisbatan faolroqdir.

**Farg'ona toponimik rayoni.** Farg'ona toponimik rayoni O'zbekistonning eng sharqida, Tyanshan va Oloy tog' tizmalari orasidagi Farg'ona botig'ini o'z ichiga qamrab oladi. Farg'ona toponimik rayoni tabiiy-geografik sharoitining qulayligi tufayli bu yerda eng qadimgi davrlardanoq aholi o'troqlasha boshlagan. Natijada stratigrafik qatlam yaxshi rivojlangan. Shunday bo'lsada so'g'diy, forsiy o'zkdagi toponimlar rayonning janubi-g'arbiy (So'x, Rishton ma'muriy rayonlari), shimoli-g'arbiy (Kosonsoy, Chust ma'muriy rayonlari) qismlarida zich joylashganligini ko'ramiz. Qolgan xududlar bo'ylab asosan turkiy o'zkdagi toponimlar tarqalgan. Ushbu toponimik rayonning o'ziga xos xususiyati aholining maydonga nisbatan eng zich joylashgan xududi bo'lganligi uchun oykonimlar sanoq jihatdan yetakchilik qiladi.

### Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Toponimlar qanday ma'noni bildiradi?

- A) Yunoncha *topos* - joy va *onoma* - ism, nom so'zlaridan tashkil topgan.
- B) Yunoncha *topos* - joy va *onomas* - makon so'zlaridan tashkil topgan.
- C) Lotincha *topos* - uy va *onima* - hudud, joy so'zlaridan tashkil topgan.
- D) Forscha *topon* - atalish, nomlanish va *onoma* - rayon, region so'zlaridan tashkil topgan.

2. Etnonimlar - bu?

- A) Foydali qazilmalarga bog'liq joy nomlari
- B) Xalq, qabila, urug'lar nomlari bilan bog'liq toponimlar
- C) O'simliklarga bog'liq nomlar
- D) Suv bilan bog'liq nomlar

3. O'zbekiston Respublikasi nechta toponimik rayonga bo'lib o'rganiladi?

- A) 5 ta
- B) 10 ta
- C) 8 ta
- D) 11 ta

4. Qaysi olim o'z asarlarida Yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venetsiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiyev nomlari mavjud ekanligini ta'kidlaydi?

- A) E.M. Murzayev
- B) H.H. Hasanov**
- C) S. Qorayev
- D) Z. Do'simov

#### **Nazorat savollari:**

1. Toponim va toponimika tushunchalariga ta'rif bering?
2. Toponimik rayonlashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday usullar yordamida toponimik rayonlashtirish amalga oshiriladi?
4. Respublikamiz xududida nechta toponimik rayon mavjud?
5. Toshkent-Mirzacho'l toponimik rayoni qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
2. Ahmadaliev Yu. Toponimika va geografik terminshunoslik. O'quv qo'llanma. Farg'ona-2018.
3. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1977.
4. Enazarov T., Nazarov K. Joy nomlarini yig'ish so'roqligi. T., 1995, 32 b.
5. G'ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent-2005.
6. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1994.
7. Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. T., "Fan", 1962.
8. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi". 1988.
9. Nizomov A., Raximova G., Rasulova N. Toponimika. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Sharq" nashriyoti. 2013.
10. Qorayev S. Toshkent toponimlari. T., "Fan", 1991.

#### **Internet saytlari:**

11. <http://www.ziynet.uz>
12. <http://www.pedagog.uz>
13. <http://www.geografiya.uz>

## 9.GEOGRAFIYA TA'LIMIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHARLLANTIRISH. ATROF-MUHIT MONITORINGI VA GEOGRAFIK PROGNOZI.

Reja:

1. **Atrof – muhit monitoringi haqida tushuncha.**
2. **Atrof – muhit monitoringining turlari. Ekologik monitoringning barqaror taraqqiyotga ta'siri.**
3. **O'zbekistonda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish.**

XX asming ikkinchi yarmidan boshlab fan-texnika inqilobi natijasida jamiyatning tabiatga ta'siri kuchayib ketdi. Oqibatda sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqq boshladi. Bu esa atrof-muhit holatini doimiy kuzatib borish tizimini tashkil qilishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan fanda yangi, monitoring (lotincha "monitor" — esga soladigan, ogohlantiradigan) tushunchasi paydo bo'ldi.

**Monitoring** - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ma'lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimidir.

Monitoringning asosiy maqsadi tabiiy muhitning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishini kuzatish, olingan ma'lumotlar asosida baholash va tegishli boshqaruv apparatini ishga solishdir. Monitoring asosida atmosfera havosi, suv havzalari, yer osti suvlari, tuproq, o'simlik qoplamining turli chiqindilar, zaharli kimyoviy moddalar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanishi kuzatiladi. Kuzatish ishlari insonning ma'lum ekologik sharoitda yashashining buzilishiga qaratiladi. Atrof-muhitning o'zgarish darajasi hali ifloslanmagan tabiiy sharoit holatiga nisbatan olinadi.

**Atrof muhit monitoringi.** Atrof muhit sifatini boshqarish uchun maxsus kuzatishlar tizimini tashkil etish zaruriyati monitoring g'oyasini shakllantirishga olib keldi.

"Monitoring" atamasi lotincha olingan. monitor - kuzatuvchi, ogohlantirish (bu suzib yuruvchi kema dagi izdosh dengizchining nomi edi). Insonni o'rab turgan tabiiy muhitni global monitoring qilish g'oyasi va "monitoring" atamasining o'zi 1971 yilda BMTning atrof-muhit bo'yicha Stokgolm konferentsiyasiga tayyorgarlik bilan bog'liq holda paydo bo'lgan (1972). Bunday tizimni rivojlantirish bo'yicha dastlabki takliflarni Atrof-muhit bo'yicha ilmiy qo'mita ilgari surdi. Professor R. Mann 1973 yilda 1979 yil fevral oyida Monitoring bo'yicha birinchi hukumatlararo yig'ilishda (Nayrobi) muhokama qilingan monitoring kontseptsiyasini sahnalashtirdi. R.Mann monitoringni ilgari tayyorlangan dasturga muvofiq ma'lum bir maqsadlar bilan kosmosda va o'z vaqtida tabiiy muhitning bir yoki bir nechta elementlarini takroriy kuzatuvlar tizimi deb atashni taklif qildi.

Tabiiy muhit holatini nazorat qilish atrof muhit holatining monitoringi va uning sifat ko'rsatkichlarini (tavsiflanni) geografik, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini hisobga olgan holda tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Monitoring tizimini tashkil etishda bu jihatlarining barchasi albatta e'tiborga olinishi shart emas, ammo atrof muhit holatini nazorat qilishda atrof muhit ifloslanishi va muhofazasi muammolarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini e'tiborga olish zarur bo'ladi.

Monitoringning antropogen ta'simining kimyoviy, fizikaviy va biologik manbalarni hamda omillarni, shuningdek, bu omillar tufayli tabiiy muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlar samarasini kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda biologik sistemalarning ta'sirlanishini kuzatish lozim.

Bunday hollarda odatda kimyoviy, fizik va biologik ko'rsatkichlar kuzatib boriladi (Izrael, 1979).

#### ***Atrof muhit monitoringi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:***

- atrof muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni va muhit holatini kuzatish;
- atrof tabiiy muhitning haqiqiy holatini baholash;
- atrof tabiiy muhit holatining bashorati va bu holatning bahosi;

Shunday qilib, *monitoring – atrof muhit holatini kuzatish, baholash va bashoratlash tizimidir.*

Monitoring tizimi quyidagi belgilarga qarab tavsiflanadi:

- monitoring olib borilayotgan hudud yoki akvatoriyaning maydoniga ko'ra;
- kuzatish (atmosfera, okean, tuproq va b.) obyektiga ko'ra;
- metodlariga (bevosita asboblardan bilan o'lchash, masofaviy tasvir, bevosita indikatsiya va b.) ko'ra;
- kuzatish olib borilayotgan samara va jarayon nisbatining darajasiga ko'ra;
- ta'sir turlariga (geofizikaviy, biologik, tabiiy-geografik, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy) ko'ra;
- maqsadlariga (muhitning hozirgi holatini aniqlash, atrof muhit tendensiyalarini ochib berish, hodisalarni tadqiq qilish, modellarni baholash va bir o'lchamga keltirish, qisqa muddatli bashorat, uzoq muddatli xulosalar, tadqiqotlar va bashoratlarning iqtisodiy samaradorligini optimallashtirish va oshirish, muhitga bo'ladigan ta'sirlarni nazorat qilib borish).

## ***2. Atrof – muhit monitoringining turlari. Ekologik monitoringning barqaror taraqqiyotga ta'siri.***

Akademik I.P. Gerasimov tomonidan monitoring tashkil qilishning bioekologik, geokologik va biosfera bosqichlari ajratilgan.

*Bioekologik monitoring* bosqichi yoki pog'onasida atrof-muhitning ifloslanishi uning inson salomatligiga ta'siri nuqtayi nazaridan kuzatiladi. Mazkur pog'onada odamlarning kasallanishi, o'lim, tug'ilish, uzoq umr ko'rish va boshqa ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar insonning atrof-muhit o'zgarishiga aks ta'siri hisoblanadi. Ushbu bosqichda monitoring kuzatish shoxobchalari va sanitariya-gigiyena xizmati ma'lumotlariga tayanib, ish ko'riladi. Bioekologik monitoring inson salomatligi uchun zararli bo'lgan chiqindi va moddalar bo'yicha kuzatishni tashkil qiladi.

Bioekologik monitoringda insonning bioekologik mavjudot sifatida atrof muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga nisbatan xastalanish, o'lim - tug'ilish, umring qisqarishi, mehnat qobiliyatini saqlanishi va boshqa xil ta'sirlanishlarida namoyon bo'ladigan ko'rsatkichlar nazorat qilinadi. Bioekologik monitoring sanitariya nazoratlariga asoslanadi va uning uchun tibbiy geografiya bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Bioekologik monitoringda, shuningdek, inson salomatligi va hayotiy faoliyatiga zararli ta'sir ko'rsatayotgan chiqindilar va kimyoviy moddalar - mineral o'g'itlar, pestitsidlar, turli gazlar ( $O_2, SO_2, CO, CO_2$ ), og'ir metallar, nitratlar, turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradigan organizmlar, radiatsion ifloslanishning REM ko'rsatkichlaridan oshmasligi nazorat qilinadi.

*Geoekologik (geotizimli) monitoring* bosqichi yoki pog'onasida asosan tabiiy-hududiy, tabiiy-texnogen va demografik (aholi) geotizimlari kuzatiladi va nazorat qilinadi. Mazkur bosqich (pog'ona) uchun tabiatni ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdori va tabiiy komplekslarning (geotizimlarning) o'z-o'zini tozalash qobiliyati haqidagi ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Kuzatishlar geografik stantsionarlarda, maxsus zonal yoki mintaqaviy poligonlarda olib boriladi.

Geotizimli monitoringni amalga oshirishda hududda havo, suv, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ifloslantiruvchi manbalar bo'yicha kuzatish tashkil qilinadi. Bu borada geotizimning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinmogi lozim. Cho'llarda kemiruvchilar turli xatarli kasalliklarni tarqatuvchi manba hisoblanadi. Buning oqibatida ma'lum vaqt mobaynida katta hududda yuqumli kasallik o'chog'i yuzaga keladi. Shuni hisobga olib, cho'l geotizimida muntazam ravishda monitoring ishlarini olib borish lozim bo'ladi.

Geoekologik monitoringda geosistemalarda modda va energiya almashinuvi, ularning mahsuldorligi, inson ta'siriga chidamliligi, ifloslanishning REM va o'z-o'zini tozalash imkoniyatlarining ko'rsatkichlari nazorat qilinadi. Bu xildagi monitoringni tashkil etishda geosistemalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Geoekologik monitoring geografik stantsionarlarda (nazorat stantsiyalarida) va test poligonlarida (uchastkalarida) o'tkaziladi. Nazoratgohlarda olib borilayotgan

kuzatishlar muayyan geosistemalar lanshaft komponentlariga va inson salomatligiga bevosita yoki ishlab chiqarish faoliyati jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar hamda ifloslantiruvchi manbalar nazorat qilinadi. Geologik monitoring hududiy (regional) sajiyaga ega bo'lib, quruqlik yoki akvatoriyada tanlangan nazoratgoharda o'tkaziladi.

*Biosfera monitoringi* bosqichining asosiy vazifasi atrof-muhitni dunyo miqyosida kuzatishdan iborat. Bunda atmosferaning changla nishiga, Dunyo okeanining ifloslanishiga va boshqa ko'rsatkichlarga ko'proq e'tibor beriladi.

Kuzatishning asosiy maqsadi dunyo miqyosida bo'ladigan o'zgarishlarning aholi salomatligi va faoliyatiga ta'sirini baholashdir. Kuzatishlar biosfera poligonlari tizimida olib boriladi. Biosfera poligonlari tizimiga qo'riqxonalar va aholining xo'jalik faoliyati zonalar kiradi.

Atmosferani kuzatishda asosiy e'tibor chang miqdorining ortib ketishiga, "issiqxona samarasi" ning vujudga kelishiga, qutbiy mintaqalarda ozon qatlamining yupqalanishiga qaratiladi. Hozirgi vaqtda monitoring xillari (tiplari) va turlarini ajratish bo'yicha xilma - xil yondashuvlar mavjud bo'lsada, monitoring tizimning tasniflash tamoyillari turlima-turlidir.

Biosferaviy monitoringning asosiy vazifasi insonning mavjudligi va hayotiy faoliyati uchun biosferada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ekologik jihatdan baholash va bu o'zgarishlarning sabablarini aniqlash maqsadida kuzatishlar olib borishdan iborat. Bunday kuzatishlar barcha biosfera jarayonlarining energetik asosi bo'lgan Quyosh radiatsiyasining geofizikaviy tavsiflarini o'rganishdan boshlanadi.

Geofizikaviy tavsif azon qatlamining holati, radiatsiya oqimlarininig atmosfera oqimlari orqali o'tishi, atmosfera gaz tarkibining o'zgarishi va uning oqibatlari, inson faoliyati tufayli vujudga keladigan issiqlik va uning biosfera energetikasiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tuproqlar va Dunyo okeani suvlarining mahsuldorligi, biosferaning umumiy fotosintez faoliyati, geografik qobiqda modda va energiyaning aylanishi, inson faoliyatining tabiiy muhit va uning komponentlariga ta'siri, atrof muhitning ifloslanishi va boshqa umumzaminij jarayonlarning sodir bo'lishi va kechishini kuzatish va nazorat qilish ham biosfera monitoringining vazifalarini tashkil etadi. Biosferaviy monitoring kuzatishlari sayyoramizning deyarli barcha geografik mintaqalarida, inson ta'siri eng kam bo'lgan geosistemalarda olib boriladi.

Shuningdek, biosferaviy monitoring Yeming sun'iy yo'ldoshlari yordamida bajariladigan masofali kuzatishlariga, axborotlarni avtomatlashtirilgan ishloviga asoslanadi. Shunday qilib, atrof muhit monitoringining har bir turi muayyan jarayonlar va sistemalarning holatini kuzatish, nazorat qilish, baholash va bashoratlash imkonini beradi.

Hududiy qamrovi miqyosiga ko'ra monitoring tizimlari global, xalqaro va milliy monitoringga ajratiladi.

Ifloslanish ta'sirlari darajasiga ko'ra tayanch (fond), hududiy (regional) va impakt (lokal), mahalliy monitoringga ajratish qabul qilingan.

Biosfera komponentlariga ko'ra monitoringning turli muhitlari atmosfera, gidrosfera, litosfera va boshqa turlari ajratiladi.

Ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ko'ra ifloslovchi moddalar va agentlarning (lot. *agens (agentis)*) biror bir sabab yoki hodisani keltirib chqaruvchi, jumladan elektromagnit nurlanishi, issiqlik ifloslanishi, shovqin, zaharli moddalar va boshqalarni nazorat qilib borayotgan ingredient (lot. *ingrediens* kiruvchi) monitoring ajratiladi.

Ifloslanish manbalari monitoring ifloslanish manbalarining turli xillarini kuzatib boradi (nuqtasimon stasionarlar - sanoat korxonalari, chorvachilik fermalari va b.);

Nuqtasimon harakatlanuvchi – transport; chiziqsimon yoki maydonli – hokozalar; dalalardan chiqadigan oqim, o'g'itlarning sepilishi va ularning yuvilishi va b).

Kuzatish uslublariga ko'ra monitoring turlicha tavsiflanadi. Yerning sun'iy yoldoshlari (sputnik) monitoringida masofaviy metodlardan foydalaniladi va bu monitoring kosmik apparatlar yordamida Yer yuzasida va atmosferada sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

**Geofizikaviy monitoringga** atmosferani ifloslanishi, muhitning meteorologik va hidrologik tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlarni interpretatsiya (lot. *interpretation* vositachi) qilish va kuzatish kiradi. Bunday monitoringda biosferaning jonsiz komponentlari, konstruksiyalar (lot. *konstructio* tuzilish, qismlarning o'zaro joylashuvi; inshoot) va binolar kiradi.

**Iqlim monitoringi** iqlim tizimlarinig (atmosfera - okean - quruqlik yuzasi – kriosfera (yun. *krios* sovuq, muz) - biota) holatining monitoringi kiradi. Bu monitoringning asosiy maqsadi - iqlimning ehtimoliy o'zgarishlarini baholashdir. Bunday holda biotaning holati yuza albedosining (lot. *albus* yorqin, ravshan) o'zgarishlarini aniqlash uchun zarur bo'ladi.

**Biologik monitoring** - tabiataning holatini, uning antropogen omillarga ta'sirlanishini (reaktsiyasini), biota holatining funktsiyasini va bu funktsiyalarning turli darajalarda meyoriy tabiiy holatlardan og'ishini aniqlaydi (bu yerda molekulyar, xujayraviy organizmlar, populyatsiyalar, turkumlar darajalari nazarda tutiladi). Bu xildagi monitoringning kichik tizimini sanitariya- gigiyena monitoringi (atrof muhit ta'siri ostida inson salomatligining holatini aniqlash) va genetik monitoring (turli populyatsiyalarda irsiy belgilarning ehtimoliy o'zgarishlarini kuzatish) tashkil etadi.

**Ekologik monitoring** deb biosferani tashkil etuvchi abiotik komponentlar holatini va ekosistemalarda ifloslanish, yerlardan qishloq xo'jaligida foydalanish, urbanizatsiya va boshqalarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan antropogen o'zgarishlarni aniqlash tushuniladi (Izrael, 1974). Monitoringning bu tipi majmualari sajiyaga ega bo'lib, sistemali yondashuv bilan bog'liq va shu sababli biosfera qo'riqxonalarda kuzatishlarni rejalashtirishda asosiy tip hisoblanadi. Monitoringning bu tipini ham bioekologik biosistemali va biosferaviy turlarga ajratiladi.

Monitoring turlari orasida o'ziga xos muammolarni hal etishda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ekstren (lot. *ekstra* tashqari, favqulodda, zudlik bilan) monitoring muhim ahamiyatga ega. Bunday monitoringlar atmosferada SO<sub>2</sub> miqdorining oshishi, ozon qatlamidagi o'zgarishlar, neft tashuvchi kemalar halokatining oqibatlarini kuzatishda muhim ahamiyatga ega.

V.A.Kovda va A.S.Kerjentsev monitoring tizimini daraja va bo'limlarga ajratishgan. Ekologik monitoring axborotlarni umumlashtirish miqyoslariga ko'ra global, hududiy (regional) va lokal (mahalliy) monitoringga ajratishadi. Ekologik monitoringning bioekologik, geokimyoviy va geofizikaviy bo'limlari parametrlarining o'ziga xos xususiyatlari, kuzatish va baholash metodlariga ko'ra ajratiladi.

Y.A.Izraelning (1979) fikricha, ekologik monitoring biosferaviy monitoringning kichik tizimini tashkil etadi va biosferani tashkil etuvchi abiotik komponentlarning antropogen o'zgarishlarini, ekosistemalarning bu o'zgarishlarga ta'sirlanishini va ekosistemalardan antropogen sistemalarni kuzatish, baholash va bashoratlashni o'z ichiga oladi. Ekologik monitoringda uning biologik va fizikaviy jihatlari ajratiladi. Umuman ekologik monitoring biosfera holatini juda keng global miqyoslarida baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Geografik nuqtai nazardan atrof-muhit monitoringi – tabiatdan foydalanishni optimallashtirish va atrof muhitni muhofaza qilish uchun tabiiy muhitning antropagen ta'siri ostida o'zgarishlarini uning tabiiy dinamikasini hisobga olgan holda kuzatish, baholash, bashoratlash tizimidir. Atrof muhit monitoringini tashkil etish turli tabiiy sharoitlarda (geosistemalarda) modda va energiya o'zgarishi jarayonlari to'g'risidagi bilimlarga tayanmog'i lozim.

Atrof muhit monitoringining masofaviy uslublarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Monitoring ko'p axbarotli tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi tabiiy muhitning inson ta'sirida o'zgarishini kuzatish, bashoratlashtirish va olingan ma'lumotlar asosida baholashdan iborat.

**Bu maqsadni amalga oshirish A.Rafiqov (2000) fikricha quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:**

1. Tabiiy muhitning inson ta'sirida o'zgarishini keng miqyosda kuzatishni tashkil qilish.

2. Ta'sir manbalarini aniqlash hamda o'zgarishning sabablarini belgilash.

3. Kuzatilayotgan o'zgarishlarni baholash, ta'siming samaradorligini aniqlash.

4. Atrof muhit o'zgarishini bashoratini ishlab chiqish hamda o'zgarish yo'nalishini belgilash.

5. Tabiatda vujudga kelgan xatarli o'zgarishlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Atrof muhit monitoringi asosida inson va boshqa tirik mavjudotlar uchun muhim bo'lgan havo, suv va tuproqning turli chiqindilar, zararli kimyoviy moddalar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanish holati, sifatining buzilishi va asosiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi kuzatiladi. Kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar *ruxsat etiladigan miqdor* (REM - PDK) ko'rsatkichlari bilan qiyoslanadi va o'zgarishlar baholanadi.

O'zgarishlarning yo'nalishlari bashoratlashtiriladi. Atrof muhitning holati va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ularning manbalari va omillari to'g'risida boshqaruv organlariga ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar boshqaruv organlari tomonidan atrof muhitda sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarning oqibatlarini bartaraf qilishiga muljallangan chora-tadbirlarga asos bo'lib xizmat qiladi. Atrof muhit monitoringida masofaviy, ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash, tahliliy ekspress va boshqa tadqiqot usullari qo'llaniladi. Monitoringni tashkil etishda turli xil vazifalarni hal etish lozim bo'ladi.

Bundan roppa-rosa 10 yildan so'ng dunyo manzarasi qanday bo'lishi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Insoniyatning hayot kechirish tarzi qay tarzda o'zgarishi mumkinligi haqida-chi? Hozirgi an'alarimiz qay darajada o'zgarishi mumkin deb hisoblaysiz?

Shunisi ma'lumki, yer sharining ekologik vaziyati o'tgan asrga nisbatan misli ko'rilmagan darajada o'zgarishga ulgirishi bilan bir qatorda avlodlarning chinakamiga qarg'ishiga sabab bo'luvchi muammolarni ham vujudga keltirdi. Garchi ushbu hodisalar dunyo hamjamiyatini global ekologik muammolar to'g'risida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish, tadqiqotlar olib borish va bu muammolarni bartaraf etish borasida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga undab kelayotgan bo'lsa hamki, ko'pchilik mamlakatlar va millatlar bu muammolarning ko'lamini shabadasini seza olishmayapti yoxud ular o'zlarini mutlaqo xabarsizdek tutishmoqda.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan va yuz berib bo'lgan muammolarga yechim topish, ularni oqilona hal qilish kabi masalalarga qay darajada ahamiyat berib

kelinmoqda? Bu mavzuda shunchaki reja va konsepsiyalar ishlab chiqilib, konferensiya mavzusi sifatida qarab kelinmoqdam? Afsuski, shunday!

***Global ekologik o'zgarishlarning salbiy oqibatlari nimalarda aks etadi? Muammolarning ildizi qayerda?***

Global ekologik o'zgarishlarning salbiy oqibatlari nimalarda aks etadi? Mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronlikka intilib, ulkan obro' qozonish maqsadida mamlakat ishlab chiqarishiga alohida urg'u berib kelayotganligi global ekologik inqirozni keltirib chiqarmayaptimikan? Yoki bu muammolarga biz insonlarning yashash tarzimiz sabab bo'la oladimi?

O'tgan asrga nisbatan insoniyat yashash tarzi shunchalik darajada o'zgardiki, insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli ko'rilmagan darajada kamayib borishiyu, yer yuzining turli mintaqalarida qurg'oqchilik, suv toshqinlari kabi bir qator salbiy holatlar ham yuz berayotganligi barchamizga birdek ayondir. Bir so'z bilan aytganda insonning tabiatga aralashuvi aqlga sig'maydigan darajaga yetishga ulgurdi.

Xo'sh, bizda muammolar bor, lekin ularga yechimlar-chi? Nahotki hozirgi dunyoning global ekologik holati hech kimni zarrachalik qiziqtirmasa? Biz o'zimidan keyingi avlodga qanday kelajakni meros qilib qoldirmoqdamiz? Har safar bunday og'riqli savollar bizni qachongacha qiynab keladi? Nahotki dunyoning hozirgi qiyofasi kundan kunga bundan-da yomonlashib boraveradiyu, biz insonlar shunchaki bir oddiy hodisadek qarab turaveramiz? Mamlakat rahbarlariniyu, hukumat vakillarini, butun insoniyatni boylik orttirish, iqtisodiy o'sish, siyosiy hukmronlik, mamlakatlar o'rtasida ulkan obro'ga ega bo'lishdan boshqa hech narsa qiziqtirmasa?! Ha, albatta biz bunga ko'nikib, yashab kelmoqdamiz!

"Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz tugashini bilmaydi, 2030 yilga kelib suvga bo'lgan talab va mavjud bo'lgan suv ta'minoti o'rtasida 40 % tafovut bo'ladi. Suv muammosini hal qilish uchun bizda bor-yo'g'i 15 yil bor xolos", deydi Jahon iqtisodiy forumining yosh global yetakchisi Mina Guli. Ta'kidlash joizki, 750 mutaxassisdan tarkib topgan jamoa tomonidan o'tkazilgan so'rovda toza ichimlik suvining tugab borishi butun dunyo aholisi uchun chinakamiga global xavf deb baholandi. Aslida, ichimlik suvi muammosi dunyo aholisini qiynab kelayotgan muammolarning eng oldi qatoridan o'rin olib ulgurgan. Foydalanish uchun suv yetarli bo'lmagan, kunni toza ichimlik suvini izlash uchun sarflaydiganlarga ham oson emas! Bu tuyg'ularni suvni isrof qilayotganlar qayoqdan ham bilsin!

***Muammoga yechim topildi ham deylik, u qanday natija beradi?***

Quyida global ekologik muammolarni bartaraf etish borasida bir qator tavsiyalar va ularning natijalari ilmiy va huquqiy jihatdan muhokama qilinadi:

**1. Taklif: ekologik qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikni og'irlashtirish.** Ta'kidlash joizki, ekologik-huquqiy javobgarlik bu belgilab qo'yilgan tabiatni muhofaza qilish va ekologik qonun talablari hamda me'yorlarini buzganligi, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish, muhofaza qilish qoida-talablarini buzish, atrof tabiiy muhitni, tabiatni ifloslantirish, tabiiy resurslardan noqonuniy va xo'jasizlarcha foydalanish oqibatida vujudga kelib, u sub'ektlarni yuridik javobgarlikka tortilishida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ekologiya qonun talablarini buzganlik uchun qanday turdagi javobgarlik nazarda tutilgan va ushbu turdagi javobgarlik turlari bugungi kundagi zamon talabiga qanchalik darajada mos kelmoqda yoxud bu javobgarlik ko'lamini butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solib kelayotgan global ekologik vaziyatni yumshatishga yordam berishi mumkinmi yoki yo'q?

Masalaga huquqiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, ekologik qonun talablari buzilganda amaldagi qonunlarimizga muvofiq ekologik-huquqiy javobgarlikning quyidagi javobgarlik turlarini keltirib o'tish o'rinlidir:

1. Intizomiy javobgarlik
2. Ma'muriy javobgarlik
3. Fuqarolik javobgarlik
4. Jinoiy-huquqiy javobgarlik

Ekologik qonun talablarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning VIII bobi «Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik» deb nomlangan bo'lib, xususan, ushbu kodeksning 79-moddasida quyidagicha javobgarlik masalasi nazarda tutilgan: "Daraxtlar, butalarni, boshqa o'rmon o'simliklari va nihollarni g'ayriqonuniy ravishda kesish, shikastlantirish yoki yo'q qilish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi".

Lekin ekologik barqarorlikka erishgan va statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoning eng toza mamlakatlar ro'yxatidan 3-o'rinni egallab kelayotgan Norvegiya davlatining aynan yuqorida keltirib o'tilgan javobgarlik masalasi bo'yicha qonunchilik tajribasini o'rganadigan bo'lsak, quyidagi normani uchratish mumkin:

«O'rmon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasida agar o'rmonlarni kesish ushbu Qonunga zid ravishda rejalashtirilgan yoki amalga oshirilgan bo'lsa, mol-mulk ishlab chiqarish bazasini sezilarli darajada kamaytiradi yoki atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qadriyatlar bo'lsa, munitsipalitet kesishdan bosh tortishi yoki qanday bo'lishi shartlarini belgilashi mumkin. Vazirlik tomonidan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xaridor va sotuvchi buni ta'minlashi kerak deb belgilangan bo'lib, agar aynan shu qoida buziladigan bo'lsa, xuddi shu qonuning 26-moddasiga ko'ra, qasddan yoki beparvolik bilan buzgan yoki buzilishida ishtirokchi bo'lgan shaxs 6, 7, 8, 11, 12, 13, 14 yoki 15 bo'limlari qoidalari, ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarga muvofiq jarima yoki bir yildan oshmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 4-bo'limi «Ekologiya sohasidagi jinoyatlar» deb nomlangan bo'lib, yuqoridagi qonunbuzarlik holati uchun 198-moddada jinoiy javobgarlik masalasi nazarda tutilgan: Olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish natijasida ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa,

— *bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.*

O'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

*bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.*

Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qasddan shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, — *bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch*

*yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.*

Yuqorida qonunchilikdan keltirilgan misollar natijasida anglash mumkinki, O'zbekiston Respublikasi jinoiy, ma'muriy qonunchiligida ekologik qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlik masalasi qat'iy xarakterda emasligi bilan namoyon bo'ladi.

***2-taklif: Ekologik xavfsizlik doirasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.***

Savol tug'ilishi tabiiy: insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash, global ekologik muammolarni bartaraf etish, ro'y berishi prognozlashtirilayotgan salbiy hodisalarning oldini olish uchun xalqaro hamkorlik qay darajada ahamiyatga ega? Xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro birdamlikka asoslangan hamkorlik qay darajada o'z natijasini berish mumkin?

***Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sayyoramizda xalqaro ekologik hamkorlikning zarurligi quyidagi hollar bilan belgilanadi:***

1. Yer sayyorasi va uning o'ziga xos tabiatini insonga ma'lum bo'lgan olamda yagona ekanligi;
2. Yer tabiati va biosfera yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib inson va jamiyat uning tarkibiy qismi ekanligi;
3. Insoniyatning barcha ishlab chiqarish faoliyatini moddiy negizi tabiat ekanligi;
4. Tabiatdagi salbiy o'zgarishlar va atrof-muhitga antropogen ta'sir ko'lami jihatidan butun sayyoraга tazyiq ko'rsatuvchi jarayonlar ekanligi;
5. Hozirda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal etishga ko'p hollarda bir yoki bir nechta davlatlarning imkoniyatlari yetarli emasligi;
6. Barcha insoniyatning birgalikdagi harakati sayyoramizdagi ekologik vaziyatni yaxshilashning eng maqbul yo'li ekanligi.

Demak, ko'rinib turibdiki, global ekologik muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlik suv va havodek muhimdir. 1945 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilishi munosabati bilan ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. BMT xalqaro ekologik hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirdi. Hozirda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotlardan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda butun insoniyat va uning progressiv qatlami inson-tabiat o'rtasidagi optimal holatni belgilab olishga intilmoqda. «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi» shu maqsadga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2012 yilda BMT tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'lib, u har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik

ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. 2015 yil 25-27 sentyabr kunlari BMTning 200 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan Sammitda aynan Barqaror rivojlanish masalasi kun tartibiga qo'yildi va yaqin 15 yilga mo'ljallangan tadbirlar rejasi e'lon qilindi.

Mazkur maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030 yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan bo'lib, unda dunyo mamlakatlarining yetakchilari dunyoning barcha nuqtalarida barcha global muammolarga batamom barham berishga va'da qilishi kutiladi. Shu jumladan, dasturning 13, 14 va 15-maqsadlari Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, yer ekotizimlarini asrash va dengiz ekotizimlarini asrash deb nomlangan bo'lib, hozirgi global taraqqiyot davrida ekologik vaziyatning qanchalik darajada dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Lekin, bularning barchasi ulkan ko'lamdagi ekologik muammolarni bartaraf etish uchun kifoya qilmasligi sizni bizga birdek ayondir.

Jumladan, AQSh hukumatining global ekologik muammolarni mensimasdan kelayotganligi barchani birdek tashvishga solib qo'yishi shubhasizdir. «Hech qaysi davlat iqtisodiy istiqboli va energetik xavfsizligi evaziga ekologik barqarorlikka erishishni maqsad qilmasligi kerak» deb BMTning Polshada bo'lib o'tgan iqlim muammolariga bag'ishlangan forumida AQShning energetika bo'yicha vakili bergan bayonotda bu yanada o'z aksini topdi. Nahotki hukumatlar dunyo hamjamiyatni tashvishga solib kelayotgan global ekologik muammolar inqirozini abadiy muammoga aylantirishga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Vaholanki, AQSh dunyoda iqlimni ifloslash bo'yicha Saudiya Arabistonidan keyingi «faxrl» 2-o'rinni egallab kelmoqda.

Shu sababli, hukumatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan bo'yin tovlayotgan davlatlarga nisbatan **iqtisodiy sanksiyalar qo'llash, ularning tovarlarini sotib olishdan bosh tortish** orqali butun dunyoda ekologik xavfsizlikni ta'minlagan bo'lar edilar. Shu o'rinda, «**iqtisodiy qamchi**» usuli chinakamiga qo'l beradi. Insoniyat boshiga ko'lanka solib turgan ekologik falokatlarining oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik ma'lum darajada shakllangan va muhim tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali bu boradagi ishlarni yanada izchil faollashtirish zarur. Chunki hozirgacha atrof-muhit muhofazasi va insoniyatga yetarli, qulay yashash sharoitlarini yaratish masalalarini boshqarib turuvchi tom ma'nodagi keng ko'lamli, ta'sirchan, xolis, yagona xalqaro tizim vujudga kelgani yo'q. Xalqaro ekologik hamkorlik takomillashib borishi insoniyat taraqqiyotining bundan keyingi bosqichlarida ham muhim hayotiy zarurlatlardan biri bo'lib qolaveradi.

**3-taklif: Aholining ekologik madaniyat ko'rsatgich darajasini oshirish.** O'zbekistonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk suv ichadi. Gidrosferaning faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qilishi haqida bilasizmi? Yoki qishloq xo'jaligining ayrim sohaslaridagi suv sarfini qiyosiy hisoblab ko'rsak, 1 tonna

bug'doy yetishtirish uchun **1,5 tonna**, 1 tonna sholi uchun - 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta yetishtirish uchun **10 ming tonna** suv sarflanishi haqida nima deya olasiz? O'z ekologik madaniyatingiz qay darajada deb hisoblaysiz?

Ekologik madaniyatni oshirish haqida so'z borganda, ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat bir nechta faktorlar natijasi o'laroq shakllanadi yoxud yuzaga keladi: jumladan, tabiatga muhabbat, tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar, ko'nikmalar, ekologik tarbiya, qadriyat va an'analar ekologik madaniyat shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bugungi global ekologik muammolar insoniyatni bir bo'g'ma ilondek qamrab olgan paytda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish va ularda atrof-muhitga nisbatan ratsional yondashuv ko'nikmasini hosil qilish masalasi ulkan ahamiyat kasb eta boshladi deb hisoblash o'rindir.

*Ekologik madaniyatni shakllantirishda*, ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o'rin tutadigan maktab tarbiyasiga, o'rta va oliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratilishi lozim. Ekologik bilimlar tashviqoti, aholini ekologik tarbiyalash va ulami o'qitish bo'yicha ishlar avj oldirilganligiga qaramay, Respublikamiz oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida atrof muhit muhofazasi, ya'ni ekologiya sohasida boshqa sohalar kabi Davlat noziri singari mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunga qadar yo'lga qo'yilmagan. Ushbu soha uchun bu kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun talabidir. Bundan tashqari, insoniyat tarbiyasi uchun uning mahallasi ham alohida o'rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatishi lozim, deb o'ylayman.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, butun dunyoda ekologik barqarorlikka erishish, yer yuzining hozirgi holatini tubdan o'zgartirish uchun xalqaro hamkorlik, ekologik qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikning qat'iy bo'lishi, aholining yuqori darajadagi ekologik ong va madaniyatini oshirishning o'zigina kifoya qilib qolmasdan, balki barchamizni mas'uliyat hissi bilan yashashga undashga ham chaqiradi. Tabiat in'om etgan tuhfalarni buzadigan xalq o'z ildiziga bolta uradi deb Franklin Delano Ruzvelt tomonidan bildirilgan fikrlar barchamizni ogohlikka chorlab qolishi shubhasizdir. Zero, tabiatni muhofaza qilish bu nafaqat Vatan oldidagi farzandlik burchimizdir, balki insoniyatning kelajak avlod uchun qoldirishi mumkin bo'lgan yagona va bebaho xazinasidir.

### ***3. O'zbekistonda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish.***

O'zbekistonda qishloq va suv xo'jaligi, tog'-kon, kimyo, metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlarining so'nggi 30—40 yil davomida tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida atrof-muhitda kuchli o'zgarishlar ro'y berdi, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqdi. Natijada atrof-muhit holatini muntazam kuzatish, nazorat qilish va boshqarishning yagona davlat tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati tug'ildi.

Atrof-muhit monitoring mamlakatimizdagi bir qancha muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Atmosfera havosi va suv havzalarining ifloslanishi O'zbekiston Gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi tomonidan, yer osti suvlarining ifloslanishi, noxush tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishi O'zbekiston Geologiya vazirligiga qarashli "O'zbekgidrogeologiya" korxonasi tomonidan, tuproqning sho'rlanishi va grunt suvlari me'yori, kollektor suvlari minerallashuv darajasi

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan, o'rmonlar holati O'rmon xo'jaligi qo'mitasi tomonidan, atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan masalalar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ku-zatib, nazorat qilib turiladi. Bu tashkilot va muassasalarning monitoring sohasidagi faoliyati Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan boshqariladi. Bu qo'mita atrof-muhit bo'yicha turli axborot va ma'lumotlarni yig'ib, yuzaga kelgan ekologik vaziyatni baholaydi. Noxush ahvol vujudga kelgan bo'lsa, tegishli tashkilotlarga xabar berish bilan birga uning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Atrof-muhit monitoringini kuzatish va nazorat qilish turli usullarda olib boriladi: aerokosmik, avtomatik laboratoriyalar, ko'chma laboratoriyalar va h.k. Aerokosmik usul bilan atmosfera havo massalarining yo'nalishi, havoning ifloslanishi, tog'lardagi muzliklar, qorliklar rejimi, tuproq va o'simlik qoplamlarining holati, ekinlarning o'sishi, ularning holati hamda hosildorligi kuzatib turiladi.

O'zbekistonning ma'lum bir hududi aerokosmik usulda kuzatilayotganda olingan ma'lumotlar avtomatik ravishda tegishli tashkilotlarga uzatib turiladi. Atmosfera havosi monitoringi O'zbekiston hududida asosiy gidrometeorologik stansiya va postlarda amalga oshiriladi. Atmosfera va suv tarkibidagi zararli, ifloslantiruvchi moddalar miqdori maxsus laboratoriyalarda kimyoviy usullar yordamida aniqlanadi.

Sanoat rivojlangan hududlarda maxsus kuzatish asosan statsionar (doimiy), marshrutli va harakatdagi postlarda olib boriladi. Mazkur postlarda gazlarning miqdori avtomatik usulda aniqlanadi. Suv havzalarining ifloslanishi ham muntazam ravishda kuzatib va nazorat qilib turiladi. Daryolar, kanal va kollektor suvlarining ifloslanish darajasi bir yo'la bir necha joylarda (yuqori qismida, sanoat markazlari va shaharlarga kinsh joylarida, ichkarisida va chiqish joyida) aniqlanadi. Yil davomida mamlakatimiz bo'yicha olib borilgan kuzatish va nazorat ma'lumotlari yig'ilib, o'rta oyluk ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Tuproq, suv va o'simliklardagi turli zararli chiqindilar, asosan, sanoat korxonalari atrofida, pestitsidlar ekinzorlar va ular hududidagi suv havzalarida kuzatiladi va nazorat qilib turiladi. Sug'oriladigan hududlarda tuproqning sho'rlanishi bo'yicha kuzatish va nazorat amalga oshiriladi. Kuzatish va nazorat ma'lumotlari yilda ikki marta-

1-aprel va 1 -oktabrda yig'iladi.Yaylovlar asosan aerokosmik usulda kuzatiladi va nazorat qilib turiladi.

### Mavzu bo'yicha test savollari:

1.Kim tomonidan monitoring tashkil qilishning bioekologik, geokologik va biosfera bosqichlari ajratilgan?

- A) I. P. Gerasimov
- B) V.A.Kovda
- C) A.S.Kerjentsev
- D) Y.A.Izrael

2.Qaysi bosqichida asosan tabiiy-hududiy, tabiiy-texnogen va demografik (aholi) geotizimlari kuzatiladi va nazorat qilinadi?

- A) Bioekologik monitoring bosqichi
- B) Geokologik (geotizimli) monitoring bosqichi**
- C) Biosferaviy monitoring bosqichi
- D) Ekologik monitoring bosqichi

3.V.I.Vernadskiy, A.Grigorev, S.Kolesnik, A.Reakchikov, K.Markov kabi geograflar geografik qobiqning yuqori chegarasini qayerdan o'tkazadilar?

- A) Troposferaning yuqori qismidan, ya'ni 9-17 km yuqoridan;
- B) Anaerob bakteriyalarni tarqalish chuqurligidan;
- C) Stratopauzadan (ozon qatlami) ya'ni 30-35 km;**
- D) 500-800 m chuqurlikdan, ya'ni nurash po'stidan.

4.I.P.Gerasimov (1976) umumiy vazifalariga ko'ra atrof muhit monitoringini nechta turga ajratadi?

- A) 4 ta
- B) 3 ta**
- C) 5 ta
- D) 2 ta

### Nazorat savollari:

1. Monitoring atamasi qanday ma'noni bildiradi?
2. Monitoringning qanday turlarini bilasiz?
3. Global (biosfera) monitoring qanday amalga oshiriladi va bunda qanday vazifalar bajariladi?
4. Atrof muhit monitoringi va uning funksiyalari qanday?
5. Atrof-muhit monitoringi qanday darajadagi aloqalarni o'z ichiga oladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
2. Avazov Sh.M. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Darslik. Toshkent: "Ilm-ziyo". 2013.
3. Qayumov A., Yakubov O'. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. Toshkent-2008.
4. Sultonov P. "Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish asoslari" Toshkent "Musiqqa" 2007 y.
5. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o'qitish metodikasi. "Nodirabegim", T.: 2021.
6. Yo'ldoshev H.S., Avazov Sh.M. "Ekologiya va tabiatni muxofaz qilish asoslari". Toshkent 2003 y.

### **Internet saytlari:**

7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.pedagog.uz>
9. <http://www.geografiya.uz>

## XULOSA

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning mazmunini boyitish, ta'lim muassasalarining faoliyatini samarali va hayotiy maqsadlarni ko'zlagan tarzda yo'lga qo'yish, ularni eng zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan jihozlash hamda ta'lim jarayonini malakali pedagoglar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda<sup>9</sup>.

Pedagoglarning kasbiy salohiyatlarini oshirish, ularning zamon bilan hamnafas bo'lgan holda faoliyat yurita olishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda xalq ta'limi hodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining o'ri va ahamiyati beqiyos. "Pedagog hodimlarning kasbiy bilimi, ko'nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash" dan iborat bo'lgan mazkur tizimni yanada takomillashtirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Ushbu masala, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrda "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1026-sonli Qarori<sup>10</sup> mohiyatida ham o'z aksini topgan.

O'quv jarayonini davlat talablari, malakaviy talablarga mos yuqori ilmiy-metodik saviyada tashkil etish, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interfaol usullari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahoratni muntazam ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, ta'lim-tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishning yangi tamoyillari va zamonaviy usullari, malaka talablari, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borish-pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining maqsadi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida<sup>11</sup> ***"Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovasion rivojlanish yuliga o'tmokdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya, bu- kelajak degani. Biz buyuk***

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020 y., 23-sentyabr, 13-16-modda.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrda "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1026-sonli Qarori.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi "Xalq so'zi". №261 (6955) 2017 yil, 22 dekabr.

*kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovasion g'oyalar, innovasion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"* – deb ta'kidlagan edi.

Respublikamiz umumta'lim maktablari geografiya ta'limi samaradorligini oshirishda har bir geografiya fani o'qituvchisi dars loyihasini mukammal darajada tashkil etishi, har bir darsga alohida tayyorgarlik bilan kirishi va shu bilan birgalikda zamonaviy axborot kommunikasion va innovasion texnologiyalardan foydalanish orqaligina qo'yilgan maqsadga erisha oladi. Ayniqsa hozirgi murakkab axborotlarni, geografik voqea va hodisalarni, tabiiy-geografik jarayonlarini hamda iqtisodiy geografik tushunchalarni ta'lim oluvchilar ongiga yetkazish va shakllantirish fan o'qituvchisi oldiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Shuningdek, hozirgi globallashtirish sharoitida geografiya ta'limini mamlakatimizning ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan darajaga olib chiqishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ-xuquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son. . 213-modda, 22- son, 406-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020 y., 23-sentyabr, 13-16-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.

### II. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

7. Abdieva Z.A Geografiya fanida noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish. - Navoiy, 2003. - 68 b.
8. Abduganiev I. Geografiya dalarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish. -T.: O'qituvchi, 1990. - 77 b.
9. Abdukodirov A.A va boshqalar. Ta'limda innavatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod jamg'armasi, 2008. -145 b.
10. Abdullaeva D.N., "Geografiya darslarida masalalar, qiziqarli savollar va geografik topishmoqlar", "Niso Poligraf", Toshkent-2015.
11. Azixodjaeva. N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat.O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 y. 72-6.
12. Alimkulov N.R., Abdullaev I.H., Holmurodov Sh.A. Amaliy geografiya. – T.: 2015.

13. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rtta Osiyo tabiiy geografiyasi - Toshkent, O'qituvchi, 2002. 440 b.
14. Vaxobov X., N.R. Alimkulov., N.B.Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - "Nodirabegim" nashriyoti. 2021 yil.
15. G'ulomov P., Qurbonov R. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rtta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent-"Yangiyo'l poligraf servis"-2015. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.
16. Yo'ldoshev J.G'. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud o'qituvchi bo'lish osonmi?). Toshkent: O'qituvchi, 1998,- 208 b.
17. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovation texnologiyalar(ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod – 2008. 87 bet.
18. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Nazaralieva E.Y. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.:Fan va texnologiyalar, 2015. -144 b .
19. Xolmurodov Sh., "Geografiya fanidan amaliy topshiriq ishlarini bajarishda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida hamkorlik texnologiyalarini qo'llash". Toshkent – 2014.

### III. Internet resurslari:

- |     |   |   |
|-----|---|---|
| 20. | <a href="http://www.geografiya.uz">http://www.geografiya.uz</a>   | O'qituvchilar portali                           |
| 21. | <a href="http://www.natlib.uz">http://www.natlib.uz</a>           | O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti            |
| 22. | <a href="http://www.kitob.uz">http://www.kitob.uz</a>             | kitoblar, audio va videofayllar                 |
| 23. | <a href="http://www.edu.ru/maps">http://www.edu.ru/maps</a>       | interaktiv kartalar                             |
| 24. | <a href="http://www.zivonet.uz">http://www.zivonet.uz</a>         | ta'lim portal                                   |
| 25. | <a href="http://www.pedagog.uz">http://www.pedagog.uz</a>         | TDPU kutubxonasi veb sayti                      |
| 26. | <a href="http://www.xtxmom.bimm.uz">http://www.xtxmom.bimm.uz</a> | XTXQTMOH Markazlar platformasi                  |
| 27. | <a href="http://www.giu.uz">http://www.giu.uz</a>                 | Toshkent sh. XTXQTMO h.markazi veb sayti        |
| 28. | <a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a>                      | Toshkent davlat pedagogika universiteti         |
| 29. | <a href="http://www.nuu.uz">www.nuu.uz</a>                        | O'zbekistonda - O'zbekiston Milliy universiteti |
| 30. | <a href="http://www.msu.ru">www.msu.ru</a>                        | Geografiya fani bo'yicha esa Rossiyadagi MGU.   |

**“GEOGRAFIYA TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA  
INNOVASION TEXNOLOGIYALAR”**

XTXQTMO hududiy markazlarining MTI 13-Geografiya yo‘nalishi  
tinglovchilari va Oliy ta’lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy  
bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma

Bosishga ruxsat etildi. 14.10.2022 y.  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.  
Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.  
Nashriyot hisob tabog‘i 7.5, Adadi 100. Buyurtma № 19  
Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universitetining bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko‘chasi 27 uy.

5000 =

